

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«TABIY FANLAR» FAKULTETI

Abirqulov Q.N., Nizomov A.A., N.X., Rajabov N.

IQTISODIY GEOGRAFIYA

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT-2006

Abirqulov Q.N., Nizomov A.A., Rajabov N.
Iqtisodiy geografiya (O'QUV QO'LLANMA). T.: TDIU, 2006

Ushbu o'quv qo'llanmada «Iqtisodiy geografiya» fanining predmeti, nazariy va amaliy yo'nalishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni takomillashtirish muammolari ustida to'xtab o'tilgan.

Unda dunyo siyosiy kartasi rivojlanishining asosiy bosqichlari, yirik o'zgarishlar jumladan sotsialistik tuzimning parchalanishi natijasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi ta'riflangan.

O'quv qo'llanmada dunyo xo'jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti va integratsiya masalalari, ITTning dunyo xo'jaligi rivojlanishiga, tarmoq va hududiy tizimlarining ta'siri ko'rsatilgan.

Dunyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti ularning turli mamlakat guruhlarida joylashishi va rivojlanishi bayon etilgan. AQSH, Germaniya, Yaponiya va Rossiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi berilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekistonning jahon xo'jaligida tutgan o'rni, mehnat resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari, bozor sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanshi va joylashish xususiyatlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi atroflicha tahlil etilgan. Har bir mavzuga tegishli tayanch iboralar hamda adabiyotlar ro'yxati berilgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalish mutaxassiligida o'qiyotgan talabalarga mo'ljallangan.

KIRISH

Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan etuk, jahon talablariga javob beradigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi boshqa fanlar qatori «Iqtisodiy geografiya» fani ham katta o'rin tutadi. U bo'lajak iqtisodchilarga dunyoning va mamlakatimizning tabiiy va inson resurslari, ularning tarqalishi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti va xalqaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida bilim beradi.

«Iqtisodiy geografiya» fani bo'yicha tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi jahon iqtisodiy geografiyasi, ikkinchi qismi esa, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasiga bag'ishlangan.

Birinchi qismda «Iqtisodiy geografiya» fani, uning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ishlab chiqarish kuchlari, siyosiy xarita, jahon aholisi, jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlangan davlatlarning xo'jaligi haqida bilimlar berilgan.

Ikkinchi qismda Vatanimiz tabiati va tabiiy resurslari, ularning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga ta'siri, mamlakatimiz aholisi, mehnat resurslari, fani, madaniyati rivoji, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, xizmat ko'rsatish sohalari, tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalari bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozishda Q.Abirqulovning 2004 yilda chop etilgan «Iqtisodiy geografiya» darsligidan foydalanildi.

O'quv qo'llanma iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislar uchun tayyorlanayotgan. Unda kamchiliklar uchrashi tabiiy. Bu haqdagi fikr va mulohazalaringiz uchun oldindan minnatdorchilik bildirgan holda ularni quyidagi manzilga jo'natishingizni iltimos qilamiz:

Toshkent, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, «Mintaqa iqtisodiyoti va ekologiyasi» kafedrası.

I bo'lim. «IQTISODIY GEOGRAFIYA»NING NAZARIY ASOSLARI

I mavzu. «IQTISODIY GEOGRAFIYA» KURSINING PREDMETI, USULLARI VA VAZIFALARI

1.1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmeti, uning boshqa fanlar orasida tutgan o'рни

«Iqtisodiy geografiya» fanining predmeti. «Iqtisodiy geografiya» - ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo'yicha hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o'rganuvchi fandır.

«Iqtisodiy geografiya» fani ishlab chiqarishning hududiy muammolarini tabiiy va iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'rganadi; dunyo hamda turli mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil etish xususiyatlarining ob'ektiv qonuniyatlarini asoslab beradi; ishlab chiqarishning joylashishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish jarayonida mamlakatlar hududida iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi, ular o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishini izohlaydi; shuningdek ayrim mamlakatlar va hududlar xo'jaligining tasnifini aniq iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida o'rganib, qisqacha ilmiy xulosalar chiqaradi va tavsiyalar beradi.

Ishlab chiqarishning geografik muamolarini hal qilish borasida «Iqtisodiy geografiya» xalq xo'jaligi, uning tarmoqlarini strategik rejalashtirish uchun xo'jalik ob'ektlarini maqsadga muvofiq joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbollarini bashorat qilish bilan bog'liq bo'lgan qator muommalarni o'rganadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish qonuniyatlari ijtimoiy formatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy ishlab chiqarishning geografik muamolarini tadqiqot qilish ijtimoiy mehnat taqsimotini keng ko'lamda, ya'ni hududiy mehnat taqsimotini tahlil qilish bilan aniqlanadi.

«Iqtisodiy geografiya» mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sharoiti va xususiyatlari, ularda iqtisodiy rayonlarning, mamlakatlar va yirik iqtisodiy rayonlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi haqida tushuncha beradi; aniq ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish yo'li bilan mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish xususiyatlarining ob'ektiv qonuniyatlarini izohlaydi.

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlarda mahalliy, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Bunday izlanishlar mamlakatimizni, qo'shni mamlakatlarni va butun dunyoni bilishda muhimdir. Ular bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar dunyoqarashining shakllanishida, umumiy bilimini, ayniqsa iqtisodiy bilim saviyasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

«Iqtisodiy geografiya»ning boshqa fanlar orasida tutgan o'рни. «Iqtisodiy geografiya» geografiya fanlari tizimiga kiradi. U «Tabiiy geografiya», «Tarix», «Iqtisod va statistika» fanlari bilan uzviy ravishda bog'langan.

Geografiya fanlari bo'yicha tadqiqot va o'quv ishlari olib borish uchun «Iqtisodiy geografiya»ning «Tabiiy geografiya» bilan uzviy hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi «Iqtisodiy geografiya» uchun nazariy ahamiyatga ega bo'lgan umumiqtisodiy fanlarning Qisqacha xulosalari muhimdir. Tarmoqlar iqtisodiyoti bilan shug'ullanuvchi fanlar, ya'ni ishlab chiqarish sharoiti, xalq xo'jalik tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil qilish va rivojlantirish, texnik-iqtisodiy asoslari, ishlab chiqarishni joylashtirishning xususiyatlari va omillari, ishlab chiqarishda tannarx va boshqalar bilan shug'ullanuvchi aniq iqtisodiyot fanlari ko'p masalalarda «Iqtisodiy geografiya» bilan aloqada bo'ladi.

«Iqtisodiy geografiya» fani ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini tahlil qilish davomida tarixiy usullardan foydalanadi. «Tarix» fani esa jamiyatning rivojlanishi va tarixiy jarayonlarni tadqiq etayotganda tabiiy va atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni «Iqtisodiy geografiya» fanidan oladi.

1.2.«Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslari, ilmiy kontseptsialari va uslublari

«Iqtisodiy geografiya» geografik tadqiqotlarini tarixiy-ijtimoiy tahlillar asosida olib boradi. Bu borada, u albatta, hozirgi davrda ishlab chiqarishni joylashtirish masalalarida tarixiy ma'lumotlarga (ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi mintaqalari, transport yo'llari, aholini joylashtirish, shaharlar, mehnatga layoqatli aholi va boshqalarga nisbatan) tayanadi, rivojlanish darajasini, dinamikasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarishni solishtiradi, baholaydi va insonning tabiiy muhitga ta'sirini tadqiqot qilishdagi umumiy masalalarni o'rganish tegishli mamlakatning ayrim hududlari va iqtisodiy tumanlari xo'jaligini o'rganish uchun juda zarur hisoblanadi.

«Iqtisodiy geografiya» ishlab chiqarishni joylashtirishni o'rgana borib, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishi va rivojlanishini keng ko'lamda tadqiq qiladi.

«Iqtisodiy geografiya»ning quyidagi ilmiy kontseptsialari mavjud: iqtisodiy rivojlantirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, energiya ishlab chiqarish tsikllari kontseptsiyasi. Ushbu kontseptsiyalar iqtisodiy-geografik izlanishlarda o'z aksini topadi.

«Iqtisodiy geografiya» ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda dasturli-maqсадli, tizimning tahlili, balans (muvozanat), kartografik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy-geografik, iqtisodiy-geografik bashoratlash usullaridan foydalaniladi.

1) *Dasturiy-maqсадli usul* bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida juda muhim bo'lib, majmuaning kechiktirib bo'lmaydigan va umummanfaatlarni ko'zlagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi va maqsadi bilan uzviy bog'liq; 2) *Tizimning tahlil usuli* bosqichma-bosqich tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir hududiy tizim, ayniqsa, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, joylashish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ma'lum maqsad va vazifalarni qamrab olgan; 3) *Balans usuli* «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy usullaridan biri.

Ushbu usul yordamida regionlarning resurs va mahsulotga, ishchi kuchiga bo'lgan talabini aniqlash xususan, ayrim hududlar o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan o'z ehtiyojini qondiralayotganligi yoki qondira olmayotganligi, zarur mahsulotlarni keltirish yoki olib ketish qo'lami darajasini baholash, shuningdek, region ho'jalik majmui rivojlanishidagi nomutanosiblikni va uni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi; 4) *Kartografik usul* «Iqtisodiy geografiya»ning maxsus usullaridan hisoblanadi. Xarita – bilim manbai va o'rganish ob'ektidir. Hududiy, iqtisodiy geografik jarayonlar va ayrim mamlakatlar miqyosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hususiyatlarini eng ko'rgazmali tarzda faqat geografik xarita namoyon etishi mumkin; 5) *Iqtisodiy-matematik modellash usuli* ho'jalik tarmoqlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar jarayonida keng ko'llaniladi; 6) *qiyosiy geografik usul* qator hududiy birliklarni turli ko'rsatkichlar asosida bir-biri bilan taqqoslashdir; 7) *Iqtisodiy - geografik bashoratlash usuli* mamlakatlar, ularning hududlari kelajakda majmuali rivojlanishini turli ko'rsatkichlar tahlili orqali belgilashga yordam beradi.

«Iqtisodiy geografiya» ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda bulardan tashqari o'zi uzviy aloqada bo'lgan boshqa fanlarning usullari va hulosalaridan ham keng foydalanadi.

«Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalari. Ma'lumki, tabiatning jamiyat rivojlanishiga, moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishiga ta'siri hal qiluvchi holat emas. U jamiyatning rivojlanishiga turli ishlab chiqarish usullari va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishiga qarab turlicha ta'sir qiladi. SHuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish joylashtirilishini o'rganishda geografik muhit va bu muhit elementlarining hududlardagi o'zaro ta'sirini hisobga olish kerak.

«Iqtisodiy geografiya» uchun tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liq umumiy masalalar bilan bir qatorda turli tabiiy muhitning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sirini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tabiiy geografiya» bilan uzviy hamkorlikda va aniq tarmoqlar iqtisodiyoti ma'lumotlariga tayangan holda hududlar tabiiy sharoitiga iqtisodiy baho berish va undan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalaridan biridir.

Ma'lum bir hududda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarini tashkil qilish ko'zda tutiladi. SHuning uchun geografik muhitni xo'jalik yuritishda foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan baholash va uni oqilona o'zlashtirish muammolari «Iqtisodiy geografiya»da muhim o'rin egallaydi.

1.3.«Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanish tarixi

«Iqtisodiy geografiya» fan sifatida nisbatan yaqinda – 1200 - 250 yil avval shakllangan. Lekin uning manbalari va kurtaklarining paydo bo'lishi uzoq davolarga borib taqaladi. Chunki iqtisodiy-geografik ma'lumotlar qadimgi manbalarda (sayohatnomalar, zafarnomalar, yilnomalar, ilmiy asarlar va h.k.larda) juda ko'p uchraydi. Erotafonning (miloddan avvalgi III asr) «Geografika» nomli

asarining uchinchi qismi ham ayrim mamlakatlar ta'rifiga bag'ishlangan. qadimgi davlarda «Geografiya» fani ayrim mamlakatlarning, joylarning tabiati, aholisi va xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlar to'plamidan iborat bo'lgan.

O'rta asrlarda iqtisodiy-geografik bilimlar Al Xorazmiy («Kitob Sur'at al-Az»), Beruniy («Hindiston»), Bobur («Boburnoma») va boshqa olimlarning asarlarida chuqurlashtirilgan.

Evropada «Iqtisodiy geografiya» fan sifatida XVI asrdan shakllana boshlagan. Uning rivojlanishiga frantsuz olimi J.Boden, italiyan olimi L.Tviggerdi, golland olimi B.Varens muhim hissa qo'shishdi. Frantsuz olimi J.Boden 1564 yilda yozgan yirik geografik asarida Sharq geografiyasidagi geografik muhitning jamiyat rivojlanishiga ta'siri muammosi qaytadan ko'rib chiqildi, Italiya olimi L. Tvichchardining «Niderlandiya tavsifi»(1567 yil), Golland olimi B. Varenusning «Bosh geografiya» (1650 yil) nomli asarida ham iqtisodiy geografiyaga oid qator muammolar ilmiy echimini topdi.

«Iqtisodiy geografiya» ilmiy atamasini fanga birinchi bo'lib rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrda olib kirdi. U iqtisodiy xaritashunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Frantsuz olimi Lui Monteske tabiiy sharoitning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha juda muhim ilmiy ishlar olib bordi. Mazkur muammo bilan nemis olimlari I.Kant, G.F.Gegel ham shug'ullangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ayrim davlatlarda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlanish natijasida yirik geografik asarlar vujudga keldi. Bu davrda olimlardan A.Gumbold sanoatning tabiatga ta'siri masalalariga, K.Ritter esa tabiat va inson aloqalari muammolariga katta e'tibor berishgan.

XX asrda «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanishiga N.N.Kolosovskiy, N.N.Baranskiy, N.P.Nikitin, V.V.Pokshishevskiy, YU.G.Saushkin, E.B.Alaev, B.S.Xopeb va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

O'zbekistonda o'tgan asr boshlarida yashagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidov, Abdulla Avloniy va boshqalar Geografiyaning shakllanishida katta hissalar bor. Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida «Geografiya»dan qator darsliklar va asarlar yozilgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda «Aholi geografiyasi»ning asoschisi hisoblanadi. U «Madxali jug'rofiyai imroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («qisqacha umumiy geografiyasi»), «Muxtasarii jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi») nomli darsliklar muallifidir.

O'zbekistonda 1920-30 yillarda «Geografiya» fanining rivojlanishida quyidagi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi: N.Balashov («O'zbekiston va unga qo'shni jumhuriyatlar hamda viloyatlar», 1925 y.), N.P.Arxaelskiy («Jug'rofiya – o'lkani o'rganish darsligi», 1933 y.), A.Obizov («O'zbekiston sho'rolar jumhuriyati jug'rofiyasi», 1933 y.).

XX asrning ikkinchi yarmida va hozirgi paytda O'zbekistonda «Iqtisodiy geografiya» fanining rivojlanishi Z.M. Akromov, O.B. Otamirzaev, A.S. Soliev,

Q.Abirkulov, X.S.Salimov, A.R.Ro'ziev, A.Qayumov, SH.Inomov, H.Abdullaev va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.

Qisqacha xulosalar

«Iqtisodiy geografiya» fani geografiya fanlari tizimiga kiruvchi ijtimoiy fandır. U «Tabiiy geografiya» bilan hamkorlikda ishlab chiqarish rivojlanadigan geografik muhitni, aholining joylashishi, mehnat resurslarini, davlatlarning iqtisodiy-geografik sharoitini, mehnatning hududiy taqsimotini o'rganadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmetini izohlab bering.
2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslarini ta'riflang.
3. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy ilmiy uslublarini sanang.
4. «Iqtisodiy geografiya» boshqa fanlar o'rtasida qanday o'rin tutadi?
5. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida tabiiy sharoitlar ahamiyatga ega?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асиров Н.В., Хорев Б.Б. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003

II mavzu. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI JOYLASHTIRISHNING QONUNIYATLARI, SHAKLLARI VA OMILLARI

2.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati. ishlab chiqarish korxonalarini iloji boricha manba'larga yaqin joylashtirish kerak. Masalan, suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni suv manbalariga yaqin joylashtirish, **kundalik** istemol qilinuvchi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini istemolchilarga yaqinroq joylashtirish kerak va h.k.

2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qonuniyati. Bunda biron bir hudud ichida ixtisoslashuv va korxonalar o'rtasida eng takomillashgan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish hamda ularni tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ishtiroki ko'zda tutilgan.

3. Hududlarning majmualari rivojlanish qonuniyati. Bunda korxonalarning mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitga mosligi, ixtisoslashgan tarmoqlar, infratuzilmasini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish nazarda tutiladi.

4. Ishlab chiqarishni hududlarning ixtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati. Unga ko'ra respublikamiz hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasini o'zaro tenglashtirish, aholi turmush darajasini oshirish asosiy maqsad qilib olinadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yuqoridagi qonuniyatlar asosida yondashilsa xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshadi, iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

2.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllari – mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy jihatlarga ega. Bunda ishlab chiqarishning hududiy tomoni etakchi rol o'ynaydi.

Mujassamlashuv geografik jihatdan eng avvalo, moddiy sohalar – sanoat, qishloq xo'jalik, transportda yaqqol nomoyon bo'ladi. Fan ob'ektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Mujassamlashuv darajasining yuqori yoki pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ixtisoslashuv mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning **uch bosqichi - korxona, shahar va tuman** miqyosidagi ixtisoslashuvi, shuningdek, **uch turi – qism (detal); texnologik yoki yarim mahsulot** va **predmet** ixtisoslashuvi mavjud. Ixtisoslashuv bosqichlari korxona, shahar va tumanlarning mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilab beradi, turlari esa, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli hududiy bosqichda o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Ixtisoslashuv natijasida tarmoqlar, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funktsional turlari shakllanadi.

Kooperatsiya – bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligi bo'lib, bunda ularning tarmoq holda joylashuvi kuzatiladi. Bunda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga boliq bo'ladi.

Kombinatsiya - kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Kooperatsiyada mahsulot bir bo'lsa, kombinatsiyada aksincha, xom ashyo bir bo'lib, undan olingan mahsulot turlicha bo'ladi. Kombinatlashuv ma'lum turdagi xom ashyoni chuqur texnologik qayta ishlagan holda mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi.

2.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari

Iqtisodiyot tarmoqlari ma'lum shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda hududiy tashkil etiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy-geografik o'rin kabi omillar e'tiborga olinadi. SHuningdek, ekologiya, ITT va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham oshib bormoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar hisobga olinishi zarur, lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan ayrimlarigina etakchi rol o'ynaydi.

Xom ashyo omili. Ayrim mahsulotlarni olish uchun xomashyo ko'proq sarflanadi. SHuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Yoqilg'i-omili. Issiqlik elektr stantsiyalari, qora metallurgiya sanoatining dastlabki bosqichini joylashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Ammo uning ta'siri har doim etakchi kuchga ega emas.

Elektroenergiya omili. Elektr quvvati yuqori kuchlanishli bo'lib, tarmoqlar orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddu shu maqsadda yirik ko'mir havzalarida yirik yoqilg'i energetika majmualari barpo etilgan. Elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida, uning arzon turiga ustunlik beriladi. Masalan, bir tonna titan ishlab chiqarish uchun 40-50 ming kvat-soat elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki, bunday korxonalarning arzon elektr quvvati manbalariga yaqin joyda qurilishi samarali bo'ladi.

Suv va iqlim sharoiti ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, yog'och-tselyulyuza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati qishloq xo'jaligi uchun muhim hisoblanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasida an'anaviy dehqonchilik issiq va quruq iqlimiy sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar orasida eng muhimi, aholi va mehnat resurslaridir. O'zbekistonda mahalliy aholining tabiiy ko'payishi darajasi yuqoriligi, migratsion harakati faolsizligi mehnat zahiralari ko'plab shakllanishiga olib keladi. SHu sababli ularning miqdori ko'p bo'lgan qishloq joylarda yangi korxonalarni, madaniy-maishiy muassasalarni tashkil etish zarur.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo, "iste'molchi" hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda keskin oshib bormoqda.

Transport - ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. SHuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shib, uyg'unlashib ketadi va uni "sof" holda ajratib olish qiyin. SHu bilan birga transport masalasi iqtisodiy-geografik omil bilan ham chambarchas bog'liq.

Ilmiy-texnik taraqqiyot omilining ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etishda aniq namoyon bo'ladi. Masalan, mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar yuksak darajada ilmiy texnika qudratiga ega bo'lgan shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan omillarning ahamiyati katta. Ammo ularning barchasi provard natijada **ekologik omil** bilan "hisoblashishlari" kerak. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalarining ishlashi shu nuqtai nazardan to'xtatilganligi bejiz emas. Ekologik jihatdan kimyo, yog'och-tsellyuloza, go'sht, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostantsiyalari aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshi. Bu omil bilan hozirgi kunda hisoblashmasdan iloji yo'q.

Bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarining hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu borada an'anaviy fikr yuritish tarzimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda nimaga ixtisoslashuvni va qaerda joylashtirishni provard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari o'zgarishi ko'rsatilgan. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat: hududiy tashkil etish, hududiy ixtisoslashuv, hududlarning majmuali rivojlanish qonunlari. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllariga mujassamlashuv, ixtisoslashuv va kooperatsiya kiradi. Ishlab chiqarish quyidagi omillarni hisobga olgan holda tashkil etiladi: xom ashyo, yoqilg'i, elektroenergiya, suv va iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy, transport, ilmiy-texnik taraqqiyot va ekologik, bozor iqtisodiyoti omillari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?
2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
3. qaysi sanoat tarmoqlari xom ashyo manbalariga yaqin quriladi?
4. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar ga ko'proq e'tibor beriladi?
5. Qanday omil priborsozlik va elektronika sanoatini joylashtirishga kuchli ta'sir etadi?
6. Yaponida ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar asosiy rol o'ynagan?
7. O'zbekistonda avtomobil zavodini qurishda qanday omil hisobga olingan?

8. Rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?
9. Mustaqil O'zbekistonda ishlab chiqarishni joylashtirishda qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
10. Markaziy Osiyo sharoitida ekologik omil qanday ahamiyatga ega?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirqulov Q. N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асиров N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003

II bo'lim. JAHON IQTISODIY GEOGRAFIYASI

III mavzu. HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY XARITASI

3.1.Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi

Siyosiy kartasi mamlakatlarning xalqaro o'rnini, dunyoda egallagan mavqeini, rivojlanish xususiyatlari yaqqol aks ettiradi.

Dunyo siyosiy kartasi g'oyat o'zgaruvchan xususiyatga ega. U quyidagi asosiy siyosiy-geografik o'zgarishlarni aks ettiradi: muayyan davlatning boshqa davlat bilan qo'shilishi davlat suverenitetining yo'qotilishi, mamlakatlar maydonining, chegaralarning mamlakat va poytaxt nomlarining o'zgarishi va boshqalar. Bu elementlarning barchasi siyosiy geografik kartaning asosiy mazmunini belgilab beradi.

3.2.Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari

Shakllanish bosqichlari. Hozirgi zamon dunyo siyosiy kartasi (DS) kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi. DSning shakllanishi qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davrlarga bo'linadi.

Qadimgi davr (davlatlarning dastlab paydo bo'lishidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o'z ichiga oladi. qadimgi Misr, Karfagen, qadimgi Gretsiya, qadimgi Rim, O'rta Osiyoda shakllangan qadimgi Xorazim, Baktriya, Sugda va boshqa davlatlar, Turk hoqonliklari (milloddan avvalgi 207 yildan milodning 216 yiligacha Ulug' Xun imperiyasi, Ikkinchi Xun imperiyasi millodning II-IV asri) kabi qadimgi davlatlar dunyo tsivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar..

O'rta asrlar davri (V-XV asrlar). Bu davrda DS feodalizm davri bilan bog'liq holda shakllangan. quldorlik imperiyalari parchalanib, ularning o'rnida ko'p feodal davlatlar paydo bo'ldi. Bu davrda muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Frantsiya, Portugaliya, Kiev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon - Turkiston o'lkasidagi feodal davlatlar va boshqalar mavjud bo'lgan. Amir Temur va Temuriylar davlatlari (XIV asrning oxiri XV asr boshi) katta salmoqqa ega bo'lganlar. Bu davlatlar joylashgan o'rni Buyuk ipak yo'li bilan bog'lanib, g'arb va Sharq o'rtasidagi aloqalarda o'ziga xos Karvon yo'li "Ko'prigi" rolini o'ynaganlar.

Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining yangi davri (XV-XVI asr orolig'idan birinchi jahon urushi tugaganiga qadar) kapitalizm paydo bo'lgan, rivojlangan va qaror topgan butun bir tarixiy davrga to'g'ri keladi.

Buyuk geografik kashfiyotlar feodal ishlab chiqarish munosabatlaridan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o'tishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasida kuchli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Eng yangi davr birinchi jahon urushining tugashi va 1917 yil Rossiyada Oktyabr to'ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich (1917-1939 yillar) dunyo xaritasida SSSR (sotsialistik imperiya)ning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi.

Ikkinchi bosqich (1939-1990y.) Evropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo'lga o'tadi. Imperyalizm mustamlakachilik tizimining emirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatlar paydo bo'ladi.

Uchinchi bosqich 1990 yillardan to hozirga qadar davom etayotir. Bunda dunyo kartasida muhim yangi sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi:

- 1991 yilda SSSR ning parchalanishi, uning tarkibidagi barcha ittifoqdosh respublikalar davlat mustaqilligining e'lon qildi;
- Mustaqil davlatlar hamdo'stligining (MDH) tashkil topdi;
- 1990 yil 3 oktyabr - ikki nemis davlatining (GFR va GDR) yagona davlatga birlashdi;
- Yugoslaviya Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida Sloveniya, Bosniya va Gertsogovina, Xarvatiya, Serbiya va Chernogoriya mustaqilligining e'lon qildi;
- 1993 yili Chexoslovakiya parchalanib Chexiya va Slovakiya vujudga keldi.

Dunyo madaniyati va tsivilizatsiyasi shakllanishida Sharq muhim rol o'ynagan. qadim zamonlarda Sharq bilan g'arbni bog'lab turgan «Buyuk Ipak Yo'li» O'zbekiston hududi orqali o'tib (XV asrgacha) Eski dunyoning ko'p davlatlari savdo va madaniy aloqalarida muhim rol o'ynagan.

Qisqacha xulosalar

Siyosiy kartaning ahamiyati katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rnini, egallagan mavqeini, ichki siyosiy-mamuriy tuzilishii xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasida kuchli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. U Evropa mustamlakachilar bosqichining boshlanishi, dunyo xo'jalik aloqalarining keng tarqalishi, aholi ko'chish harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

SSSRning parchalanishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi dunyo siyosiy xaritasida ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Dunyo siyosiy xaritasi tushunchasiga izoh bering;
2. Uning ahamiyati va o'ziga xosligi nimada?
3. Dunyo siyosiy xaritasi qanday shakllangan?
4. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy bosqichlari tarifi.
5. Mamlakatlar tipologiyasi (guruhleri) qanday belgilarga qarab aniqlanadi?
6. SSSRning parchalanishi natijasida dunyo siyosiy xaritasida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

7. Yangi mustaqil davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida farqlar bormi?
8. Eng rivojlangan mamlakatlarni sanab bering
9. Turli guruh mamlakatlar tasnifi.
10. Hamdo'stlik mamlakatlar tasnifini bering.
11. Yangi mustaqil davlatlar tasnifi.

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асиров N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003

IV mavzu. DUNYO AHOLISI ГЕОГРАФИЯСИ

4.1.Dunyo aholisining o'sishi

Aholining tabiiy o'sishi yillar o'tgan sari ortib borayotganligi to'g'risida turli ma'lumotlar bor. Er sharida bundan 1000 yil muqaddam 300 mln. kishi yashagan bo'lsa, 1900 yilga kelib 1mlrd. 600 mln. hozir esa 6 mlrd. dan oshib ketgan. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2010 yilda aholi soni 7 mlrd. 176,6 mln.ga, 2025 yilda esa 8,5 mlrd.ga etadi. Dunyoda har soniyada 3, daqiqada 155, har soatda 10609, har kunda esa 245-620 ming chaqaloq ro'yxatga olinadi.

Aholi sonining ozayib ketishi bo'yicha Evropa malakatlari (Germaniya, Daniya, Finlandiya) oldinda turadi.

4.2.Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi

Aholi Er kurrasida nihoyatda notekis joylashgan. Er shari aholisining 70%i quruqlikning 7 foizida mujassamlashgan bo'lsa, 15%da aholi umuman yashamaydi. Aholining asosiy qismi mo'tadil, subtropik va subekvator iqlim mintaqalarida joylashgan, 50% aholi dengiz satkidan 200 m.gacha bo'lgan hududlarda; 30%i dengiz sohillaridan 50 km.gacha uzoq hududlarda yashaydi. Er shari bo'yicha har km² ga o'rtacha 40 kishi tugri keldi. Aholi ko'p to'plangan uchta asosiy arealni ajratib ko'rsatish mumkin:

1)Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo. Bu arealda o'rtacha zichlik 1 km.kv.ga 100, ba'zi joylarda esa, 1000-1500 kishiga etadi. Aholi eng zich yashaydigan mamlakatlarga Hindiston, Bangladesh, SHri-Lanka, Pokiston (300-500 kishig'km²), Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, KXDR Indoneziya, Fillippin, Tayland, Malayziya (200-ZOOKishi).

Umuman, dunyo aholisining 60%i Osiyoda ,12%i Afrikada, 9,5%i Evropada, 8,5%i Lotin Amerikasida, 5,5%dan SHimoliy Amerika va sobiq Ittifoq hududida, 0,5% Avstraliya va Okeaniyada istiqomat qiladi.

2) ikkinchi areal Evropada tarkib topib, o'rtacha zichligi 200 kishidan 400 kishigacha bo'lgan bir qancha mamlakatlar bor.

3)AQSHning SHimoliy-Sharqiy qismidir.

Aholi eng zich rayonlar qurqlikning 7%ini eg'allab, bu erda dunyo aholining 70%ga yaqini to'plangan.

Aholining joylashishi ko'p jihatdan shaharlar географиясига bog'liq. Er kurrasi aholisining XIX asr boshida 3%i, XX asr boshida 13%i va 2000 yilda esa 41%i shaharlarda yashagan. Hozirgi vaqtda shahar aholisi er sharidagi butun aholiga qaraganda ikki baravar tez ko'paymoqda.

4.3.Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi

Mamlakat yoki rayon aholisi sonida shaharliklar salmog'ining o'sishi **urbanizatsiya** deb ataladi. Dunyo bo'yicha urbanizatsiya darajasi XX asr boshidagi 4%dan hozirgi davrda 41% ga ortdi. Urbanizatsiya darajasi ham dunyoning turli qismlarida turlicha. Masalan, xorijiy Osiyoda 27%, Afrikada 30%, Evropada 73%. SHimoliy Amerikada 75%.

Shahar aglomeratsiyalari ham tez rivojlanmoqda. Er yuzasida soni 10 mln.dan ko'p bo'lgan «bahaybat shaharlar» ancha ko'paydi Yangi asr boshlaridayoq Mexikoda-31 mln, San-Pauluda-26 mln., Tokioda-24, Nyu-Yorkda-23, Kalkuttada-20 mln aholi yashashi bashorat qilinmoqda. Aholisining soni 5 mln. dan ziyod shaharlar soni 30 taga etadigan bo'lsa, "millioner shaharlar" soni 250 taga etdi. Urbanizatsiya shaharlar rolining ortishi va shaharliklar turmush tarzining o'zgarishi jarayonidan iborat.

Shaharlar juda tez o'sayotganligiga qaramay, hozircha dunyo aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarda yashaydi.

4.4.Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi

Dunyo aholisining jinsiy tarkibida erkaklar bir oz ko'proq.

Aholining yoshi bo'yicha tarkibiga tabiiy ko'payish, migratsiya va urushlar ham ancha ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoda aholisining turli dinlarga mansubligini bilish ham muhimdir. Eng ko'p tarqalgan dinlarga uch masxabga ega bo'lgan xristian dini, islom dini, hind dini va buddizm kiradi.

4.5.Mehnat resurslari va bandlik muammolari

Aholining jismonan rivojlangan va sog'lom, mehnatga yaroqli qismi mehnat resurslarini tashkil etadi. Mehnatga yaroqli aholiga, odatda, 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan kishilar kiradi.

Aholi bandligi ham turlicha. Masalan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish sohasida Rossiya aholisining (mehnatda band aholining) 70%i, AQSH aholisining 54%i, noishlab chiqarish sohasida esa Rossiyaning 30%, AQSHning 46% mehnat resurslari band. Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi bo'yicha Rossiyada 15%ni, AQSHda 3%ni, sanoatda Rossiyada 37%ni, AQSHda 24%ni, xizmat ko'rsatish sohasida Rossiyada 48%ni, AQSHda 70% ni tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi salmog'i g'arbiy Evropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida 40-45%ni, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 30-40%ni tashkil etadi. Dunyoda ishsizlikka barham berish eng asosiy muammolardan birga aylangan.

Er shari iqtisodiy faol aholisining 50 %dan ortig'i qishloq xo'jaligida band.

Aholining etnik tarkibi. Er shari aholisi juda ko'p etnik birliklardan iborat. Ana shunday birliklarning eng kichigi - qabila, o'rtasi elat va kattasi millatdir. Er yuzida 2000dan ortiq milliy guruhlar bor. Aholisi soni 50 mln. kishidan ortiq bo'lgan eng yirik xalqlardan 18tasi butun insoniyatning yarmiga yaqinini tashkil etadi.

Qisqacha xulosalar

Mavzuda dunyo aholisining hududiy joylashuvidagi qonuniyatlar ochib berilgan. Muayyan tarixiy davrlar mobaynida aholi sonining o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Jahon aholisining diniy va irqiy tarkibiga keng o'rin ajratilgan. Unda asosiy irkiy guruhlar, dunyo dinlari va ularning hududiy tarkalishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlarda mehnat resurslarining tarkibi, ular orasidagi tavofutlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aholining tabiiy o'sishiga va zichligiga qanday omillar ta'sir etadi? Ularga tarif bering.
2. «Demografik portlash» nima?
3. Er yuzida aholi irkiy tarkibi bo'yicha qanday tarkalgan?
4. Aholi migratsiyasining asosiy oqimlari nimalardan iborat?
5. Urbanizatsiya jarayoni yuqori bo'lgan hududlarni bilasizmi?
6. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari haqida nima deya olasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy география, Т.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», Т.: 2004.
2. Асилов N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУП, 2003

V mavzu. JAHON XO'JALIGI ГЕОГРАФИЯСИ

5.1.Dunyo xo'jaligining umumiy ta'rifi

Dunyo xo'jaligining shakllanishi juda uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, tosh quollaridan eng murakkab elektron-hisoblash mashinalaridan foydalanishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali o'zaro uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir.

Dunyo xo'jaligi tuzilishi o'zgarib bormoqda. Jahon bozori dunyo mamlakatlari iqtisodiy aloqalarining asosini tashkil etadi. Transportning yangi turlari paydo bo'lishi natijasida kontinentlararo aloqalarning juda tez rivojlanishi uning kengayishiga imkon bermoqda.

Dunyo mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari faqat tavar savdosi va xizmat ayirboshlashi bilan cheklanmaydi. Hozirgi dunyo xo'jaligi kapital oqimlari va odamlarning migratsiya oqimlari mavjudligi, ularning aralashib ketganligi bilan xarakterlanadi. Bularning hammasi birgalikda «xalqaro mehnat taqsimoti» tushunchasini tashkil etadi.

Dunyo mamlakatlarining XMTda qanday tarmoqlarga ixtisoslanishi katta ahamiyatga ega.

SHu bilan bir qatorda «uchinchi dunyo» mamlakatlari orasida XMTda yangi industrial mamlakatlar (YAIM) alohida o'rinni egallaydi. Ular qatoriga Braziliya, Meksika, Misr, Turkiya, «Osiyo yo'lbarslari» - Gonkong, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya Malayziya, Tailand kiradi

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko'p shakllari mavjud bo'lib, ular qatoriga tashqi savdo, kapital chiqarish, ilmiy-texnika hamkorligi, kompensatsiya kelishuvlari, kredit-moliya munosabatlari, turli xizmat ko'rsatish yo'nalishlari, xalqaro turizm, ob'ektlarni birgalikda qurish va boshqalar kiradi.

XMT ning yangi, oliy bosqichi – xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) paydo bo'ldi. U mamlakatlar guruhining iqtisodiyot va siyosat sohasida davlatlarora kelishuviga asoslangan chuqur va muntazam o'zaro aloqalari jarayonining rivojlanishini ifodalaydi.

Dunyoning eng muhim regional va tarmoq iqtisodiy guruhlaridan qo'yidagilarni ko'rsatish lozim: Evropa Itifoqi (EI), Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Lotin Amerikasi integratsiyasi assotsiatsiyasi (ALADI), SHimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi to'g'risida (NAFTA), neft eksporti mamlakatlari Tashkiloti (OPEK) va boshqalar.

Dunyoning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (%)

Mamlakat tiplari, mamlakatlar guruhi	Hududi	Aholisi	Sanoat hissasi	qishloq xo'jaligi hissasi	Tashqi savdo oboroti	YAlpi milliy daromad
Dunyo	100	100	100	100	100	100
Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar	23,8	15,2	66	40	70,4	59
shu jumladan: G'arbiy Evropa	2,7	7,0	23	19	45,8	25
Rivojlanayot-gan mamlakat-lar	76,2	53,5	17	30	22,3	14

Bir guruh iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 20%ga yaqini yashagani holda, ular dunyo boyliklarining 60%dan ortig'ini ishlab chiqarmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo iqtisodiyotidagi salmog'i 30%dan ko'proq.

5.2.Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish

XX asrning o'rtalarida boshlangan hozirgi zamon fan-texnika inqilobi (FTI) dunyo xo'jaligining rivojlanishini tubdan o'zgartirib yubordi. Zamonaviy fan kashfiyotlar industriyasiga, texnika rivojlanishining qudratli tezlashtiruvchisiga aylandi. FTI yutuqlarini joriy qilish bo'yicha Yaponiya, AQSH, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniyada g'oyat katta ilmiy potentsial mavjud. Ular hissasi dunyo olimlarining 85%i to'g'ri keladi. AQSHda har 10 ming kishiga 107, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 1 ilmiy xodim to'g'ri keladi.

FTI davrida ITTKI larga sarflanadigan xarajatlar g'oyat muhim iqtisodiy ko'rsatkichga aylanmoqda. Dunyo miqiyosidagi shunday xarajatlarning 85%i - AQSH, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya hissasi to'g'ri keladi.

YAngi texnika va texnologiyadan keng miqyoslarda foydalanish dunyo xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini oshirish, resurslarni iqtisod qilishda muhim o'rinni egallamoqda.

Elektron sanoati g'oyat tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu sanoat mahsulotining 33%i AQSH, 26,4%i Yaponiya, 25%i G'arbiy Evropa mamlakatlari, 7,9%i Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari, 1,8%i Lotin Amerikasi, 3%i boshqa mamlakatlar hissasi to'g'ri keladi.

Hozirgi zamon robotlarinin 20%i Yaponiyaga, 17%i AQSH, 12%i Buyuk Britaniya, 9%i GFR, 9%i Frantsiyaga, 4,5%i Italiya va 4,5%i SHvetsiyaga qarashli bo'lgan.

Hozrgi davrda dunyoda ishlab chiqarishini joylashtirishning eng muhim omillaridan biri ularning fan va ta'lim (ilm) olish markazlariga intilishi hisoblanadi. FTI davrida fanning ilgari asosan mamlakatlar poytaxtlarida va

universitet shaharlarida to'planishi o'zgarib, fanni hududiy tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'ldi. Yirik shahar aglomeratsiyalari chekkalarida ixtisoslashgan fan shaharlari (akadem shaharchalar), ilmiy-tadqiqot, texnologik markazlarni tashkil topdi. Ilmiy markazlar (parklar) AQSHda soni 150 dan ko'proqdir. Ularning eng mashhurlari: Massachuset texnologiya institutiga asoslanib, Boston atrofida tashkil etilgan. g'arbiy Evropada ularning eng yiriklari: GFRda Myunxen universiteti bazasida yaratilgan Izor Valli, Buyuk Britaniyada Kembridj universiteti bazasida tashkil etilgan Kembridj parki, Frantsiyada Lazur qirg'oqlarida joylashgan parklar.

Dunyo ho'jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichi aholi va ishlab chiqarishning yuqori darajada hududiy to'planishiga olib keldi. Natijada yirik sanoat markazlari, shahar aglomeratsiyalarida ishlab chiqarishning to'planishi sodir bo'lmoqda.

5.3. Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimida yuz berayotgan siljishlar

Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimida uchta bo'gini (qavat) ajratiladi: 1) makrotizim; 2) mezotizim; 3) mikrotizim;

Makrotizim eng yirik iqtisodiy nisbatlarni aks ettiradi va bunda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, sanoat, qurilish, qishloq ho'jaligi, transport va aloqa, xalqaro savdo o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi.

Mezotizim - tarmoqlararo shakllanadigan nisbatlarni ko'rsatadi. Masalan, dunyo sanoat tizimida FTI ta'sirida tog'-kon sanoatining solmog'i pasayib, ishlab beruchi sanoatning salmog'i oshib bormoqda. Agar ikkinchi jahon urishidan oldin ularning nisbati 15:8,5 bo'lgan bo'lsa, 90-yillarning boshida esa 8:92 ga etdi.

Mikrotizim - sanoat ishlab chiqarishida yuz berayotgan o'zgarishni aks ettiradi. AQSHda fantalab yuqori texnologik ishlab chiqarishning butun ishlab beruvchi sanoat mahsulotidagi hisssasi 40% , GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya - 30-35% ga teng.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Evropa, SHimoliy Amerika, Yaponiya va sobiq SSSRda ishlab chiqarishning industrial tipi shakllandi.

FTIning kengayishi rivojlangan mamlakatlarda industrial turdan keyin shakllangan va «postindustrial» deb nom olgan iqtisodiyotning mutlaqo yangi turi paydo bo'ldi. U o'z navbatida, industrialorti jamiyati shakllandi. Uning xususiyatlarini amaliyotda fantalab ishlab chiqarishning yuqori darajasi belgilab beradi. AQSH, Yaponiya, g'arb mamlakatlarida noishlab chiqarish sohasiga band aholining 64%i, Nepalda esa atigi 8%ga to'g'ri keladi.

5.5. Dunyo xo'jaligining geografik modeli

Dunyo xo'jaligining rivojlanishi va murakkablashib borishiga muvofiq uning geografik modeli ham o'zgarib bordi. Dunyoda hukmdor mavqeni turli davrda turli mamlakatlar egallagan. O'z vaqtida Amir Temur davlati, so'ngra Angliya, Ispaniya shunday vazifani bajargan. XX asrda AQSH dunyoda hukmdor kuchga aylandi. SHu bilan bir qatorda bu model tobora murakkablashib bormoqda va u bir markazlikdan ko'p markazlik xususiyatga ega bo'lmoqda. XVIII asr oxirigacha dunyoda bitta markaz – Evropa ustun turgan bo'lsa, keyinchalik

ikkinchi markaz - AQSH paydo bo'ldi va keyin boshqa yangi markazlar paydo bo'la boshladi.

Ulardan eng iqtisodiy qudratlisi ikkita eski markazlar – Evropa (dunyo YAIMning 28%) va Amerika (26%) hisoblandi. Undan keyin ikkita o'rta avlod markazi - Yaponiya (10%) va MDH turadi. Bu markazlar birgalikda Dunyo xo'jaligi geografik modelining asoslarini tashkil etadi.

5.6.Dunyo xo'jaligi va regional siyosat

G'arb mamlakatlarida regional siyosatning 4 yo'nalishini ajratish mumkin: 1) qoloq agrar rayonlarni yuksaltirish. 2) depressiv rayonlarni jonlantirish. 3) poytaxtlarning gipertrofiyaga duchor bo'lishining oldini olish. 4) ekstremal tabiiy sharoitda resurs rayonlarini o'zlashtirish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda regional siyosatning yo'nalishi, mazmun va mohiyati g'arb mamlakatlaridagidan farq qiladi. Ularda regional siyosat asosan o'tmish mustamlakachilik davri asoratlarini bartaraf etishga qaratilgan.

Qisqacha xulosalar

Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali o'zaro uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir. Geografik mehnat taqsimoti hozirgi dunyo xo'jaligining asosini tashkil qiladi. FTI sanoatning fantalab sohalari tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi.

Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimi uchta bo'g'indan iborat: makrotizim, mezotizim, mikrotizim.

FTI ta'sirida xo'jalikni industrialorti turi vujudga keldi va tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunda xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydiganlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi.

Dunyo xo'jaligi hozirgi paytda ko'pmarkazlilik xususiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda regional siyosat davlat iqtisodiyotni boshqarishining tarkibiy qismiga aylangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon xo'jaligining ta'rifini bering.
2. Xalqaro geografik mehnat taqsimotining mazmunini tushuntirib bering
3. Xalqaro ixtisoslashuv deganda nimani tushunasiz?
4. Dunyo mamlakatlarining qaysilari dunyo xo'jaligida yuksak o'rinni egallaydi?
5. Jahon xo'jaligi shakllanishidagi asosiy davrlar haqida so'zlab bering.
6. Makro-, mezo-, mikrotizimlarning mohiyati nimadan iborat?
7. Regional siyosat deganda nimani tushunasiz?
8. Dunyoning asosiy rivojlanagn mintaqalari tasnifini bering.
9. Evropa Ittifoqining jahon xo'jaligida tutgan o'rni qanday o'zgarib bormoqda?
10. Dunyoning ko'pmarkazlik xususiyatlari nimadan iborat

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy география, Т.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», Т.: 2004.
2. Асиров N.V.,Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира.М.: МАУР, 2003

VI mavzu. DUNYO SANOATI VA UNING TARMOQLARI ГЕОГРАФИЯСИ

6.1.Sanoat rivojlanishining umumiy xususiyatlari

Sanoat dunyo moddiy ishlab chiqarishining etakchi tarmog'i bo'lib, unda 400 mln.dan ko'proq aholi band. Dunyo sanoat mahsulotining AQSHda 18,9%, Yaponiyada 10,7, Xitoyda 9,5, GFRda 5,9, Rossiyada 4% to'g'ri keladi.

Sanoat asosan ishlab beruvchi va undiruvchi (tog'-kon) tarmoqlardan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar sanoati strukturasida ishlab beruvchi sanoat 83,4%, undiruvchi sanoat – 8,1% salmoqqa ega. Unda mashinasozlik peshqadamlik qiladi. Masalan, mashinasozlikning butun sanoat ishlab chiqarishidagi salmog'i GFR, SHvetsariya, Buyuk Britaniya va Italiyada 32 22% ga, kimyo sanoatining salmog'i 20-25%ga teng.

6.2.Dunyo yoqilg'i-energetika sanoati

YOqilg'i-energetika sanoati dunyo xo'jaligining asosi hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan energetika resurslarining katta qismi AQSH, g'arbiy Evropa, Yaponiyaga olib ketiladi.

Dunyo neft sanoati eng yuqori darajada monopoliyalashgan tarmoqdir. Eng yirik neft korporatsiyalari qudratli xalqaro monopolistik guruhlariga kiradi.

2-jadval

Dunyoning aniqlangan neft zahiralari va uni qazib olish (2000 boshlarida)

Region (mamlakatlar)	Dunyo zahirasida- gi hissasi (%)	Neft qazib olish (1994y) (mln.)	Dunyoda qazib olish bo'yicha salmog'i (%)	Dunyoda qazib olish bo'yicha egallagan o'rni
Dunyo	100,0	3000,0	100,0	
Saudiya Arabiston	25,9	388,9	12,9	1
Eron	8,9	176,9	5,9	4
Xitoy	2,4	147,5	4,9	5
AQSH	2,3	326,7	10,9	3
Meksika	5,3	137,9	4,6	6
Venesuela	6,8	128,4	4,3	7

Dunyoda har yili o'rtacha 3-3,5 mlrd. t. neft qazib olinadi. Eng yirik neft qazib oluvchi mamlakatlar – Saudiya Arabistoni, AQSH, Rossiya, Eron. Fors qo'ltig'ining 5 mamlakati dunyo neftining 25, OPEK mamlakatlari 40, sanoati rivojlangan mamlakatlar 25%ini qazib oladi. Neftning aniqlangan zahiralardan 22,5%i dengiz konlariga to'g'ri keladi.

Qazib olinayotgan neftning yarmi eksport qilinadi. Asosiy eksportyorlar: OPEK mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Venesuela, quvayt. Neftni sotib oluvchi asosiy davlatlar Yaponiya, AQSH, g'arbiy Evropa mamlakatlari.

Gaz sanoati. Gazning aniqlangan zahiralari bo'yicha Rossiya, Eron, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkmaniston, O'zbekiston ajralib turadi.

Dunyoda gaz qazib m^3 olishning umumiy hajmi 1990 yilda 2,1 trln. m^3 , 2000 yilda 2,6 trln. m^3 dan oshgan. Gaz qazib oluvchi birinchi o'nlik mamlakatlarga Rossiya, AQSH, Kanada, Niderlandiya, Turkmaniston, O'zbekiston, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni kiradi. Gazni eksport qiluvchi davlatlar Rossiya, Turkmaniston, O'zbekiston, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, Jazoir, Indoneziya. Asosiy importerlar – GFR, Yaponiya, AQSH, Frantsiya, Italiya.

Gaz quvurlarini qurish jadal rivojlanmoqda. Ularning hozirgi paytdagi uzunligi dunyoda 980 ming km dan ortgan. Rossiyadan Evropaning ko'p mamlakatlariga gaz keltiriladi.

Dunyo ko'mir sanoati. Dunyoning ko'mir zahiralari 1,2 trln. t. ga teng. Uning bo'yicha (mlrd. t.): AQSH, Rossiya, Xitoy, GFR, Buyuk Britaniya, Kanada etakchi o'rin egallaydi.

Ko'mir qazib olish muttasil ko'payib bordmoqda 1950- 2000 yillarda 1,3dan - 5,8 mlrd. tonnaga etdi.

6.3.Dunyo elektroenergetika sanoati

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish ko'payib bormoqda. 1950 yilda – 950, 2000 yilda - 14,2 mlrd. kvt:soat. Dunyo elektr energiyasining 80% dan ko'prog'i rivojlangan mamlakatlar, 20%dan kamrog'i esa rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoda eng ko'p elektr energiya ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga AQSH – 3,8, Rossiya – 1,6, Yaponiya – 1,1, Xitoy – 9,8 mln klvt kiradi.

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish tarkibida 63% ni issiqlik elektr stantsiyalari (IES), 20%ni gidroelektr stantsiyalari, 17%ni atom stantsiyalari egallaydi.

Ko'mirda ishlaydigan IES JARda 100%, Avstraliyada 75%, Germaniya va AQSHda- 50% dan ortiq. GES larning salmog'i Norvegiya (99,5%), Braziliya (92%), Kanada (62%)da yuqori.

Atom energiyasining salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlarga Frantsiya (72,9%), Belgiya (59,9%), Koreya Respublikasi (43,2%), SHvetsiya (43,2%) kiradi. Dunyoning 40 yaqin mamlakatida atom reaktorlari ishlamoqda.

Dunyo atom energiyasining umumiy elektr energiya ishlab chiqarishdagi salmog'i 1970-2000 yillarda 2% dan 19 % ga etdi. Dunyo AES lari quvvatining katta qismi AQSH (40%), Frantsiya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiyada to'plangan.

6.4.Dunyo metallurgiya sanoati

Qora metallurgiya. Temir rudaning dunyodagi umumiy geologik zahiralari 394 mlrd. t. Dunyoda temir ruda qazib olish 1950 - 2000 yillar o'rtasida 250 - 10000 mln. t. ga o'sdi. Uni qazib oladigan asosiy mamlakatlarga Rossiya, Xitoy, Braziliya, Avstraliya, AQSH, Hindiston, Kanada kiradi.

Xalqaro savdoga har yili 460 mln. t. temir ruda chiqariladi. Asosiy importyorlar - Evropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya Respublikasi hisoblanadi.

Dunyoda po'lat eritish 1950– 2000 o'rtasida 200dan 980 mln. t.ga ko'paydi. Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya, AqSH, Yaponiya, Xitoy, GFR oldinda turadi.

Rangli metallurgiya sanoati

Rangli metallurgiya tarkibi FTI ta'sirida o'zgarmoqda - XX asr o'rtalarida engil rangli metallardan alyuminiy metallurgiyasi tez rivojlandi.

1970 yillardan boshlab ikkilamchi xom ashyoning ahamiyati oshib bormoqda. Jumladan qalay, alyuminiy, rux va misning 20-25%, qo'rg'oshinning 50% lomni qayta eritish hisobiga ishlab chiqarilmoqda. Rangli metallurgiya atrof-muhitni kuchli darajada ifloslantiradi. SHu sababdan va g'arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida tabiat muhofazasi siyosati kuchayishiga bog'liq holda so'nggi o'n yilliklarda rangli metallurgiya korxonalarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish tepdentsiyasi kuchayib bormoqda. Rangli metall xomashyo kontsentratsiyasi bo'yicha Kanada, Avstraliya, JAR asosiy o'rinni egallaydi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar rangli metallurgiyasi import xom ashyoga asoslanib rivojlanadi.

6.5.Dunyo mashinasozlik sanoati

Mashinasozlik dunyo ishlab beruvchi sanoatining asosiy tarmog'i.

Rivojlangan mamlakatlarda mashinasozlikning ishlab boruvchi salmog'i 30-35%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 20% ni tashkil etadi.

7-jadval

Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlar

Mamlakatlar	Mahsulot qiymati, mlrd.. dollar	Mashinasozlikning ishlab beruvchi sanoat mahsulotari qiymatidagi salmog'i, %	Mashinasozlikning mamlakat eksportidagi salmog'i, %
AQSH	289,1	36	48
Yaponiya	146,2	37	64
GFR	76,6	38	48
Frantsiya	40,9	33	35
Buyuk Britaniya	32,5	32	36
Italiya	30,1	32	34
Xitoy	24,7	26	16

Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda AQSH, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya oldinda turadi.

Avtomobilsozlik. Dunyoda 1940 yillarda 4 mln., 2000 yilga kelib 50 mln. dan ortiq avtomobil ishlab chiqarildi. AQSH va Yaponiya har yili 10 mln.dan ko'proq avtomobil ishlab chiqaradi. Bu miqdorning 70%dan ko'prog'i engil avtomobillar.

Mashinacozlikka raqamli dastur boshqaruvchi, EHM va maxsus tizimi komponentlariga asoslangan o'zgaruvchan avtomatlashgan ishlab chiqarish va avtomatlashgan loyihalash tizimlari joriy qilinmoqda.

6.6.Dunyo kimyo sanoati

Kimyo sanotiining tarkibiga tog'-kimyo, asosiy kimyo, organik sintez kimyosi, polimerlar, polimer materiallarini qayta ishlash tarmoqlari kiradi. Dunyoda kimyo sanoati 4 mintaqada rivojlangan: g'arbiy Evropa,SHimoliy Amerika, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, MDH.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi «birinchi o'nlik» mamlakatlar tarkibiga iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kiradi, lekin u Xitoy va Hindistonda ham yangi rivojlanmoqda.

Dunyoda plastmassa ishlab chiqarish 1950-2000 yilda 1,5 mln. t.dan 110 mln. tonnagacha ko'paydi. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga plastmassa ishlab chiqarishda Belgiya, Niderlandiya, GFR, AQSH oldinda turadi. Dunyoda yiliga o'rtacha 22-23 mln.t. kimyoviy tola ishlab chiqarilmoqda.

6.7.Dunyoning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati

Dunyoning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati geografiyasi ko'p jihatdan o'rmon resurslarining joylashishi bilan belgilanadi. Er sharida ikkita o'rmon mintaqasi shakllangan: 1) Shimoliy o'rmon mintaqasi Evrosiyo va SHimoliy Amerikaning ignabargli o'rmon (tayga) rayonlarini egallaydi. Bu erda ignabargli daraxtlardan yog'och tayyorlanadi, uni qayta ishlab yog'och plitalar, tsellyuloza, qog'oz, karton olinadi. Rossiya, Kanada, SHvetsiya, Finlyandiyada o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati xalqaro ixtisoslashuvining muhim tarmog'i hisoblanadi; 2) Janubiy o'rmon mintaqasi, unda keng bargli o'rmon daraxtlaridan yog'och tayyorlanadi. Bu erda o'rmon sanoatining uchta asosiy rayoni tarkib topgan: Braziliya, Tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo. Bu rayonlarda tayyorlanadigan yog'och Yaponiya, g'arbiy Evropaga jo'natiladi. Bulardan tashqari Janubiy mintaqada mamlakatlari yog'och bo'lmagan xom ashyodan ko'p foydalanadilar, masalan, qog'oz tayyorlashda bambuk (Hindiston), bogassa (Peru), sizel (Braziliya, Tanzaniya), jut (Bangladesh) ishlatiladi.

YOg'och tayyolashda «birinchi o'nlik»ka kiradigan mamlakatlarning ko'pi shimoliy mintaqada joylashgan. «Ikkinchi o'nlikda» shimoliy mintaqadan Frantsiya, Finlyandiya, GFR, Polsha, Ruminiya, Ispaniya, Yaponiya, janubiy mintaqadan Tailand, Fillippin, Koreya bor.

YOg'ochni kimyoviy qayta ishlashda AQSH (30%), Kanada (25%), Yaponiya, SHvetsiya, Finlyandiya etakchi o'rinni egallaydi.

qog'oz ishlab chiqarish 1970 2000 yillar o'rtasida 80 mln. t dan 195 mln. t. ga etdi. Uni ishlab chiqaruvchi etakchi mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Kanada, so'ngra Xitoy, GFR, Finlyandiya, Rossiyadir. YOg'och mahsulotini eksport qiluvchi davlatlar - Kanada, AQSH, Rossiya, Skandinaviya mamlakatlari, yog'och mahsulotini import qiluvchi davlatlar - Xorijiy Evropa, Yaponiya, AQSH. Tropik yog'och materiallarini Malayziya, Braziliya, Indoneniya, Filippin, Papua-YAngi Gvineya sotishga chiqarmoqda.

6.8.Dunyo engil sanoati

Engil sanoat 30 ga yaqin tarmoqlarni qamrab olib, xilma-xil xomashyoda ishlaydi.

To'qimachilik sanoati. Dunyo to'qimachilik sanoatining beshta asosiy regioni shakllangan: Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH, Xorijiy Evropa, AQSH. Ip-gazlama ishlab chiqarish birinchi o'rinni egallaydi. 2000 yillarning boshida 85 mlrd. m² ga etgan. Ikkinchi o'rinni kimyoviy tola gazlamalari egallaydi. Uchinchi o'rinni - shoyi gazlama, to'rtinchi o'rinni - jun gazlama ishlab chiqarishi egallaydi.

Dunyo to'qimachilik mahsuloti (gazlama, kiyim) bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i katta. Ip-gazlama eksportida Gonkong, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Misr, Tayvan, Koreya Respublikasi, kimyoviy tola gazlamalari eksportida esa Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong mamlakatlari oldingi o'rinni egallaydi.

Dunyo tikuvchilik sanoatida o'zining «modalarni rasm qiluvchi» markazlari Nyu-York, Parij, Rim shakllandi. Tayyor kiyimlarning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlardan g'arb mamlakatlariga eksport qilinadi.

Qisqacha xulosalar

Sanoat jahon moddiy ishlab chiqarishining asosiy tarmog'i. Sanoatga xos bo'lgan xususiyat mashinasozlikning peshqadamligidir. Mashinasozlik, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda yuksak darajada rivojlangan.

Jahon yoqilg'i-energiya sanoati yoqilg'ini qazib olish, energiya ishlab chiqarish va uni uzatishdan, yoqilg'i sanoati ko'mir, neft, gaz qazib olishdan, energetika sanoati esa, IES, GES va AESlarda elektroenergiya ishlab chiqarish va uni uzatishdan iborat. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha Saudiya Arabistoni birinchi o'rinda turadi. Gaz qazib olish va uni eksport qiluvchi mamlakatlariga Rossiya, AQSH, Kanada, Turkmaniston, O'zbekiston, Jazoir kiradi.

Ko'mirni Avstraliya, JAR, Rossiya va boshqa davlatlar sotadi, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar sotib oladi. Dunyoda elektroenergiya IESlarda (63%), GESlarda (20%) va AESlarda (17%) ishlab chiqariladi.

Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Yaponiya, Rossiya oldingi o'rinda turadi.

Mashinasozlik, kimyo sanoati asosan rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Neft qazib oluvchi davlatlarda neft-kimyo, o'rmonga boy davlatlarda o'rmon-kimyo sanoati taraqqiy etgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Dunyo mamlakatlari sanoati rivojlanishi bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Dunyo sanoatining etakchi tarmoqlardi sanab bering.
3. Avia-raketa va samolyotsozlik, harbiy sanoat qaysi davlatlarda rivojlangan?
4. qaysi davlatlarda avtomobilsozlik yaxshi rivojlangan?
5. Dunyoda engil sanoat yaxshi rivojlangan mamlakatlarni ayting.
6. Sanoati eng kam taraqqiy etgan mamlakatlarni sanab bering va uning sabablarini ko'rsating.
7. Qaysi davlatlarda tog'-kon sanoati rivojlangan.
8. Yoqilg'i qazib oluvchi mamlakatlarni sanang.
9. Aniq mashinasozlik rivojlanan mamlakatlar ta'rifini bering.
10. Aqliy mehnat talab etuvchi sanoat tormoqlari qaysi mamlakatlarda rivojlangan?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асиров N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003

VII mavzu. JAHON QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI

7.1. Jahon qishloq xo'jaligining umumiy ta'rifi

Qishloq xo'jaligi jahon aholisiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini engil sanoatga esa xom ashyo etkazib beradi. Dunyo iqtisodiy faol aholisining 60%dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. AQSHda 5%, Buyuk Britaniyada esa 2%dan kamroq aholi qishloq xo'jaligida ishlaydi.

Qishloq xo'jaligining joylashishiga tabiiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi. qutbiy mintaqalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Tabiat inijliklari dehqonchilikka katta zarar etkazmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda agrar munosabatlarning murakkabligi, mablag'larning etishmasligi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishini sustlashtirmoqda.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi fan-texnika yutuqlariga tayanib mo'l hosil olmoqda.

11-jadval

Dunyo er fondi tarkibi (% larda)

Mintaqalar	qishloq xo'jaligi erlari		Er fondining tarkibi		Kam hosildor va hosil bermaydigan erlar
	ishlov berilgani	Tabiiy o'tloq va yaylovlar	o'rm onli erlar	aholi punkt erlari	
MDH	10	17	36	1	36
Evropa	29	18	32	5	16
Xorijiy Osiyo	17	20	20	2	39
Afrika	11	26	23	1	39
Shim. Amerika	12	16	31	3	38
Jan. Amerika	7	20	52	1	20
Avstraliya va Okeaniya	5	54	18	1	22
Butun dunyo	11	23	30	2	34

Dunyo er fondining umumiy maydoni–134 mln.km² (13,4 mlr.ga) bo'lib uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, SHimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan. Ishlov berilgan erlar maydoni bo'yicha AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Kanada, qozog'iston, Ukraina oldida turadi.

Kam hosildor erlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosan MDH, Xorijiy Osiyo, Afrika, SHimoliy Amerikaga to'g'ri keladi.

Dunyo er fondining asosiy muammolari - tuproq eroziyasi, uning ifloslanishi, sho'rlanishi va botqoqlanish hisoblanadi. Insoniyat hozirgacha 2 mlrd.

gektar hosildor erlarni yo'qotib bo'lgan. Eroziya natijasida har yili 7 mln., sho'rlanish va botqoqlanish natijasida 1,5 mln gektar er ishdan chiqmoqda.

Ko'pgina mamlakatlarda er fondini saqlab qolishga va uning tizimini yaxshilashga harakat qilinmoqda. Bu masala mintaqaviy va dunyo miqyosida BMTning maxsus tashkilotlari YUNESKO, FAO tomonidan nazoratga olingan.

7.2. O'simlikshunoslik

O'simlikshunoslik–qishloq xo'jaligining etakchi tarmog'i.

Donli ekinlar. Dunyo bo'yicha 720 mln gektar erga donli ekinlar ekilmoqda. Jamii ekin maydonining asosiy qismini 3 ta ekin–bug'doy (230 mln.ga), sholi (140 mln.ga), makkajo'xori (180 mln.ga) egallaydi.

Bug'doy keng tarqalgan ekin U SHimoliy Amerika, Xorijiy Evropa, Osiyoda eng ko'p ekiladi. Janubiy mintaq – Argentina, Janubiy Afrika va Avstraliya. Jahondagi bug'doy ekin maydonlaridan yil 12 oy davomida hosil yig'iladi.

SHolining ko'proq musson iqlimli mintaqalar - Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyoda ko'p tarqalgan. Hindiston, Xitoy, Indoneziyada ikkinchi hosil quruq mavsumda sun'iy sug'orish usuli qo'llanib olinadi.

Makkajo'xori ham deyarli bug'doy ekiladigan hududlarda etishtiriladi.

Donli ekinlar yalpi hosil bo'yicha dunyo mamlakatlarini quyidagi guruhga bo'lish mumkin.

13-jadval

Don etishtiruvchi asosiy mamlakatlar

Mamlakatlar	Mln. tonna	Aholi jon boshiga don etishtirish, kg
Jahon bo'yicha	1987	367
Xitoy	361	375
AQSH	323	1283
Rossiya	117	790
Frantsiya	60	1050
Kanada	57	2125

Donli ekinlar tizimida bug'doy, sholi, makkajo'xori mahsulotlari aholining oziq-ovqat ratsionining 95%ni tashkil etadi.

Dunyo donli ekinlarining 55 foizi aholi uchun oziq-ovqat, 45 foizi esa chorva ozuqasi sifatida ishlatiladi. Jahon bozoriga har yili 200 mln.t. don, jumladan, 90-100 mln.t. bug'doy va 60-70 mln.t. makkajo'xori, 10-15 mln.t. sholi chiqariladi.

Don import qiluvchi mamlakatlarning yarmiga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlardir. Ular oziq-ovqat uchun donli mahsulotlarni asosan chetdan oladilar.

Boshqa turdagi oziqa ekinlariga moyli, ildiz-mevalilar, qandli, xushbo'y sabzovot va bog'dorchilik o'simliklari kiradi.

Dunyo bo'yicha moyli urug'lardan soya–100 mln.t., paxta chigiti–35 mln.t.,

raps–25mln.t., kungaboqar–20 mln.t., er yong'oq–20 mln.t. etishtirildi.

Kartoshka–oziq-ovqat, ozuqa va texnik jihatdan qayta ishlanib turli maqsadlarda foydalaniladi. U 18 mln.ga erga ekilib 280 mln.t.dan ortiq hosil olinmoqda. Uni ko'p etishtiruvchi mamlakatlarga Polsha, Rossiya, Xitoy, GFR, AQSH kiradi.

SHakarqamish – tropik, subtropik hamda musson iqlimli mamlakatlarda iqlimlashtirilgan. Yiliga o'rtacha 1 mlrd.t. hosili olinadi.

Qand lavlagining yalpi hosili 300 mln.t. atrofida. Undan shakar ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 110 mln.t.ga etdi.

Quvvat beruvchi ekinlarga choy, kofe hamda kakao kiradi. CHoyning vatani – Xitoy. XIX asrda choy plantatsiyalari Hindistonda, SHri-Lanka, Keniyada paydo bo'ldi.

Kofening vatani Efiopiya tog'liklari bo'lib uning nomlanishi ham Efiopiya provintsiyasi hisoblangan **Kaffa** nomidan olingan. XVIII asrda kofe doni Braziliyaga keltirildi.

Ayni paytda choyni eng ko'p Hindiston, Shri Lanka, kofeni Braziliya, kakaoni Kot-d Ivuar eksport qiladi. Ularning asosiy iste'molchilari AQSH, Evropa mamlakatlari va Yaponiya hisoblanadi.

Texnika ekinlari

Texnika ekinlariga paxta, tabiiy kauchuk hamda tamaki kiradi. Dunyo paxta maydonlari 35 mln.ga ni tashkil etadi. Ular asosan shimoliy yarim sharning 20° va 40° shimoliy kengliklari oralig'ida mujassamlashgan. Paxta tolasi ishlab chiqarish jahonda asta-sekin o'sib borib, 18mln. t.ga etdi. O'z navbatda xalqaro paxtachilikni rayonlashtirish quyidagi 9 yirik rayonni ajratish imkoniyatini berdi:

1) Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo bo'lib, bunda Xitoy (4,5mln.t.) Hindiston hamda Pokiston (1,5mln.t.dan), Tailand asosiy ishlab chiqaruvchilar. 2) MDH doirasida Markaziy Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlari. Bu erda yirik ishlab chiqaruvchi–O'zbekiston (1,5mln.t.) hisoblanadi. 3) Janubi-g'arbiy Osiyo, bunda Turkiya (0,7mln.t.), Eron, Iroq, Suriya, Afg'oniston. 4) SHimoliy va Sharqiy Afrika, Misr, Suriya, Efiopiya, Uganda, Tanzaniya. 5) g'arbiy va Markaziy Afrika–Nigeriya, Kamerun, Zair. 6) Janubiy Afrika, Mazambik, Madagaskar. 7) SHimoliy va Markaziy Amerika, avvalo AQSH (3,4mln.t.) hamda Meksika. 8) Janubiy Amerika–Braziliya (0,7mln.t.), Argentina, Venesuela, Peru. 9) Avstraliya.

Jahon savdo bozoriga har yili 5-6 mln.t., asosan o'rta tolali paxta tolasi chiqariladi. Asosiy eksportchilar–AQSH, O'zbekiston, Xitoy, Pokiston, Hindiston. Import geografiyasini asosan ikki region belgilab beradi:

1. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Tayvan, Korea respublikasi, Gongkong, Tailand, Indoneziya).
2. Evropa (Italiya, FRG, Frantsiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va boshqalar).

Tabiiy kauchuk etishtirish 2000 yilda 5,6 mln.t.ga etgan. Uning 90 foizi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Malayziya (1,3mln), Indoneziya va Tailand (1,2 mln.t.dan), shuningdek, Hindiston, SHri-Lanka, Fillipin hissasiga to'g'ri

keladi.

Keyingi davrlarda narkotik moddalar ishlab chiqarish sezilarli darajada ortdi. Ularni ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tarkibida “oltin yarim oy” (Pokiston, Afg'oniston, Eron) hamda “oltin uchburchak” (Tailand, Laos, Myanma) mamlakatlari, shuningdek, Lotin Amerikasining ayrim davlatlari, asosan Kolumbiya alohida o'rin tutadi.

Jahon chorvachiligi географияси

Qoramolchilik sut yo'nalishi aholi zich joylashgan Evropa, Shimoliy Amerika rayonlari uchun xosdir. Go'sht-sut yo'nalishidagi qoramolchilik intensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mo'tadil mintaqa rayonlarida, shuningdek, qo'rg'oqchil va mehnat resurslari bilan yomon ta'minlangan rayonlarda tarqalgan. Go'sht chorvachiligi ekstensiv (Argentina, Avstraliya) va intensiv (AQSH) rivojlangan.

CHO'chqachilik aholi zich joylashgan kartoshka, lavlagi etishtiriladigan rayonlarda keng rivojlanadi.

Qo'ychilik keng yaylov maydonlariga ega bo'lgan mamlakat va rayonlarda ustunlik qiladi. Ayni paytda mayin junli qo'ychilik quruq iqlimli rayonlarda ko'proq tarqalgan bo'lib, dasht hamda dala cho'l yaylovlari sharoitida olib boriladi. Sernam va yumshoq iqlimli hududlarda yarim mayin junli, go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik rivojlangan.

Aholi jon boshiga chorvachilik mahsulotlari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuqori. Go'sht ishlab chiqarish tizimida mol va buzoq go'shti etishtirish salmog'i 32%, cho'chqa go'shti etishtirish—39, parranda go'shti—20% to'g'ri keladi.

Halqaro chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilishda etakchi o'rinni iqtisodiy rivojlangan davlatlar egallab turibdi. Tirik mollar savdosida rivojlanayotgan davlatlar yuqori o'rinni egallaydi.

19-jadval

CHorvachilik mahsulotlari va tirik mol eksport qiluvchi asosiy davlatlar

CHorvachilik mahsulotlari va tirik mol	Eksport qiluvchi etakchi davlatlar
Mol va buzoq	Avstraliya, GFR, Frantsiya, YAngi Zelandiya, Irlandiya, Niderlandiya, AQSH, Vengriya
CHO'chqa, qo'y va qo'zi, parranda go'shti, jun	Niderlandiya, Belgiya, Daniya, Kanada, Vengriya, YAngi Zelandiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSH, Braziliya, Avstraliya, Argentina, Urugvay, YUAR
Yirik shoxli qoramol, cho'chqalar, qo'y va echkilar	Braziliya, Argentina, Meksika, Efiopiya, Xitoy, Niderlandiya, Kanada, Avstraliya, Turkiya, Somali, Efiopiya

7.4.Dunyoda baliq ovlash va baliqchilik

Yillik o'rtacha ovlanadigan baliq 100 mln t ga etadi. Dunyoda aholi jon boshiga 17—18 kg baliq to'g'ri keladi, Yaponiyada - 60—70 kg, Rossiya va AQSH da 17—18 kg, Nepalda 0,2 kg.

Dengizdan ovlangan mahsulotning 87—88 foizi baliq; 7—8 foizi mollyuska, 4—5 foizi raksimnlar. 1950 yilda Atlantika okeani hissasiga 54%, Tinch okeaniga 40%, Xind okeaniga 6% ovlangan baliq - dengiz mahsulotlari to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkichlar 27:67:6 nisbatda bo'lgan. Baliq ovlashda Tinch okeani birinchi o'ringa turadi.

So'nggi yillarda ovlashda «birinchi o'nlikka» kiruvchi mamlakatlar tarkibida o'zgarishlar yuz berdi. O'tgan asrning 50-yillarda «o'nlikka» Yaponiya, AQSH, SSSR, Xitoy, Norvegiya, Buyuk Britaniya., Hindiston, Kanada, GFR kirgan bo'lsa, hozirgi paytda uning tarkibiga «yangi» a'zolar — CHili, Peru, Koreya Respublikasi, Tailand qo'shildi. Filippin, Meksika, Braziliya, Xitoyda ham baliq ovlash tez rivojlanmoqda. An'anaviy baliq ovlovchi mamlakatlar — Norvegiya, Daniya, Islandiya hozirga qadar Evropaning ko'p mamlakatlariga baliq va baliq mahsulotlari etkazib beruvchi asosiy mamlakat bo'lib qolayotir. Dunyo bo'yicha yiliga 100 mln.t. ortiq baliq ovlanadi.

20-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida baliq ovlash

Mln.t.

Yaponiya	11,9	Rossiya	4,2
Xitoy	11,3	Hindiston	3,0
AQSH	6,0	Koreya Respublikasi	2,5
CHili	5,5	Norvegiya	2,5
Peru	5,5	Tailand	2,5

Dengiz muhitida tirik organizmlarni ko'paytirish **marikultura** deb ataladi. O'tgan asrning 90-yillari boshida dunyoda akvakultura mahsuloti 15 mln. t. ga etdi. Uning 85%ini Osiyo mamlakatlari — Xitoy (5,5 mln t), Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Filippin, Indoneziya, Vetnam bergan. Dengiz «fermalari» Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya, AKSHda bor. Dunyo marikultura mahsuloti 9 mln. tonnaga etib qoldi.

Kit ovlash SHimoliy Atlantikada boshlangan. So'ngra Antarktida atrofi ko'p mamlakatlari, Tinch okeanning shimoliy qismida, Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya kirg'og'larida kit ovlana boshlangan. Oqibatda XX asrning 60-yilida dunyo kit ovlash kasb-kori doimiy ravishda rivojlanib, o'sib bordi. Masalan, kit ovlash 1920 yilda 11 ming bosh, 1962 yilda rekord daraja — 66 ming boshga etgan. Lekin keyinchalik kit ovlash sur'atlari tez kamaydi, 1975 yilga kelib 27 ming boshni tashkil etdi. 1903 yildan 70-yillargacha faqat Dunyo okeanining janubiy qismida 1,5 mln bosh kit ovlangan. Oqibatda ba'zi kit turlarining 90 foizi, eng yirik kitlar esa deyarli butunlay qirib yuborildi. SHy sababdan 1946 yilda kit ovlashni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot — Xalqaro Kit Ovlash Komissiyasi (XKOK) tuzildi. 1982 yilda XKOK qaroriga asosan 10 yillik maratoriy e'lon

qilindi, kit ovlashga litsenziya berish qat'iy tartibga solindi. 80-yillarda kitlar faqat ilmiy maqsadlar uchun ovlandi (taxminan yiliga 1,5 ming bosh). Hozirgi paytda kitlar soni ko'paymoqda. 1993 yilda XKOK maratoriyni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qildi. 1994 yilda Dunyo okeanining janubiy qismida uzoq muddatli kitlar qo'riqxonasi (40° j.k. dan janubda) tashkil etildi.

Qisqacha xulosalar

Er shari iqtisodiy faol aholisining 60%dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Hozirgi paytda Osiyo va Afrikaning ko'pgina davlatlarida aholining 70%dan ortig'i qishloq xo'jaligida mashg'ul. Rivojlangan davlatlarda esa qishloq xo'jaligida band aholining salmog'i kamayib bormoqda. Masalan, AQSHda qishloq xo'jaligida 5% aholi band.

qishloq xo'jaligini rivojlanish va joylanishi tabiiy omillarga bog'liq. Dunyo er fondining asosiy qismi Afrika, Osiyo va Janubiy Amerikada joylashgan. Jahon qishloq xo'jaligida don va go'sht etishtirish asosiy o'rinni egallaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon qishloq xo'jaligining rivojlanishi xususiyatining mintaqalar bo'yicha tafautlarini tushuntirib bering.
2. Uning joylashishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Jahon er fondi qanday qismlardan iborat?
4. Jahon qishloq xo'jaligi muhim tarmoqlarining joylashish xususiyatlarini ta'riflang?
5. Donli ekinlar joylashishini tushuntirib bering.
6. Texnika ekinlarining joylashish xususiyatlarini nimalardan aborat?
7. Dunyoning ayrim mintaqalarida chorvachilik tarmoqlarining joylashishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
8. Yirik shoxla mollar rivojlangan asosiy mamlakatlar.
9. Qo'ychioqlik rivojlangan asosiy mamlakatlar
10. CHo'chqachilik rivojlangan asosiy mamlakatlar
11. Parrandachilik rivojlangan asosiy mamlakatlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy география, Т.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», Т.: 2004.
2. Асилов N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003

VIII mavzu. DUNYO TRANSPORTI ГЕОГРАФИЯСИ

8.1. Quruqlik transporti

Jahon transporti quruqlik, suv va havo transportiga bo'linadi. quruqlik transportiga temir, avtomobil quvvur transporti kiradi.

Temir yo'l transporti. Birinchi paravozli temir yo'l transporti Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. Rossiyada 1837-38 yillarda (Peterburg-Pavlosk)

ishga tushurildi. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1890 yildan boshlanib, 1899 yili Samarqand-Andijon, 1906 yilda Orenburg-Toshkent temir yo'li qurilgan.

ITT temir yo'l transportiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Frantsiya, Yaponiyada poezdlar tezligi bo'yicha rekordlar o'rnatilgan. Parij-Bardo temir yo'lida qatnaydigan eng tezyurar poezdning tezligi 350 **kmg'soat**. Jahonda temir yo'llarning umumiy uzunligi 1,3 mln. km, bo'lib uning 50%i oltita davlatga (AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya) to'g'ri keladi. AQSH temir yo'llarning umumiy uzunligi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Temir yo'llarning zichligi bo'yicha g'arbiy Evropa davlatlari va AQSH etakchi. Rivojlangan davlatlar temir yo'llarining deyarli hammasi elektrlashtirilgan va ular ikki yo'lli hisoblanadi.

Avtomobil transporti yuk oborotining deyarli yarmi sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk oboroti bo'yicha AQSH birinchi, Rossiya ikkinchi o'rinda turadi.

Dengiz transporti — dunyo transport tizimining juda muhim tarkibiy qismi. Uning hissasiga dunyo yuk oborotining 62 foizi to'g'ri keladi va u xalqaro savdoning 80 foiziga xizmat ko'rsatadi. Dengiz transportida «konteyner inqilobi» asosiy yuklar — tayyor buyumlar, yarimfabrikat, oziq-ovqatlarni tashishning tez ko'payishiga olib keldi. Dunyo dengiz transportida yuk tashish hajmi 1960 yilda — 1110 mln. t, 2000 yillarga kelib 4,1 mlrd. t. atrofida edi. Dengiz transporti yuk oborotida bir necha o'n yil mobaynida Yaponiya dunyoda birinchi o'rinni egallab kelmoqda, undan keyingi o'rinlarni g'arbiy Evropa, Xitoy, Rossiya egallaydi.

Dunyoning muntazam kemachiligida besh asr mobaynida birinchi o'rinni) Atlantika okeani egallab kelmoqda.

Atlantika okeanida dengiz kemachiligining bir nechta yunalishlari shakllangan.

Tinch okeani dengiz yuklarini tashish bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning qirg'oqlariga 2,5 mlrd. dan ortiq aholi yashaydigan 50 mamlakat chiqadi. Osiyo-Tinch okeani regionini mamlakatlarining, birinchi navbatda, YAIM larning tez rivojlanayotganligi, ularning jahon savdosi bilan integratsiyasi muhim yuk oqimlarining Atlantikadan sekin-asta Tinch okeaniga o'tishiga olib kelmoqda.

Hind okeani dengiz yuklarini tashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Uning qirg'oqlariga aholisi 1 mlrd. dan ko'p bo'lgan 30 mamlakat chiqadi. Bu okeanda qudratli yuk oqimlari Fors qo'ltig'ida shakllanadi.

Dengiz yuklari **dunyo dengiz floti** orqali tashiladi. Uning tarkibida 80 ming kema, shu jumladan, Yaponiyada 10 ming, MDH da — 7,4 ming, AQSH da — 6,4 ming kema bor.

21-jadval

Asosiy baypoqlap bo'yicha dunyo dengiz floti tonnajinipg taqsimlanishi

Mamlakat bayrog'i	YAlpi sig'imi, mln.br.reg.t.	Mamlakat bayrog'i	YAlpi sig'imi, mln.br.reg.t.
Liberiva	54.7	Frantsiya	3,8
Panama	39.3		

Yaponiya	27.1			
Norvegija	23.4		Islandiya	3.8
AOSH	21.3		Niderlandiya	3.8
Gretsiya	20.5		Turkiya	3.7
Kipr	18.3		Polsha	3.4
Rossiya	14.9		SHvetsiya	2.8
Xitoy	13.9		Kanada	2.7
Bogam	13.6		Avstraliya	2.5
Filippin	8.5		Indoneziya	2.2

E s l a t. m a : I) Yalpi sig'im — kemalarning yuk ko'tarish sig'imi birligi. Yalpi (to'la) sig'imi brutto-registr tonnada o'lchanadi. 1 br. -per. t. q kub fug yoki $2,83 \text{ m}^3$.

Dunyoda dengiz flotiga ega bo'lgan hamma mamlakatlar soni 49 ta. Ularning umumiy dengiz floti sig'imi 1 mln. br. -per. t. dan ortiqroqdir. rivojlangan mamlakatlarning dengiz flot-tonnaji qisqarmoqda, ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar floti tez rivojlanmoqda.

Dunyoda Liberiya va Panama eng katta flotga ega, ular hissasiga dunyo tonnajining qariyb 25% to'g'ri keladi.

Dunyoda 3 mingga yaqin port bor, yillik yuk oboroti 50 mln. t. dan ortiq gigant-portlar 30 dan ortiq.

22-jadval

Dunyoning yuk oboroti 50 mln. t. dan ortiq bo'lgan universal portlari

Port	Mamlakat	YUK Oboroti	Port	Mamlakat	YUK oboroti
Rotterdam	Niderlandiya	290	Tokio	Yaponiya	80
Singapur	Singapur	190	Kura	Yaponiya	80
YAngi Orlean	AQSH	175	Gonkong	Sengan(Xitoy)	80
Kobe	Yaponiya	170	Baton Ruj	AQSH	80
Nyu-York	AQSH	155	Gamburg	GFR	65
Tiba	Yaponiya	135	London	Buyuk Britaniya	60
Nagoya	Yaponiya	130	Korpus-Kristi	AQSH	60
Xyuston	AQSH	125	Genuya	Italiya	55
Iokagama	Yaponiya	125	Filadelfiya	AQSH	55
SHanxay	Xitoy	115	Vankuver	Kanada	55
Marsel	Frantsiya	95	Gaosyun	Tayvan	55
Osaka	Yaponiya	95	Tampa	AQSH	50
Kavasaki	Yaponiya	90			
Gavr	Frantsiya	85			
Antverpen	Belgiya	85			

«Birinchi o'nlik» portlarning 6 tasi Osiyoda, 3 tasi Evropada 1 tasi Amerikada joylashgan. Bu esa Osiyo Tinch okeani regionining ahamiyati oshib borayotganligini ko'rsatadi. SHunday portlarining 8 tasi Yaponiyada, 7 tasi AQSH da, 2 tasi Frantsiyada, 1 tadan boshqa mamlakatlarda joylashgan.

Dunyo dengiz transporti reografiasiga xalqaro **dengiz kanallari va dengiz bo'g'izlari** katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning eng yirik kemalari qatnaydigan dengiz kanallari Suvaysh, Panama, Kil (GFR), Buyuk (Xitoy), qirg'oq (AQSH), Okdengiz — Baltiki va Volga Don (Rossiya).

Hozirgi zamon dengiz kemachiligining miqyosi juda katta. Masalan, O'rta er dengizida bir vaqtning o'zida 2,5 ming savdo kemalari (kobataj kemalari bu hisobga kirmaydi), Boltiq dengizida — 800, Janubiy-Xitoy dengizida — 700 dan ko'proq kemalar yuradi.

Okean trassalarining eng «quyuq» tugunlari bo'g'izlar ham kiradi. Masalan, La-Mansh orqali so'tkasiga 500, Gibraltar bo'g'izidan 140 kema o'tadi.

Daryo transporti. Amazonka, Panama, Missisipi, Ob', Enisey, YAntszi, Kongo daryolari dunyoning eng qudratli temir yo'l magistrallariga nisbatan ham ancha katta o'tkazish qobiliyatiga ega. Dunyoda suv transportida yuk oboroti bo'yicha AQSH, Rossiya, GFR, Niderlandiya, Belgiya, Xitoy ajralib turadi.

Dunyo suv yo'llarining umumiy uzunligi 550 ming km bo'lib, unda asosiy o'rinni MDH (123 ming km), Xitoy (110), AQSH (41), Braziliya (31), keyingi o'rinlarni Venesuela, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Zoir, Frantsiya, GFR, Nigeriya, Finlyandiya egallaydi. YUk oboroti bo'yicha AqSH, Xitoy, Rossiya, Kanada, Niderlandiya, Frantsiya, Belgiya oldingi o'rinlarni egallaydi. AQSHdagi 41 ming km suv yo'lidan 31 ming km kanallar va shlyuzlangan daryo uchastkalariga to'g'ri keladi. Bu mamlakat 20 mln. t. dan ko'proq tonnajga ega bo'lgan dunyodagi eng katta daryo va ko'l flotiga ega. MDH, Xitoy, GFR, Frantsiyada ham katta kanallar va suv yo'llari barpo etilgan.

25-jadval

Dunyoning kemalar qatnaydigai eng muhim kanallari va suv yo'llari

Nomi	Mamlakatlar	Uzunligi, km	Kengligi	SHlyuzlar soni
1.- Qirg'oq kanali	AQSH	5580	40 -60	
2. Buyuk kanal	Xitooy	1782	40-350	
3. Volga-Boltik suv yo'li	Rossiya	1100	25-120	
shu jumladan, Volga-Boltiq kanali		372		
4. Reyn-Mayn-Dunay suv yo'li	GFR	677	52	18
5. Eri-kanal	AQSH	540	50	35
6. Geta-kanal	SHvetsiya	420	24-60	95
7. O'rta German kanali	GFR	325	30-40	3
8. Rena-reyn suv yo'li	Frantsiya	320	25-100	150
9. Oq dengiz- Boltiq suv yo'li		227		19
10. Moskva nomidagi kanal	Rossiya	128	86	114

11. Volga-Don kapali	Rossiya	101	60-80	13
----------------------	---------	-----	-------	----

Dunyoda xalqaro daryolar yoki xalqaro daryo havzalari (XDH) soni 2140 ta bo'lib, ular eng yirik daryolarning yarmini tashkil etadi. Masalan, Reyn, Amazonka, Zambezi havzalarida 7 mamlakat, Nil, Kongo, Niger havzalarida 9 mamlakat, Dunay havzasida esa 12 mamlakat joylashgan. Dunyoning daryo havzalari maydoni 1 mln. kv. km dan ortiq bo'lgan 13 ta eng yirik daryodan faqatgina 4 tasi — Volga, Lena, YAntsi, Makkenzi bir mamlakat hududida joylashgan, holos. Tajribalar shundan dalolat beradiki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda daryolarning xalqaro xarakteri bo'lish o'rniga, ma'lum darajada uni rag'batlantirgan. Lekin bular rivojlanagan mamlakatlarga taaluqdi emas.

Evropada Reyn, Dunay, Oder, Elba eng yirik daryo arteriyalari hisoblanadi. AQSHda asosiy daryo transporti yuklari Missisipi — Buyuk ko'llar tizimida tashiladi. Amerikaning Buyuk ko'llar tizimi va Avliyo Lavrentiy daryosining chuqur suv yo'lidan dengiz kemalari ham foydalanadi.

Ichki suv transportida kemalar quvvati va yuk ko'tarish imkoniyatini ko'paytirish, shatakka olish usullarini takomillashtirish, suvosti qanotli kemalarni keng qo'llashini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridir.

8.3.Havo transporti

Havo transporti — bu, eng tez, lekin etarli darajada qimmatga tushadigan transport turi bo'lib, xalqaro yo'lovchilar tashishida muhim rol o'ynaydi. Aviatsiya – transportning eng yosh va tez rivojlanayotgan turidir. Uning afzalligi tezlikdan tashqari, tashish sifati, trassani oson kengaytirish va o'zgartirishga imkon beradigan geografik xarakatchanligidir. Muntazam avialiniyalar tarmog'i 8 mln. km bo'lib, u er sharinnig hamma qismini qamrab olgan, yiliga 1,2 mlrd. yo'lovchini tashiydi.

Dunyoning eng yirik havo transporti AQSH bo'lib, uning hissasiga xorijda tashiladigan (MDHdan tashqari) yo'lovchilarning yarmi to'g'ri keladi. «Birinch o'nlikka» yana Rosciya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Frantsiya, GFR, Avstraliya, Niderlandiya, Ispaniya kiradi. Aviatashishning taxminan 45%i ichki va 55%i xalqaro liniyaga to'g'ri keladi. Uning tayanch nuqtalari — 5 ming aeroport bo'lib, 1 mingdan ko'prog'i xalqaro toifaga kiradi. Yiliga 15 mln. yo'lovchi tashish imkoniyatiga ega bo'lgan aeroportlar 26-jadvalda ko'rsatilgan.

26-jadval

Dunyoning eng yirik aeroportlari

Aeroport	Yillik yo'lovchi, mln. kishi	Aeroport	Yilik yo'lovchi, mln. kishi
CHikago	60	London (Gatvik)	21
Dallas	58	Parij (SHarl de Goll)	21
Los-Apjslss	45	Finiks	21

Antanta	43	Sent-Luis	20
London (Xitro)	40	Singapur	20
Tokio (Xeneda)	37	Toronto	20
San-Frantsisko	30	Tokio (Narito)	17
		Gonkong	17
Denver	28	Pittsburg	17
Frankfurt-Mayn	26	Orlando	17
Parij (Orli)	24	Las-Vegas	17
Mayami	23	Rim (Fyumichini)	16
Nyu-York (La-Gardia)	23	Amsterdam (SHipxol)	16
Gonolulu	23	Xyuston	16
Boston	23	Vashington (Neshnl)	15
Detroyt	22	Stokgolm	15
Osaka	22		

Ko'rinib turibdiki, dunyodagi eng yirik 34 aeroportning yarmiga yaqini AQSHda, 8 tasi Evropada, qolganlari Yaponiya, Kanada, Singapur, Gonkogda joylashgan. Bunda ba'zi eng yirik shaharlarda, masalan, Moskvada 5, Nyu-Yorkda 3, Parij, London, Tokioda 2 tadan aeroport bor. Demak, London har yili 60 mln, Parij —45 mln. yo'lovchi qabul qiladi. Dunyo aviatashishlarining asosiy yo'nalishlari Evropa va SHimoliy Amerika, Evropa va Janubiy Amerika, Evropa va YAqin Sharq, Evropa va Janubiy, Janubiy Sharqiy, Sharqiy Osiyo va Avstraliya o'rtasida Evropa va Afrika, AQSH va Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, AQSH va Janubiy Amerika, AQSH va Avstarliya o'rtasida amalga oshiriladi. Evropa va SHimoliy Amerika o'rtasida har yili 30 — 35 mln. yo'lovchi tashiladi.

Havo transportida eski porshenli samolyotlarni turbovintli va reaktiv samolyotlarga almashtirish fuqarolik aviliniyasida yangi davrni boshlab berdi. Bular «TU-104» (1956 y.), «Boing-707» (1957 y), «Karavella» (1959) y). SHundan buyon fuqarolik aviatsiyasining rivojlanishi ikkita asosiy yo'nalish — tezlikni oshirish va yo'lovchi (yuk) joylarini ko'paytirish yo'lidan bormoqda. Zamonaviy fuqaro samolyotlari o'rtacha kreyser tezligi soatiga 800—900 km.ga teng. 70-yillarda tovushdan tez uchadigan samolyotlarning birinchi modellari yaratildi: «TU-144», (SSSR), «Konkord» (Buyuk Britaniya va Frantsiya), «Djumbo-djet» (AQSH). Keyingi yillarda birinchi keng flyuzelyajli 300— 400 yo'lovchi va 15—20 t. yuk tashiydigan samolyotlar — «Boing-177» (AQSH), «Aerobus» (Frantsiya-GFR-Buyuk Britaniya), IL-86 (Rossiya) ishlab chiqarildi. SHuningdek, rekord yuk ko'taradigan samolyotlar — AN-124 «Ruslan» (150 t) va An-225 «Mariya» («Orzu» 250 t) Rossiya va Ukraina, 440 yo'lovchini bortga oladigan «Boing-777» (AQSH) samolyotlari ishlab chiqarilmoqda. 600—800 yo'lovchi tashiydigan yangi aerobuslarni ishlab chiqarishga Evropada («Eyrbos indastri» konsortsiumi, Frantsiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya birgalikda) va AQSHda («Boing») tayyorgarlik ko'rilmogda.

SHunday qilib, transport — iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u hududiy mehnat taqsimoti va moddiy bog'lanishning muhim omili hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Jahon transport geografiyasi quruqlik, suv va havo transportiga bo'linadi.

quruqlik transporti avtomobil va temir yo'l transportidan iborat. avtomobil transporti yuk va yo'lovchi tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtomobil transporti yuk oborotining deyarli yarmi sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk oboroti bo'yicha AQSH birinchi, Rossiya ikkinchi o'rinda turadi.

Birinchi temir yo'l transporti Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1890 yildan boshlandi. Jahonda temir yo'llarning umumiy uzunligi 1,2 mln. km atrofida, ammo uning 50%i katta davlatlarga to'g'ri keladi (AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya). Temir yo'llarning uzunligi bo'yicha AQSH dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Dengiz transporti hissasiga dunyo yuk oborotining 62%i to'g'ri keladi. Dengiz kemachiligida tramp (vaqtinchalik va muntazam yuk tashish) mavjud. Dengiz transportida portlar, bo'g'izlar va kanallar muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning eng yirik havo transporti AQSHda bo'lib, uning hissasiga xorijda tashiladigan yo'lovchilarning yarmi to'g'ri keladi (MDHdan tashqari).

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1.Transport qanday tarmoqlarga bo'linadi?
- 2.Dunyoda qaysi transport turida yuk ko'p tashiladi?
- 3.Avtomobil transporti qaysi davlatlarda juda rivojlangan.
- 4.YUk tashish bo'yicha qaysi davlatlar oldinda turadi?
- 5.Aviatsiya rivojlanan mamlakatlarni sanang.
- 6.Kemalarda yuk tashish bo'yicha qaysi mamlakatlar oldinda turadi?
- 7.Transport majmuasi qaysi mamlakatlarda rivoj topqan?
- 8.Temir yo'l transporti rivojlangan mamlakatlar ta'rifini bering.
- 9.Yaponiyada rivojlangan tez yurar transport haqida gapirib bering.
- 10Transport tarmoqlarining kelajakda rivojlanish istiqbollarini qanday tasavur qilasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асилов N.V.,Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира.М.: МАУР, 2003

IX mavzu. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARINING IQTISODIY- GEOGRAFIK TAVSIFI

9.1.Geografik joylanishi

Amerika qo'shma SHtatlari SHimoliy Amerika qit'asida joylashgan bo'lib, maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda Rossiya, Kanada va Xitoydan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Uning maydoni 9,4 mln. km² ga yaqin bo'lib, hududiy jihatdan 3 qismdan iborat:

1. Asosiy qism. Butun hududning 84%ini egallaydi. Sharqdan g'arbga 4,5 ming, shimoldan janubga salkam 3 ming km. ga cho'zilgan. SHimoldan Kanada, janubdan Meksika, Sharqdan Atlantika va g'arbdan Tinch okeani bilan o'ralgan.
2. Alyaska hamda Aleut orollari (1,5 mln. km²). Mamlakat hududining 16%ini tashkil etadi. Alyaska Kanadaning shimoli-g'arbiy qismi bilan chegaradosh.
3. Gavayi orollari (16,7 ming km²). U Tinch okeanida, qirg'oqdan 3200 km uzoqlikda joylashgan 24 oroldan iborat arxipelag bo'lib, mamlakat hududining 0,2% ini tashkil etadi.

AQSH hududi besh soat mintaqasida joylashgan bo'lib, ular g'arbdan Sharqqa Tinch okeani, Markaziy, Sharqiy va Atlantika nomlari bilan ataluvchi soat mintaqalariga ajratiladi. Samolyotning butun mamlakat hududi bo'ylab g'arb-Sharq yo'nalishida Tinch okeanidan Atlantika okeanigacha uchib o'tishi uchun 5-5,5 soat vaqt ketadi.

AQSHning geografik o'rni tarixning barcha bosqichlarida mamlakatning rivojlanishiga qulaylik yaratgan. Bu, avvalo, dengiz chegaralarida (12 ming km) ajoyib tabiiy bandargohlarning mavjudligi, ayniqsa mamlakat hududining Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashganligi bilan bog'liq. Kanada bilan quruqlik chegaralari ham tabiiy chegaralar, ya'ni daryo va ko'llar orqali o'tadi va savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga qulayliklar tug'diradi.

9.2.Davlat tuzumi

Davlat tuzumiga ko'ra, AQSH 50 shtat hamda alohida federal okrugdan iborat federativ respublikadir. Har bir shtat o'z konstitutsiyasiga, qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat organlariga, saylab qo'yiladigan gubernatoriga, shuningdek, o'z ramziy belgisiga ega. Kolumbiya federal okrugi hududida mamlakat poytaxti – Vashington shahri joylashgan bo'lib, unda 600 ming aholi yashaydi.

AQSH Konstitutsiyasi bundan 2 asr oldin qabul kilingan. O'tgan davr mobaynidan unga atigi 26 qo'shimcha kiritilgan, holos.

Federal hukumat 3 sohaga bo'linadi:

1. Prezident boshqaruvi ostidagi ijroya hokimiyati. U 3 mln.dan ortiq federal xizmatchilarga rahbarlik qiladi. Prezident xalq tomonidan 4 yilga saylanadi va ikki muddat bilan cheklanadi. Mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat garchi parlament (kongress) ixtiyorida bo'lsada, u qabul qilgan barcha qonunlarni Prezident tasdiqlaydi va vazirlarni

tainlaydi. U qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi. Davlatning rasmiy tili - ingliz tili.

2. qonun chiqaruvchi organ - Kongress ikki palatadan iborat. Ulardan birinchisi Senat (senatorlar 6 yillik vakolatga ega) bo'lib, ikkinchisi - Vakillar palatasi (kongressmenlar 2 yillik vakolatga ega).
3. Oliy sud boshchiligida adliya sohasi. Oliy sud Konstitutsiyaga xilof deb topilgan federal va shtat hokimiyatlari tomonidan chiqarilgan qonunlarni bekor qilish huquqiga ega.

AQSH Konstitutsiyasi hukumat vakolatini atayin cheklab, hech bir sohaning ustun kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, faqat Vakillar palatasi soliqlar borasida takliflar kiritish huquqiga ega. Oliy sud a'ziligiga Prezident taklif etgan nomzodlarni esa Senat tasdiqlashi shart. Prezident esa Kongress chiqargan qonunlarni ma'lum darajada ta'qiqlash huquqiga ega.

AQSHda ikki asosiy partiya - Respublika va Demokratik partiyalar bilan bir qatorda yana bir necha ikkinchi darajali partiyalar ham faoliyat yuritadi.

AQSH aholisining soniga ko'ra **(280 million kishi)** dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. U aholisining soni jihatidan GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Italiya aholisini qo'shib hisoblaganda ham ulardan oldindadir.

Mamlakatda aholi soni uzoq vaqt davomida ko'proq immigrantlar hisobiga o'sdi. 1821-1921 yillar davomida AQSHga 35 mln. immigrant kuchib keldi. O'tgan asrning 70-yillarigacha ko'chib kelganlar orasida inglizlar, shotlandiyaliklar va irlandiyaliklar ko'pchilikni tashkil etgan. SHu sababli AQSH davlat tili - ingliz tilidir. Keyinchalik Evropaning boshqa mamlakatlaridan ko'chib keluvchilar soni orta bordi. II jahon urushidan so'ng esa Lotin Amerikasi mamlakatlaridan (ayniqsa, meksikaliklar va puertorikoliklar) ko'plab ko'chib keldi. XVIII asr davomida va XIX asr boshlarida janubiy shtatlarga Afrikadan negr qullar keltirildi.

Umuman, AQSH aholisi sonining o'sishida immigratsiyaning roli doimo katta bo'lib kelgan. Bir kator qattiq cheklashlarga qaramay, hozirgi paytda ham yiliga 1 mln.dan ortiq kishi shu mamlakatga ko'chib kelmoqda.

AQSHda yuzdan ortiq etnik guruhlar yashasada, etnograf olimlar ularni uch asosiy guruhga ajratadilar: 1) AQSH amerikaliklari, ular turli millatlarga mansub, turli davrlarda ko'chib kelgan kishilarning avlodlari bo'lib, ingliz tilini o'z ona tillari deb biladilar; 2) oraliq immigrant guruhlar, bu guruh AQSHga nisbatan yaqinda ko'chib kelgan kishilardan iborat; 3) tub joy xalqlari (hindular, eskimoslar va b.). Ular mamlakat aholisining 1%dan ham kamrog'ini tashkil etadi.

Aholining O'rtacha zichligi 1 km²da - 30 kishi. Lekin hudud bo'ylab zichlik nihoyatda notekis. Aholining deyarli 70%i hududning 12% qismini egallagan shimoli-Sharqiy shtatlarida yashaydi. Agar Gavayi orollarida o'rtacha zichlik 1 km²da 46 kishini tashkil etsa, Alyaskada 1 kishiga 5 km² to'g'ri keladi.

AQSH aholisining joylashuvi avvalo shaharlar geografiyasi bilan bog'liq. Mamlakatda 9000 dan ortiq shaharlar mavjud. Aholining 77 %i shaharlarda yashaydi.

qishloq aholisi ko'pincha alohida joylashgan fermalarda yashaydi. Biroq turmush tarziga ko'ra, qishloq ahli shaharliklardan uncha farq qilmaydi. Binobarin, butun mamlakat bo'ylab bir xil shahar turmush tarzi hukmronidir.

9.3.Xo'jaligining umumiy tavsifi

Xo'jaligining umumiy tavsifi. Amerika qushma SHtatlari XIX asrning oxiridayoq sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyadan o'tib, dunyoda 1-o'rinni egalladi. Hozirgi paytda, g'arbiy dunyo mamlakatlari aviaraketa-kosmos texnikasining 3g'4 qismi, EHMning 2g'3 qismi, ko'mir qazib chiqarish hajmining va AESlar quvvatining yarmidan ortig'i, g'alla ekinlari yalpi hosilining 1g'3 qismi AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 8,8 tril. tashkil etib, uning yillik o'sishi 4.1 % dan ortiq.

27-jadval

AQSHning jahon xo'jaligida tutgan o'rni

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Sonli ko'rsatkichlar	Dunyoda to'tgan o'rni
Hududi	ming km ²	9364	4
Aholisi	mln. kishi	260	3
YAMM	Mlrd. \$	7100,7	1
YAMM jon boshiga	ming,\$	27	

Sanoati. Ishlab chiqarish AQSH xo'jaligida eng katta sektor hisoblanib, u yalpi ichki mahsulotning chorak qismi, milliy foydaning chorak qismini va ishchi kuchining birdan besh qismini egallaydi. AQSHning ishlab chiqarish sanoati dunyoda eng katta bo'lib, u ikkinchi o'rinda turgan Yaponiyadan 3 marta yirik.

AQSHning ishlab chiqarish sanoati eksporti dunyo bo'yicha shu sohadagi eksportning birdan besh qismini egallaydi.

qo'shma SHtatlari sanoati yuksak darajasi, ishlab chiqarish va hududiy kontsentratsiyasi bilan ajralib turadi. U ham ommaviy, seriyali, ham o'rta murakkab, unikal mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mamlakat sanoatida hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarning barcha tarmoqlari, tarmoqchalari va turlari mavjud. SHu bilan birga, shunday tarmoqlar ham borki, ular mamlakatning jahon xo'jaligidagi mavqeini belgilaydi. Bular jumlasiga avtomobilsozlik, aviaraketa-kosmik sanoati, elektronika, neft kimyosi sanoati kiradi. Bu tarmoqlar nafaqat mamlakat iqtisodiy qudratini belgilaydi, shu bilan birga, uning harbiy va siyosiy hayotida ham etakchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar	
Ip-gazlama	Mln.p.m.	2	2
Engil avtomashina	Mln.dona	6,6	2
Gaz	mlrd.m ³	5398	2

Ko'mir	mln.tonna	937,6	2
Uran	mln.tonna	1,29	9
Neft	mln.tonna	389,2	2
Elektr energiya	KVt soat	3348,6	1
Po'lat	mln.tonna	95,5	2
Yog'och materiali	mln. m ³	95,4	1
Sement	mln.tonna	77,1	3
O'simlik yog'i	mln.tonna	8,61	1
Margarin	mln.tonna	3,88	1
Sariyog	mln.tonna	0,6	3

AQSHda sanoat korxonalari notekis joylashgan. Sanoatning eng rivojlangan regionni Markaziy SHimol (ayniqsa Illinoys, Ogayo, Michigan) bo'lib, u umumiy ishlab chiqarishning 25%ini beradi. O'rta Atlantika regionni (Nyu-York, Pensilvaniya, Nyu-Djersi) ikkinchi o'rinni egallab, mamlakat ishlab chiqarishining 20% foizini tashkil etadi. Bir region asosan kimyo va mashinasozlikka ixtisoslashgan. Tinch okeani sohil bo'yi regionni (Kaliforniya) umumiy sanoatning 15%ini tashkil etib, 3-o'rinda turadi. Bu region transport jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari, elektrik va elektronik jihozlarga ko'proq ixtisoslashgan. Janubiy Atlantika regionni to'qimachilik, kimyo va tamaki mahsulotlariga ixtisoslashgan-umumiy ishlab chiqarishning 10%ini tashkil etib, ishlab chiqarishga 4-o'rinni egallaydi. g'arbiy-Janubiy-Markaziy va Sharqiy-Janubiy-Markaziy regionlar birgalikda bunday maxsulotlarning 15%ni etkazib beradi va bularga Texas va Tenessi (asosan) shtatlari kiradi. qolgan 15%ni g'arbiy-SHimoliy-Markaziy region, Nyu-Ingland va tog'li shtatlar chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi. qishloq xo'jaligi milliy foydaning 2%ini berib, unda ishchi kuchining 3%i band bo'lsa ham mamlakatda muhim tarmoqlardan hisoblanadi. AQSH qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilar orasida dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Buning sababi, fermer ish kuchining juda yuqori mahsuldorligidadir. AQSHdagi qishloq xo'jaligi ishchilari dunyo qishloq xo'jaligi ishchilarining 0,5%ini tashkil etsada sut, go'sht, paxta, soya, tamaki ishlab chiqarishda 1,2-o'rinlarni egallaydi.

Bug'doy	mln.tonna	63,1	2
SHoli	mln.tonna	9	3
Makkajo'xori	mln.tonna	256,6	1
Go'sht	mln.tonna	32,6	2
Sut	mln.tonna	69,7	1
Tuxum	mln.tonna	4,37	2
Ovlangan baliq	mln.tonna	6,0	4

Agrobiznes sharoitida bosqichma-bosqich ixtisoslashuv yuksak rivojlangan. Bunday ixtisoslashuvga binoan bir butun ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarga

bo'lib amalga oshiriladi. Masalan, pomidor kuchatlarini janubi-Sharqiy shtatlar fermerlari etishtiradilar. So'ngra bu ko'chatlar Kaliforniyaga keltirilib, ulardan serhosil mahsulot olinadi. Texas shtatida esa bu pomidordan sharbat tayyorlanadi. Fermerlarning bunday ixtisoslashuvi tabiiy sharoitdan eng samarali foydalanishga, mahsulot sifatini oshirishga va uning tannarxini arzonlashuviga imkon yaratadi. Tekislikdagi shtatlar bug'doy; O'rta-g'arbdagilar don va soya; Kanzas, Texas, Nebraska va Missuri sorga; Minnesota, Dakota, Ayova va Viskonsin suli ekishga ixtisoslashgan. Texas, Kaliforniya, Missisipi va Arizona paxtaga; Djordjiya, Texas, Alabama va SHimoliy Karolina er yong'oqqa; SHimoliy Karolina va Kentukki tamakiga; Kaliforniya, Minnesota, SHimoliy Dakota va Aydaxo qand lavlagiga; Arkanzas, Texas, Kaliforniya va Luiziana sholiga ko'proq ixtisoslashgan. Kaliforniya meva va sabzavotlar va Florida tsitrus mevalari; Vashington va Nyu-York olma etishtirishga ixtisoslashgan. Yillik baliq ovlash miqdori bo'yicha AQSH dunyoda 5-o'rinni egallaydi.

Transport. AQSH barcha transport turlarining rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham dunyoning istalgan mamlakatidan ustun turadi. Avtomobil transporti mamlakatda alohida mavqega ega. O'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib, AQSH avtomobil parki ega bo'lgan mashinadan 200 mln.dan oshdi.

AQSH transport tarmoqlarining asosini kenglik va meridional yo'nalishdagi transkontinental magistrallar tashkil etadi. Ular fonida meridional yo'nalishda o'tgan «Amerika-Volgasi» hisoblanmish Missisipi suv yo'li katta ahamiyatga ega.

AQSHdagi eng yirik transport tuguni – CHikago. Bu erda o'nlab temir va avtomobil yo'llari o'zaro tutashgan bo'lib, turli xil yuklar bir yo'ldan ikkinchisiga olib oriladi. CHikagoda dunyoda eng katta O'Xeyr aeroporti bor. Mamlakatda yuzga yaqin port mavjud. Port sanoat majmualarining eng yiriklari Atlantika bo'yining shimoliy qismida va Meksika qo'ltig'i sohilida joylashgan.

Qo'shma shtatlarda nomoddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi juda tarakkiy etgan bo'lib, endilikda o'zida band aholining 2/3 qismini to'plagan. Hozirga qadar AQSH xo'jaligining hududiy strukturasiga tabiiy sharoit va resurslar, transport, mehnat resurslari, kontsentratsiya kabi omillar katta ta'sir ko'rsatib keldi. Fan-texnika inqilobi davrida fantalab tarmoqlar, iqtisodiy-geografik o'rin va ekologik omillar katta ahamiyat kasb eta boshladi.

Xorijiy Evropadan farqli ularoq, AQSH xo'jaligining hozirgi "qiyofasi" uchun iqtisodiy hayotning chekka okeanbo'yi va ko'lbo'yi rayonlarida to'planganligi xodir. Bu xususiyat shahar aholisining g'uj tuplanganligi bilan bevosita bog'liq. Uchta megapolisda mamlakat jami sanoat mahsulotining 3g'5 qismi ishlab chiqariladi.

AQSHda ham iqtisodiy taraqqiy etgan boshqa mamlakatlardagi kabi keskin hududiy nomutanosibliklar mavjud. Ko'pincha yuksak rivojlangan hududlar bilan qoloq rayonlar yonma-yon joylashgan. Bunday nomutanosibliklarni yumshatish maqsadida olib borilayotgan mintaqaviy siyosat muayyan natijalar bermoqda. CHunonchi, hozirgi paytda ishlab chiqarish kuchlarini shimoliy shtatlardan janubiy va g'arbiy shtatlarga siljish jarayoni aniq namoyon bo'lmoqda.

9.4.AQSHning ichki tafovutlari

Yaqin-yaqinlargacha AQSHni 3 asosiy iqtisodiy rayonga bo'lishar edi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra u bir-biridan farq qiluvchi quyidagi 4 mikrorayonga – SHimoliy-Sharq, O'rta-g'arb, Janub va g'arbga ajratiladi.

SHimoli-Sharq millatning ustaxonasi. SHimoli-Sharq maydoniga ko'ra, eng kichik mikrorayon bo'lib, AQSHning sanoat hududi mintaqasi shu erda vujudga keldi. U millatning ustaxonasiga aylandi. Bu erdagi SHimoliy-Sharqiy megapolisni mamlakatning «bosh ko'chasi» (Main Street) deb ataydilar. Unda mamlakatning iqtisodiy poytaxti Nyu-York va siyosiy poytaxti Vashington joylashgan.

O'rta-g'arb yirik sanoat va qishloq xo'jaligi rayoni. O'rta-g'arb mintaqasi, hududi tobora g'arbga surilib, ba'zan «Amerika O'rta dengiz bo'yi»si deb ataladigan Ko'l bo'yini qamrab oldi. Bu erda yoqilg'i va xom ashyoning katta resurslari va rayonning qulay IGU bazasida CHikago, Detroyt, Klivlend kabi yirik sanoat markazlari shakllandi, Ko'l bo'yi megapolisi tashkil topdi.

CHikagoni O'rta-g'arbning poytaxti deyishadi. U AQSH dagi eng katta transport tugunidir. CHikago suburbanizatsiyaga yaqqol misoldir. Uning aglomeratsiyalariga o'nlab yo'ldagi shaharlar, «tutash» shaharlar kiradi. U mamlakatning oziq-ovqat (g'alla) makoniga aylangan. U AQSH hududining 0,2 qismini egallagani holda mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulolarining yarim qismiga yaqinini beradi. Bu mikrorayon sut, makkajuxori mintaqasida joylashgan.

Janub katta o'garishlar mikrorayoni. Janub uzoq vaqt sust rivojlandi. Bunga asosiy sabab quldorlikka asoslangan plantatsiya xo'jaligining keng tarqalganligi edi. Rayon neft, tabiiy gaz, ko'mir, fosforitlar qazib olish, elektrostantsiyalari va neft zavodlarining quvvati jihatidan mamlakatda birinchi o'rinni egallaydi. Bu erda gazmol va tamaki mahsulotlarining 9/10 qismi to'plagan, paxta mintaqasining maydoni qisqargan. Janub mikrorayonida dunyoga mashhur Mayami (Florida shtati) joylashgan, unga yiliga 50 mln. turist keladi.

G'arb AQSHning eng yosh va o'sayotgan makrorayoni. g'arb buyuk tekisliklardagi preriyalarni keng yaylovlari, yirik qoramol va qo'ylar o'lkasi, rancho, kovboylar, mis, molibden, uran, oltin va ko'mir konlari, obikor dehqonchilik, milliy parklar o'lkasidir. g'arb tarkibiga shuningdek, AQSH dagi yangi o'zlashtirilayotgan bosh resurs rayoni Alyaska bilan ananaslar va turizm oroli- Gavayi orollari ham kiradi.

9.5. Tashqi iqtisodiy aloqalari

AQSH iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalar katta rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish sohasi ko'proq chet el bilan tovar va katta kapital almashuviga qaratilgan, chet el bilan ishlab chiqarish borasida kooperatsiya rivojlangan. Tashqi savdo oborotining 60 foizi rivojlangan mamlakatlarga, 39 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Eksport	Mlrd. \$	583,9	1
Import	Mlrd. \$	771,8	1
Turistlar soni	mln. kishi	43,7	4

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1992 yil 15-16 fevral kunlari AQSH davlat kotibi Djeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat O'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda birinchi bor AQSH elchixonasi ochildi. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1996 yil 23-28 iyun kunlarida AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.A.Karimov AQSH prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, iqtisodiy xavfsizlik masalalari sohasida hamkorlik rivojlantirilmoqda.

Qisqacha xulosalar

AQSH - iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat. Uning hududi uch qismdan iborat: materik, yarim orol, va orol.

AQSHning geografik joylanishi (uch okean suvlari bilan yuvilib turishi, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari) uning rivojlanishi uchun juda qulay imkoniyat yaratgan.

AQSH sanoati yuksak darajada rivojlangan. Sanoatning eng yangi tarmoqlari tez sur'atlar bilan rivojlangan va rivojlanmoqda.

AQSH qishloq xo'jaligi ham yuqori darajada rivojlangan. AQSH aholisining 3-5%i qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti bo'yicha jahonda etakchi hisoblanadi.

Nazorat va mulohokama uchun savollar

1. AQSH geografik o'rnining qulayligi nimadan iborat?
2. AQSH qanday tabiiy resurslarga boy?
3. AQSHda davlat tuzumi qanday?
4. AQSH aholisi o'sish va joylashishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. AQSH sanoatining etakchi tarmoqlari nimalardan iborat?
6. AQSH asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari географияси-чи?
7. AQSH transport tarmoqlari rivojlanish va joylashishiga ko'ra qanday xususiyatlarga ega?
8. AQSH tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi bo'yicha qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
9. Xorijga kapital chiqarishda dunyoda tutgan o'rini.
10. AQSHning O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishini gapirib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy география, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Abirkulov q. AQSHning tabiiy resurs salohiyati. Toshkent, TDIU nashriyoti. 1998
2. Асиров N.V., Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.

4. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира. М.: МАУР, 2003
5. Sotsialno-Экономическая география зарубежного мира
pod.red. V.V. Volskogo. - М.: «ДРОФА» 2003

X mavzu. YAPONIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

10.1.Rivojlanish xususiyatlari

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Osiyo-Tinch okeani hududidagi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun o'ziga xos "sakrash" yillari bo'ldi. Ko'p yillar o'rtacha va qoloq bo'lib kelgan davlatlar tarixan qisqa vaqt ichida ulkan yutuqlarga erishdi Ikkinchi jahon urushida qattiq siyosiy va iqtisodiy talofot ko'rgan, hatto taslim bo'lishdek og'ir musibatni boshidan kechirgan bu davlat bir avlod umri davomida sanoat hamda ilmiy-texnika rivojida dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakat darajasiga ko'tarila oldiki, "Yaponiya mo'jizasi" jahondagi barcha olimlar, iqtisodchilar, sotsiologlarni hayratga soldi. Yaponiyaning rivojlanish "sir"lari hammani, shu jumladan, bizni ham qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa, sanoatning va xizmat, ya'ni servis sohalarining nihoyatda tez o'sish sur'atlari, jahonda bo'layotgan o'zgarishlarga tezlik bilan moslashuvchanlik, horijdagi ilg'or tajribalarni nihoyatda ustalik bilan ijodiy qabul qilish va yanada rivojlantirish borasidagi nodir qobiliyat Yaponiyaliklarga xos xususiyatdir. Aynan shu bois u qisqa vaqt ichida jahondagi (AQSHdan keyin) ikkinchi davlatga aylandi. SHu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy.

Yaponiyadagi iqtisodiy mo'jiza tasodifiymi yoki uni yuzaga chiqargan omillar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa bu omillar nimadan iborat?

Ushbu mamlakat iqtisodiy tadqiqotlar instituti xodimlarining ma'lumotlariga ko'ra, erishilgan barcha yutuqlar hukumat tomonidan olib borilgan tug'ri iqtisodiy siyosat natijasidir.

Yaponiya iqtisodiyoti quyidagi bosqichma-bosqich usullar asosida rivojlandi:

1946-1949 yillar mamlakatda agrar islohot o'tkazilib, qishloq xo'jaligidagi eski feodal qoldiqlarning barchasi tugatildi, bozor munosabatlari to'la o'rnatildi

Iqtisodiyotni qayta qurishni ko'p yillar mobaynida davlat o'z nazoratiga oldi, uning ilhomchisi va boshqaruvchisi bo'ldi, natijada iqtisodiyotda demilitarizatsiya (harbiy yo'ldan tinchlik yo'liga o'tish) yo'liga o'tish turli yo'llar bilan ishlab chiqarish kuchlarini jonlantirish, tashqi savdoni liberalizatsiya (erkin) qilishga keng imkon berildi.

Tushkinlikdagi (giperinflyatsiya, ishlab chiqarishning pastligi) iqtisodiyotni avvalo, barqarorlik holatiga o'tkazish, ikkinchidan, liberallash, uchinchidan, strukturaviy qayta qurish, to'rtinchidan, real taraqqiyotga erishishdek muhim vazifalar bosh masala qilib qo'yildi.

Xo'sh, bu vazifalar amalda qanday ro'yobga chiqarildi? Urushdan keyin butunlay izdan chiqqan iqtisodiyotni turli yo'llar bilan to'g'ri izga solish uchun, yuqorida aytganimizdek, davlat nazorati saqlandi. 1946 yilning fevralida kartochkalar tizimi joriy etildi. SHu yili ilgarigi nihoyatda yirik kontsernlar – dzaybatsu (oila asosiga kurilgan korxonalar) o'rniga yangi tipdagi korxonalar ("Mitsubishi", "Mitsui", "Sumimoto" va boshqalar) yuzaga keldi. Sanoatni ditsentralizatsiyalash uchun antimonopol qonunlar chiqarildi. SHu tariqa Yaponiyada o'ziga xos uch islohot amalga oshirildi: trestlar tarqatildi, agrar o'zgarishlar ro'y berdi va ishchi kuchini yollashning yangi (butun umrga yollash)

usuli joriy etildi. SHu davrda (1947 yil 3 mayda) amaldagi Konstitutsiya qabul qilindi. 1949 yildan boshlab ishlab chiqarishni rivojlantirish bosh vazifa kilib qo'yildi, baholar erkinligi joriy etilib, davlatning butun iqtisodiyotdagi nazorati ancha susaydi. Iqtisodiyotda ustivor yo'nalish tog'-kon sanoatiga berildi. Oradan bir yil o'tgach, Yaponiyada urushdan avvalgi ko'rsatkichning 70 foizi miqdorida mahsulot ishlab chiqarila boshlandi.

Ayni chog'da iqtisodiyotni ratsionalizatsiyalash va modernizatsiyalashga o'tildi. Sanoat korxonalari uchun 5 yil muddatga imtiyozlar (kredit, soliq siyosati, investitsiya bo'yicha) berildi. SHu davrda an'anaviy sanoat tarmoqlari bilan birga yangi korxonalar yuzaga keldi: sohada strukturaviy o'zgarishlar ro'y berdi (sintetika va elektronika), ayrim tarmoqlar (kemasozlik) rivoji pasaydi.

1960 yildan e'tiboran xalqaro savdoda erkinlikka qarab yo'l olindi, (vaholanki mamlakatda tashqi savdo vazirligi 1949 yilning mayida tuzilgandi). Yaponiya shu davrda jahondagi barcha iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'ldi. 1967 yildan esa mamlakatda tovar va kapitalning erkin holati boshlandi. Natijada 1952-1990 yillar davomida Yaponiya iqtisodiyoti hajmi 65 marta o'sdi.

SHuni alohida qayd etish kerakki, to'la bozorga avvaldan belgilangan reja va muddatlarda o'tildi. Bu jarayonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmadi. 1949 yildan boshlab ish haqi ustidan davlat nazorati o'rnatildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ilg'or davlat - AQSH tajribasi qo'llandi, lekin boshqa davlatlar tajribasi ham inkor etilmadi.

I. A. Karimov "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli kitobida: "Amerikacha andozada" erkin bozor munosabatlari ayniqsa, kuchli rol o'ynaydi, "YApon" va "Frantsuz" andozalarida esa xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtiroki anchagina kattadir",- deya bejiz ta'kidlagani yo'qyilgan. Aynan shu tufayli Yaponiyaning yalpi milliy mahsuloti 4.4 trillionndan ortiq bo'lib, bu boradagi yillik o'rtacha o'sishi 1,4% ga etadi. Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha faqat AQSH dan ortda holos. Bu davlat o'tgan asrning 80-yillari o'rtasida kapitalistik mamlakatlarda ishlab chiqariladigan barcha mahsulotning 15%i ni etkazib berdi. Jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha esa AQSHdan o'zib ketdi va jahonda (SHveytsariyadan keyin) ikkinchi o'ringa chiqib oldi. qiyos uchun, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada - 11.6 ming dollar, AQSHda - 18.2, GFRda - 18.3 bo'lsa, Yaponiyada - 19.5 ming dollarni tashkil etadi.

Yaponiya ishlab chiqarishi eksportga ham yo'naltirilgan. Bu erdan chetga tayyor, raqobatlasha oladigan, nisbatan arzon va sifati yuqori ko'p turdagi mahsulotlar chiqarilsa, xorijdan (import) energiyaning 81%i, neft 99,7%, temir rudasi, boksit, nikel rangli metallarning hammasi olib kelinadi. Oziq-ovqat bilan ichki ta'minot 75% ga teng. Mamlakat ichki imkoniyatlari hisobiga faqat guruch bilan to'la ta'minlanadi, uni qisman eksport qiladi. Demak bu davlat boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikka "maxkum etilgan"

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qulay (eksport) va chetdan kerakli va arzon xom ashyolarni (import) olib kelish tufayli taraqqiyot bor foyda faol savdo balansi hisobiga yuzaga keldi.

Yaponiyada ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlariga e'tibor tobora ortib bormoqda, fan-texnika ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu sohaga kapital sarflash (YAMF – 4%), eng samarali hisoblangan eksportda texnologiya kashfiyotlari hissasi tobora o'sib bormoqda. SHu sababli bu erda olimlar alohida e'tiborda.

10.2.Geografik joylashishi, tabiiy sharoiti va boyliklari

Yaponiya (yaponcha Nippon Nixon) Tinch okeanidagi orollarda Sharqiy Osiyo sohili yaqinida joylashgan davlat. Hududida 4 mingga yaqin orolni qamrab olgan, shimoli-Sharqdan janubi-g'arbga qariyb 3 ming km ga cho'zilgan; yaeng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu. Mamlakatning asosiy orollari ulkan muhandislik inshootlari (suv osti tunellari, ko'priklar) orqali o'zaro bog'langan. Maydoni – 370 ming km. Aholisi – 123 mln. nafar. Poytaxti – Tokio. Yaponiya ma'muriy jihatdan 46 prefektura va Xokkaydo gubernatorligiga bo'lingan.

Yaponiya mo'tadil subtropik va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi 30 ming km, chamasida. Xonsyu orolining janubiy sohili, Sikaku va Kyusyu orollarining qirg'oqlarida qo'ltiq ko'p; bu erda murakkab qirg'oq chizig'iga ega bo'lgan Ichki YApon dengizi joylashgan. Ryukyuning janubiy orollari marjon riflari bilan o'ralgan.

Relifi. Yaponiya hududining 3/4 qismi qir va tog'lardan iborat: past tekisliklar sohil buylab ayrim-ayrim joylashgan. Xokkaydo orolidagi tizmalarning ba'zi cho'qqilari balandligi 2000 metrdan oshadi. (Asaxi cho'qqisi - 2290 metr). Xonsyu orolining shimoliy qismida 3 ta bo'ylama tog' tizmalari bo'lib, ular vodiylar va soyliklar bilan bo'lingan: orolning o'rta qismidan o'tgan Fossa-Magna siniqlar zonasi (uzunligi 250 km.) bo'ylab qator vulkanlar, jumladan, Yaponiyadagi eng katta vulkan – Fudziyama (balandligi 3776 metr) qad ko'targan. Xonsyu oroli markaziy qismidagi tizmalarning cho'qqilari alp relefi va yilning ko'p qismida qor bilan qoplanib turadi. Yaponiyada balandligi 3000 metrdan yuqori 16 ta cho'qqi bor.

Sikoku orolining eng baland joyi 1981 metr(Isidzuti cho'qqisi), Kyusyu oroliniki-1788 metr (Kudzyu vulkani).

Geologik tuzilishi va foydali qazilmalari: YApon orollari yoyi g'arbiy Tinch okean geosinklinal mintaqasi tarkibiga kiradi. Fossa-Magna kundalang siniklar zonasi Yaponiya hududini tuzilishi jihatidan o'zaro farq qiluvchi ikki bo'lakka bo'lib turadi. Xokkaydo oroli va Xonsyu orolining shimoliy qismi paleozoy-mezozoy qatlamlaridan tuzilgan.

Yaponiya hududi kuchli seysmik zonada joylashgan (1855,1891 1897 va 1923 yillarda falokatli zilzilalar bo'lgan). Yaponiyadagi 150 ta vulkandan 40 tachasi so'nmagan. Vulkanli rayonlarda mineral va termal buloqlar ko'p. Foydali qazilmalardan ko'mir, temir rudasi, oltingugurt, marganets, qo'rg'oshin, rux, mis rudalari, neft, xromit, oltin, kumush va simob konlari bor.

Iqlimi mussonli, shimolida mo'tadil, janubida subtropik, RYUKYU orollarida asosan tropik. Xokkaydo orolida, Sapporoda yanvarning o'rtacha harorati – 5⁰S, iyulniki 22⁰S, Okinavada yanvarning o'rtacha harorati 16⁰S,

iyulniki 28⁰S. Materikdan esgan qishki musson Yaponiya hududiga sovuq havo va ko'p yog'in keltiradi. Yiliga 30 martagacha tayfun bo'ladi. Bu vaqtda kuchli shamol esib, jala yog'adi. O'rtacha yillik yog'in 1800 mm. Xokkaydo orolining Sharqida yillik **yog'in** 800-1200 mm, Sikoku va Kyusyu orollarida 3000 mm.gacha.

Ichki suvlari. Daryolari qisqa, ammo sersuv. Mamlakat gidroenergiya resurslari 52,7 mln. kvt. SHundan 21,8 mln. kvt o'zlashtirilgan (1975). Tayfun vaqtida daryolar toshadi. Ko'pgina daryolarning suvi sug'orishga sarflanadi. Mayda ko'llar ko'p. Yaponiyadagi eng katta ko'l Biva (maydoni 716 km²).

Tuproqlari. SHimolida o'tloqi-botqoq, janubda qo'ng'ir, o'rmon subtropik va tropiklarda sariq va qizil, tekisliklarda allyuvial tuproqlar tarqalgan.

O'simliklari. Yaponiya hududining 2/3 qismi o'rmon va butazorlardan iborat: o'rmonlarning 1/3 qismi ekib o'stirish orqali yaratilgan. Yog'och zahirasi 1,9 mlrd metr (1974). Yaponiyada jami 700 tur daraxt, buta hamda 3000 tur o't o'simligi o'sadi. Yaponiya florasida endemik turlar ko'p. O'rmonlar asosan igna bargli va keng bargli daraxtlardan iborat.

Hayvonot dunyosi. Yaponiyada sut emizuvchilarning 270, qushlarning taxminan 800, sudralib yuruvchilarning 110 turi mavjud. Yaponiya qirg'oqlariga tutash dengiz suvlarida baliqlarning 600 dan ziyod, molyuskalarning 1000 dan ortiq turi yashaydi. Faunasida endemik va relik turlari ko'p.

Yaponiyada 10 mln. gektar erda (mamlakat hududining 1/4 qismi) tabiat qo'riqlanadi. SHuning yarmini 23 ta milliy bog' va davlatga qarashli qo'riqxonalar tashkil etgan (1977 y.). 1970 yildan dengiz suv osti milliy bog'lari (1976 yilda 40 ta) mavjud bo'lgan. Yaponiya quyidagi tabiiy rayonlarga bo'lingan: SHimoliy, SHimoliy-Sharqiy, Markaziy, Janubiy-g'arbiy.

10.3.Aholisi va uning joylashishi

Yaponiya – bir millatli mamlakat. Aholisining 90%dan ortig'i yaponlardir.

Yaqin vaqtgacha Yaponiya uchun tug'ilishning ko'pligi va aholi tabiiy o'sishining kattaligi xos edi. Endilikda tug'ilish keskin kamaydi va Yaponiya aholisining ko'payish tipi jihatidan boshqa rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashdi. Bunga urbanizatsiya sur'atining tezlashuvi va davlatning tug'ilishni nazorat qilish siyosati sabab bo'ldi.

Yaponiya – aholi zich joylashgan mamlakat. Aholisining O'rtacha zichligi 1 km ga 300 nafardan ortadi.

Urbanizatsiyaning yuqori darajadali faqat shaharliklar soni ko'pligida emas, balki ularning asosiy qismini keng shahar aglomeratsiyalarida to'planganligida ham aks etadi. Tokiodan Osaka shahrigacha bo'lgan shaharlar mintaqasi xuddi AQSHdagi ATLANTIKA bo'yi megalapolisiga o'xshagan yapon megalapolisiga aylangan. Aholi joylashishining shahar tipi shahar ta'rifini o'zgartirishga sabab bo'ldi: Yaponiyada yaqin vaqtlargacha aholisi 30 ming kishidan kam bo'lmagan aholi punktlari shaharlar qatoriga kiritilar edi, endilikda esa aholisi 50 ming kishidan ortiq bo'lgan aholi zich yashaydigan hamda odamlarning ko'pchiligi shaharlarga xos mehnatda band bo'lgan aholi rayonlari shaharlar deb ataladigan bo'ldi. Yaponiyaning chekka tog'li rayonlarida kichik-

kichik tarqoq shaharlar ko'pchilikni tashkil etadi. qishloq aholisi ko'pincha kichik posyolkalarda yashaydi. Aholining ixtisoslashish tarkibi keyingi vaqtlarda juda o'zgardi. Ikkinchi jahon urushi arafasida iqtisodiy faol aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va baliq ovlash bilan band bo'lgan, endilikda esa sanoatda qishloq xo'jaligi bilan baliq ovlashdagiga qaraganda ikki barobar ko'p kishi ishlamoqda. Moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan sohalarda ishlovchi xodimlar, xizmatchilar, ilmiy xodimlar, mehmonxona xizmatchilari va boshqalarning soni tez ko'payib bormoqda.

Aholining sinfiy tarkibida mayda va o'rta burjuaziyaning salmog'i AQSH dagiga qaraganda bir oz katta, ishchi va xizmatchilarning salmog'i esa kichikroqdir. Biroq, Yaponiya xo'jaligida monopolistik burjuaziyaning roli AQSH dagidan kam emas.

Xokkaydo orolida mamlakatning eng qadimgi aholisi - aynlar (20 ming nafar chamasida) saqlanib qolgan. SHuningdek, koreys (700 ming nafardan ziyod) va xitoylar ham bor. Rasmiy til - yapon tili. Asosiy dinlari - sintoizm (1945 yilgacha davlat dini bo'lgan) va buddizm.

Yaponiya aholisining soni jihatidan dunyoda 6-o'rinda turadi. Jami iqtisodiy faol ish bilan band aholi (52,2 mln. nafar) ning 27 foizi sanoatda, 22 foizi savdoda, 12,6 foizi qishloq xo'jaligida ishlaydi (1975y.). Aholisining o'rta zichligi 1 km.ga 298 nafar. (1975y.) to'g'ri keladi. Jami aholisining 75%i shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari: Tokio, Iokohama, Osaka, Nagoya.

10.4.Davlat tizimi

Yaponiya – konstitutsion monarxiya davlatidir. Amaldagi konstitutsiyasi 1947 yil 3 mayda kuchga kirgan. Yaponiyaning merosiy imperatori konstitutsiyaga ko'ra «Davlat va xalq birligi ramzi» hisoblanadi. U parlament tavsiyasiga ko'ra, Bosh vazirni hukumat tavsiyasiga ko'ra, Oliy sud raisi va a'zolarini tayinlaydi, shuningdek, hukumat a'zolarini vazifalariga tayinlaydi, iste'folarini qabul qiladi, parlamentni chiqaradi va hokazo. Konstitutsiyaga ko'ra, imperatorning davlat ishlariga aloqador bo'lgan har qanday faoliyati hukumatning maslahati va ma'qullashi bilan amalga oshuvi lozim, Chunki hukumat imperatorning faoliyati uchun ma'sul hisoblanadi.

Oliy hokimiyat organi 2 palatali parlament (Vakillar palatasi 4 yilga, Maslahatchilar palatasi 6 yilga saylanadi), 20 yoshga etganlarga saylov huquqi berilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, parlament hukumat faoliyatini nazorat qilib turadi, xalqaro shartnomalarni tasdiqlaydi. Oliy ijroiya hokimiyat organi - hukumat (Aizorlar mahkamasi).

Prefekturalarda mahalliy boshqaruvni saylab qo'yiladigan prefektura majlisi amalga oshiradi. SHaharlar posyolka va qishloqlarda ham saylab quyiladigan majlislar bor. Mahalliy boshqaruv organlaridagi bosh mansabdorlar (prefekturalarda gubernatorlar, shaharlarda – merlar, posyolka va qishloqlarda - oqsoqollar) aholi tomonidan 4 yilga saylanadi.

Sud tizimini bosh sudya va 14 sudyadan iborat bo'lgan Oliy sud boshqaradi. Oliy sud konstitutsion sud vazifasini ham bajaradi. Apelyatsion sudlar, mahalliy

sudlar, oila sudlari, intizom (boshlang'ich) sudlari bor. Sudyalarni Oliy sud tavsiyasi bilan Vazirlar mahkamasi tayinlaydi.

Konstitutsiyaning maxsus moddasida Yaponiya urushdan abadiy voz kechdi va armiya tutmaydi deb yozib qo'yilgan. Biroq, hukumat reaksion kuchlar tazyiqi ostida "O'zini mudofaa qilish kuchini" ko'paytirib, harbiy sanoatning rivojlanishini rag'batlantirmoqda.

10.5.Xo'jaligining umumiy ta'rifi

Ikkinchi jahon urushi va undan keyin Amerika okkupatsiyasi Yaponiya xo'jaligiga og'ir zarar etkazdi. Biroq, o'tgan asrning 50-yillarida mamlakat iqtisodiyoti tezlik bilan rivojlana boshladi va Yaponiya o'z sanoatining yuksalish sur'atlari jihatidan barcha kapitalistik mamlakatlardan o'zib ketdi. Mamlakatning iqtisodiy jihatdan bunday tez o'sishi ko'p omillarga bog'liq. **Birinchidan**, urush yillarida eskirgan va ishdan chiqqan zavod jihozlari butunlay yangilandi, ular fan-texnika inqilobining eng yangi yutuqlari asosida ishlangan jihozlar bilan almashtirildi. Yapon monopolialari chet el patentlarini sotib olib, sanoatga jahon ixtirolarini tadbiq etdilar, ularni muttasil takomillashtirib bordilar. SHunday qilib, hozir Yaponiya sanoati jihozlarining 2/3 qismi eng yangi texnikaga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda mamlakat fan-texnika yo'nalishidagi tadqiqotlarni kengaytirmoqda. Yapon ishchilari o'ta savodli bo'lganliklari tufayli hozirgi zamon ishlab chiqarish texnikasini tez o'zlashtirdilar. **Uchinchidan**, davlat-monopolistik kapitalizmi Yaponiya sanoatini qayta qurishga har tomonlama yordam berdi: davlat korxonalarini rekonstruktsiya qilish va yangi qurilishlar uchun sarflanadigan mablag'ning anchagina qismini o'z zimmasiga oldi monopolialarga soliq to'lash yuzasidan engilliklar va katta qarz berdi. **To'rtinchidan**, yaqin vaqtlargacha mamlakatning harbiy xarajatlari ko'p bo'lmadi, bu hol xo'jalik uchun ajratiladigan davlat mablag'ini ko'paytirishga imkon berdi.

Hozirgi vaqtda Yaponiya sanoatining rivojlanish darajasi jihatidan jahon kapitalistik mamlakatlari o'rtasida ikkinchi o'rinda, ba'zi ishlab chiqarish sohalari (kemasozlik, tranzistorli radiopriyomniklar, tsellyuloza tolasi, avtomobillar ishlab chiqarish) da esa birinchi o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyotining strukturasi jihatidan Yaponiya AQSH dan birmuncha farq qiladi: Yaponiyada sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasida uzilish kamroq. Bu tarmoqlar bilan bir katorida transport, savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish sohalari ham keng rivojlangan, «Fanga talabchan tarmoqlar» tobora rivojlanmoqda.

Yaponiya sanoatida ishlab chiqarishning markazlashuvi yuqori darajaga etdi, biroq, boshqa ko'pchilik rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, bu erda anchagina mayda, ko'pgina yarim kustar korxonalar saqlanib qolgan. Ular monopolialarga qarashli yirik korxonalar bilan shartnoma asosida ishlaydilar. Masalan, avtomobillar uchun kerakli detallar va ehtiyot qismlarning ko'pini kichik korxonalar ishlab beradi, kuzov, motorlar va mashinani yig'ish ishlarini yirik zavodlar bajaradi.

O'tgan asrning 50-yillari boshigacha engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari etakchi o'rinda turar edi, endi esa og'ir industriya mahsuloti jami sanoat mahsuloti qiymatining 3/4 qismini tashkil etmoqda. Undiruvchi sanoatning hissasi tobora

kamayib bormoqda. Mamlakat xom ashyo bo'yicha ham, tayyor mollarni sotish jihatidan ham jahon bozoriga tobora ko'proq bog'lig' bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotning yaqin o'tmishdagi tezlik bilan rivojlanishi xo'jalikning notekis joylashganlik muammosini keskinlashtirib yubordi. Sharqiy dengiz bo'yi rayonlarida aholi va sanoat tobora ko'proq to'planib bormoqda, ayni vaqtda bir qancha hududlar (Xonsyu orolining shimoliy qismi. Xokkaydoning chekka rayonlari) sust rivoji sustligicha qolmoqda.

Sanoati. Yaponiyaning yokilgi xom ashyo bazasi juda cheklangan. Ko'mir resursi mamlakat ehtiyojining yarmiga yaqinini ta'minlaydi, kokslanuvchi yaxshi ko'mir juda oz. Yaponiya bir yilda kazib oladigan neft AQSHda yarim kunda kazib chiqariladi, temir va marganets rudalari kam, boksit va ko'pgina boshqa mineral xom ashyolar butunlay yo'q.

Energiyaning 80% chetdan keltiriladigan xom ashyodan ishlab chiqarilishiga qaramay, mamlakatda yuqori darajada rivojlangan energetika xo'jaligi bor. CHetdan keltiriladigan neft asosida neftni qayta ishlovchi va neft-kimyosi sanoati o'sib chiqdi. Bu sanoat korxonalari Xonsyu va Kyusyu orollarining urbanizatsiyalashgan polosasidagi shaharlarda joylashgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish tez o'smoqda. YAQin vaqtlargacha elektr energiyasining asosiy qismini Xonsyu orolidagi tog' daryolariga qurilgan ko'pdan-ko'p GESlar berar edi. Keyingi vaqtlarda Sharqiy sohildagi shaharlarda chetdan keltiriladigan yoqilg'i bilan ishlaydigan qudratli IESlar qurildi. Hozir ham bu stantsiyalar Yaponiyada ishlab chiqariladigan elektr energiyasining deyarli 80%ini bermoqda. AESlari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi vaqtlarda metallurgiyada katta o'zgarishlar yuz berdi, u to'la rekonstruksiya qilindi. Eskirgan ko'pdan-ko'p zavodlar o'rniga eng yangi texnika bilan jixozlangan juda katta kombinatlar qurildi. Yaponiyada dunyodagi eng katta domna pechlari ishlab turibdi, po'latning 75%dan ko'prog'i konverterlarda kislorod yordamida eritiladi. qora metallurgiya yo'nalishida ishlab chiqarishning yiriklashuvi va texnikaviy jihozlanganlik darajasi jihatidan Yaponiya barcha rivojlangan mamlakatlardan o'zib ketdi. Bu tarmoqning geografiası ham o'zgardi. Ikkinchi jahon urushiga qadar eng katta korxonalar ko'mir qazib olinadigan rayonda, Kyusyu orolining shimolida edi. YAngi kombinatlar Markaziy Xonsyuning chetdan temir rudasi, temir-tersaqlar va kokslanuvchi ko'mir keltiriladigan port shaharlarida qurildi. CHetdan keltiriladigan boksit va boshqa xom ashyolarga muljallangan rangdor metallurgiya korxonalari ham shu erda bunyod etildi.

Yaponiya og'ir sanoatining etakchi tarmog'i mashinasozlik. Transport mashinasozligi, stanoksozlik, elektrotexnika buyumlari, elektron mashinalar, tibbiyot apparaturalari hamda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari uchun jihozlar ishlab chiqarish, ayniqsa, keng rivojlangan. Yaponiya kemasozligi juda xilma-xil: Iokogama, Osaka, Kobe, Nagasaki va boshqa ko'p markazlarining kemasozlik korxonalarida dunyoda eng yirik supertankerlar, kit ovlaydigan har xil kemalar, yuk tashish uchun belgilangan kichik kemalar ishlab chiqariladi. Ikkinchi jahon urushiga qadar mamlakatda avtomobilsozlik bo'lmagan, endilikda Tokio, Osaka Nagoya, Kavasaki va sohil bo'yidagi boshqa shaharlarning zavodlari tufayli

Yaponiya (AQSH bilan bir qatorda) avtomobil ishlab chiqarishda birinchi o'ringa chiqib oldi. Sanoatning eng yangi tarmog'i bo'lgan elektron sanoati ham tez rivojlandi. Yaponiyaning tranzistorli radiopriyomniklari, kinokameralari, fotoapparatlari, televizorlari jahon bozorida keng tanilgan. Turli ixtisosdagi mashinasozlik korxonalari Xonsyu va SHimoliy Kyusyu orollaridagi aholi zich yashaydigan polosa shaharlarida to'plangan.

Tez rivojlanib borayotgan kimyo sanoati ham turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqaradi. Soha sanoati qisman o'z xom ashyosi - yog'och, koks chiqindisi va boshqalarga nisbatan chetdan keltiriladigan neft va suyultirilgan gazdan ko'proq foydalanadi. Organik sintez kimyosining keng ko'lamda rivojlanganligi Yaponiyaga sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash muammosini hal etishda yordam bermoqda. Metall detallar asta-sekin plastmassa detallar bilan almashtirilmoqda, sintetik tola hozirgi vaqtda mamlakatda ishlab chiqariladigan to'qimachilik tolasining 90%ini tashkil etmoqda. Kimyo zavodlari ham mashinasozlik korxonalari kabi Xonsyu orolining Sharqiy sohilidagi va SHimoliy Kyusyudagi port shaharlarda va neftni qayta ishlash hamda metallurgiya markazlari yaqinida joylashgan.

Engil sanoatning asosiy tarmoqlari bo'lgan ip-gazlama sanoati va ipak gazlama sanoati o'smayapti, mahsulot ishlab chiqarishda ular hamon urushdan avvalgi darajaga etgani yo'q. Poyabzal sanoati jadal rivojlanmoqda. Bunga yaponlar hayot tarzining evropalashuvi sabab bo'lmoqda. SHaharliklar oyog'ida eskidan rasm bo'lib kelayotgan geta (yog'och kovush) tobora kamayib, charm poyabzal esa ko'payib bormoqda.

SHimoliy Xonsyu va Xokkaydo orollaridagi anchagina o'rmon massivlari Yaponiyaning yog'ochsozlik sanoatini xom ashyo bilan qisman ta'minlaydi, o'rmon xom ashyosining ko'p qismi chetdan keltiriladi.

Qishloq xo'jaligi. Yaponiyaning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun umuman qulay. O'rtacha balandlikdagi tog'larning yon bag'irlari yaxshi rivojlangan podzol tuproqlar va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari bilan qoplangan. Etarli darajada o'g'itlansa, bu tuproqlar yuqori hosil beradi. Sohillardagi allyuvial tuproqli tekisliklarni dehqonlar azaldan o'zlashtirganlar. qo'riq erlar faqat Xokkaydo orolida saqlanib qolgan: boshqa orollarda yaponlar botqoqlarning qirg'oqqa yaqin sohillari va daryo deltalarini quritib, ko'rfazlar hamda dengizning sayoz joylarini tuproq bilan to'ldirib, shular hisobiga shaharlarni va shahar atrofi xo'jaliklarini kengaytirmoqdalar. Orollar meridian bo'ylab cho'zilib ketganligidan ularning iqlim sharoiti turlicha. Xokkaydo orolida va Xonsyuning shimolida vegetatsiya davri 120-140 kun davom etadi: dehqonchilikda ba'zi bir ekinlarning maxsus yaratilgan navlari (masalan, sovuqqa chidamli sholi) etishtiriladi. Xonsyuning markaziy qismida qishning iliq kelishi kuzgi ekinlar ekishga imkon beradi, uzoq davom etadigan yoz sholi etishtirish uchun juda qulay. Xonsyuning janubida va Kyusyu hamda Sikoku orollarida xilma-xil issiqsevar o'simliklar, shu jumladan, tsitrus o'simliklarini etishtirish mumkin.

Hozirgi Yaponiyaning agrar tizimi ikkinchi jahon urushidan so'ng o'tkazilgan islohot bilan belgilanadi. Islohot yirik mulkdorlarning haydaladigan

erlarini kamaytirdi: davlat pomeschchiklardan ortiqcha erlarni sotib olib, dehqonlarga sotdi. O'rmon va o'tloqlar ilgari xususiy mulkdorlar qo'lida qoldi. Erni ijaraga oluvchilar soni kamaydi, xususiy er egalari soni ko'paydi. Biroq er egalari deyarli 66% chek eri 1 gektardan kam. SHunga qaramay, islohot pomeschchik er egaligini tugatdi. Yaponiya qishloq xo'jaligi tipik kapitalistik xo'jalikka aylandi.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi jihatidan Yaponiya boshqa rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ancha farq qiladi. Bu mamlakat dehqonchilik mamlakati: dehqonchilik mahsulotining qiymati chorvachilik mahsulotining qiymatidan ikki barobar ortiq. Biroq chorvachilik (ayniqsa, shahar atrofida sut chorvachiligi tez rivojlanmoqda).

Intensiv dehqonchilik yuqori hosil beradi. Har yili olinadigan hosil garchi ekin maydoni o'zgarmagan bo'lsada, keyingi yillarda ancha oshdi. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yuqori darajada mexanizatsiyalashgan. SHu bilan birga Yaponiya sanoati tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, maxsus kichik hajmli mashinalar ("Kichik mexanizatsiya") ishlab chiqarmoqda.

Yaponiyaning asosiy ekin – sholi. SHoli barcha ekin maydonining yarmidan ortig'ini band qilgan. SHoli hamma erda asosan sugoriladigan erlarda, biroq tovar mahsulotining katta qismi Xonsyu orolining markaziy hamda janubiy rayonlarida etishtiriladi. Xonsyuning shimolida va Xokkaydoda bo'g'doy, javdar va arpa eqiladi, biroq etishtiriladigan don mamlakat ehtiyojini qondira olmaydi. SHaharlar atrofida sabzavot va mevalar etishtiriladi. Texnika ekinlari - qand lavlagi, soya, tamaki, choy ham katta ahamiyatga ega.

Yaponlar azaldan gulchilik bilan shug'ullanib keladilar. Ko'p gularning yapon diniy (sintoizm) marosimlarida ahamiyati katta. Yaponlarda guldasta yasash, gullarni va daraxt novdalarini vazalarga chiroyli (ikebana) qilib solib qo'yish an'anaviy san'at hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar Yaponiya o'z ipakchiligi bilan dong chiqargan edi. Endilikda ipakchilik tushkunlikka yuz tutdi, ipak qurti boqish bilan ko'pincha dehqonlikda qo'shimcha tarmoq sifatida shug'ullaniladi.

Baliq ovlash – Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'i. Baliq sohil bo'yidagi suvlarda ham, uzoq dengizlarda ham tutiladi. qirg'oq yaqinida baliq ovlash bilan sohildagi qishloq aholisi, uzoq dengizlarda (asosan Tinch okeanining g'arbiy qismida) esa, texnika jihatidan mukammal baliq ovlaydigan floti bo'lgan yirik monopoliyalar shug'ullanadi. Ichki dengiz sohillarida baliqchilik xo'jaliklari joylashgan. Baliq ovlash jihatidan Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Yaponlar ovqatida baliq, boshqa dengiz hayvonlari mahsulotlari katta o'rin tutadi.

Transporti. Yaponiyada quruqlikdagi transport ham, dengiz transporti ham birday rivojlangan. Mamlakat ichkarisidagi yuklar avtomobillarda, temir yo'l transporti va kabotaj kemalarda tashiladi. Temir yo'llarining katta qismi davlatga qaraydi. Bu yo'llarning yarmi elektrlashtirilgan. Eng muhim temir yo'llar sohildagi past tekisliklardan o'tadi. Tinch okeani qirg'og'i bo'ylab ketgan yo'l Xonsyu orolidan Kyusyu oroliga Simonosyoki qo'ltig'i tagidagi tunnel orqali o'tadi. TSugaru bug'ozi ostida dunyodagi eng uzun (54 km) tunnel qurilyapti. U Xokkaydo orolini Xonsyu oroli bilan bog'laydi.

Dengiz floti tonnajining kattaligiga qaramay tez o'sib borayotgan tashqi savdo yuklarini tashib berishga ulgura olmaydi va mamlakatga chet el kemalarini kira qilishiga to'g'ri keladi. Bo'sh reys bo'lmasligi uchun Yaponiyada turli yuklarni tashishga moslashtirilgan kemalar qurilgan: ularning maxsus jihozlangan palubalarida Yaponiyaning chetga chiqariladigan sanoat mollari (masalan, avtomobillar), orqaga qaytishda esa, tryumga ko'mir, temir rudasi yoki boshqa mollar ortiladi. Kabotaj flotida hozirgi zamon kemalari bilan bir katorada elkanli kemalar ham saqlanib qolgan. Ular ichki dengizda tashiladigan yuklarning anchagina qismini tashiydi.

10.6. Ichki iqtisodiy-geografik tafovutlari

Aholisining zichligi va xo'jaligining rivojlanish darajasi jihatidan Yaponiyaning boshqa qismlari orasida Xonsyu orolining markaziy qismi alohida ajralib turadi. Yaponiyadagi eng baland (shu jumladan, yaponlar iftixori – balandligi 3776 m bo'lgan Fudziyama vulkani) va mamlakatdagi eng yirik pasttekisliklar ham shu erdadir. Xonsyu sohilidagi pasttekisliklar bir zamonlarda Yaponiya dehqonchilik madaniyatining qadimgi markazi bo'lgan, keyinchalik bu erda dastlabki shaharlar paydo bo'lgan.

Urbanizatsiyalashgan sohil bo'ylari (Yaponiya megalapolisi) Yaponiyaning sanoati eng rivojlangan qismidir. SHu bilan birga Markaziy Xonsyuda intensiv va xilma-xil qishloq xo'jaligi keng rivojlangan. Bu erda sholi, tog' yon bag'irlarida choy, tamaki etishtiriladi. SHahar atrofi xo'jaligi yaxshi rivojlangan. qoramollar va cho'chqalarning ko'pchiligi ham shu erda to'plangan.

Yaponiya poytaxti – Tokio dunyodagi eng yirik shaharlardan biri, eng muhim sanoat, transport, savdo va madaniyat markazidir. Uning sanoat korxonalari orasida har xil mashinasozlik zavodlari (ayniqsa, avtomobillar, sanoat asbob-uskunalar, elektron mashinalar va apparatlar ishlab chiqaradigan zavodlar), neft kimyosi kombinatlari, shuningdek, poligrafiya, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati korxonalari ko'p. Tokioda ko'pgina yirik ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, muzeylar va teatrlar bor. SHaharning tashqi qiyofasida Evropa va Yaponiya arxitekturasining qo'shilib ketgan shakli aks etadi. Markaziy rayonlari Evropadagi yirik markazlarni eslatadi, ishchi kvartallari qishloqlarga o'xshaydi.

Tokiodan Tokio qo'ltig'i sohili bo'ylab shaharlar bir-biriga tutashib ketgan. Ularda metallurgiya, mashinasozlik va neft kimyosi korxonalari bor. qo'ltiqdan chikaverishda bu sanoatlashgan hududning ikkinchi eng yirik markazi millioner shahar Tokioning avanporti – Iokogama joylashgan bo'lib, u dengiz kanali orqali poytaxt bilan ko'shilgan. Bu shaharda mamlakatning eng yirik kemasozlik korxonalaridan biri, ko'plab po'lat eritadigan va neft kimyosi kombinatlari, ko'p metall ishlatadigan mashinasozlik zavodlari bor. Urush yillarida shahar Amerika aviatsiyasining hujumidan katta zarar ko'rdi, keyinchalik butun-butun kvartallar yangidan qurildi va evropacha tus oldi.

Tokio aglomeratsiyasidan g'arbda Ise ko'ltig'i sohilida ko'pdan-ko'p yo'ldosh shaharlar va keng shahar atrofi bilan birga Nagoya shahri joylashgan. Bu yirik metallurgiya-mashinasozlik va kimyo kompleksida har qaysi yo'ldosh shahar o'zining tor ixtisosiga ega: ba'zilar avtomobillar, boshqalari kimyoviy tolalar,

ayrimilari murakkab stanoklar ishlab chiqaradi va xokazo. Aglomeratsiyaning markazi – Nagoyada turli-tuman sanoat tarmoqlariga qarashli korxonalar bor.

Yaponiya megalopolisining janubiy-g'arbiy chekkasida uchta markaz: Osaka, Kobe va Yaponiyaning ilgarigi poytaxti Kioto atrofida tarkib topgan politsentrik shahar aglomeratsiyasi joylashgan. Osaka mamlakatning eng katta shaharlaridan biri bo'lib, o'zining ip-gazlamalar va to'qimachilik mashinalari ishlab chiqarishdan iborat eski ixtisosini qisman saqlab qolmoqda. Biroq bu shaharda turli xil mashinasozlikning eng yangi tarmoqlari, xususan elektron va yirik kimyo korxonalari katta ahamiyat kasb etadi. Kobe - qora metallurgiya va kemasozlik shahri. Uning mashinasozlik zavodlari kemalar uchun zarur bo'lgan hamma jihozlarni ishlab chiqaradi. Kiotoda mashinasozlik bilan bir qatorda milliy yarim kustar korxonalari – chinni idishlar, uyincholqlar va yog'och buyumlar yasaydigan korxonalar saqlanib qolgan. Janubiy Xonsyu bilan SHimoliy Kyusyu xo'jaligining tipi va sanoatning joylashuvi jihatidan Markaziy Xonsyuga o'xshaydi, biroq iqtisodiy taraqqiyoti darajasi pastroq. Rayondagi eng yirik shahar aglomeratsiyasi Kyusyu orolining shimolida millioner shahar Kitakyusyu (SHimoliy Kyusyu) atrofida joylashgan. Bu sanoat uzeldagi qora metallurgiya va ko'p metall ishlatadigan og'ir mashinasozlik etakchi o'rin tutadi.

Janubiy Kyusyu va Sikoku orollari SHimoliy Xonsyu bilan Xokkaydo kabi kam rivojlangan hududlardir. Ularda qishloq xo'jaligi ustun turadi, sanoat korxonalari ayrim shaharlardagina bor. Ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra, Xokkaydo orolida mahalliy ko'mir va ruda resurslari hamda chetdan keltiriladigan xom ashyo asosida yangi sanoat rayoni barpo etiladi. Xokkadote(Xokkaydo oroli) va Nagasaki (Kyusyu oroli) mamlakatning eng yirik baliq sanoati markazlaridir.

10.7.Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi

Munosabatlar uzoq yillik tarixiy ildizlarga ega. Ular eng asosiy karvon yo'li Markaziy Osiyo davlatlari orqali uzoq Sharqdan Evropaga o'tgan "Buyuk ipak yo'li" davriga borib taqaladi.

Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan jahonda ikkinchi o'rinda turadigan mamlakatdir. Jahon yalpi milliy mahsulotining 14%i uning hissasiga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 80-yillar o'rtalaridan boshlab bu mamlakat jahonda qarz beradigan eng yirik davlatga aylandi.

Islom Karimovning 1994 yil may oyida Yaponiyaga tashrifi amaliy hamkorlik aloqalari taraqqiyotiga yangi turtki bo'ldi.

O'tgan bir yil ichida mamlakatlarimiz o'rtasida tovar ayriboshlash hajmi sezilarli darajada o'sib, qiymati qariyb 29 million AQSH dollarini tashkil etdi. SHunisi diqqatga sazovorki O'zbekiston Yaponiyaga eksport qilayotgan mahsulotlar hajmi 1994 yildagiga qaraganda 2 barobar o'sdi.

Ayni paytda ikki mamlakat mutaxassislari savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi, shuningdek, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risidagi bitimlarning loyihalarini tayyorlamoqdalar.

Bu hujjatlar O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi uchun keng istiqbollar ochadi.

Respublikamiz mustaqil bo'lgach, O'zbekistonga Yaponiya hukumati va ishbilarmon doiralari vakillaridan iborat ko'plab delegatsiyalar tashrif buyurdi. Ularning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi sarmoyaviy iqlim va yurtimizning iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishishdan iborat edi.

O'zbekiston – Yaponiya iqtisodiy hamkorlik qo'mitasi va Yaponiya – O'zbekiston iqtisodiy qo'mitasi o'zaro hamkorlik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Yaponiya – O'zbekiston iqtisodiy qo'mitasiga “Mitsui va Ko LTD” kompaniyasi prezidenti janob N. Kumagai rahbarlik qilmoqda. Ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar taraqqiyotini muvofiqlashtirishga u katta ahamiyat berayotir.

Yaponiya hukumati mamlakat eksport-banki orqali Ko'kdumalok neft-gaz kondensati konini o'zlashtirish uchun 10,5 milliard ien (qariyb 85 million dollar) hajmda mablag' ajratishga qaror qildi. Bu loyiha Yaponiyaning “M. YU. Kellog” firmasi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari Yaponiya bilan Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi qurilishi va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlash borasida hamkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda.

O'zaro hamkorlik sohasida Yaponiyaning “Taraqqiyotiga rasmiy yordam” (TRYO) dasturi muhim o'rin tutadi. Ana shu dastur asosida Yaponiya va O'zbekiston mutaxassislari Orol hududidagi shaharlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash va Sharqiy Bukantov (qizilqum) volfram konini qazish loyihalari uchun texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlash ustida ishlamoqdalar. Ayni paytda Yaponiya hukumati tomonidan telealoqa tarmoqlarini ta'mirlash loyihasini amalga oshirish uchun 12,7 milliard ien (140 million dollardan ziyod) hajmda imtiyozli kredit ajratish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari Toshkentda vagonlarni ta'mirlaydigan zavod kurilishi uchun imtiyozli kredit ajratish uchun tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Yaponiya O'zbekistonga beg'araz yordam sifatida Toshkent tibbiyot-pediatric instituti va Toshkent ilmiy-tadqiqot pediatric instituti klinikalarini tibbiy uskunalar bilan jihozlash maqsadlari uchun 650 million ien, shuningdek, xorijdan keltirilayotgan mahsulotlarni sotib olish uchun 900 million ien miqdorda mablag' ajratdi.

1994 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi bilan mamlakatimizdagi Yaponiya elchixonasi o'rtasidagi Alisher Navoiy nomidagi teatrni zarur uskunalar bilan jihozlash uchun 500 ming AQSH dollari miqdorida beg'araz yordam ajratish xususida almashuv hujjatlarini imzolash marosimi bo'lub o'tdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga ham katta e'tibor berilmoqda. O'tgan muddat ichida Respublikamizning 40 nafardan ziyod vakili Yaponiyada malaka oshirib va yapon mutaxassislarning eng so'nggi yutuqlari bilan tanishib qaytdi.

“Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturidan tashqari Yaponiya hukumati O'zbekistonga 5 million AQSH dollari miqdorida insonparvarlik yordami ko'rsatishga qaror qildi.

Yaponiyaning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda to'qimachilik, tog'-kon sanoati va boshqa sohalar bo'yicha qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda dunyoning yirik firmalariga aylangan “Mitsui va Ko LTD”, “Mitsubishi korporeyshn”, “Marubeni korporeyshn”, “Summimoto korporeyshn”,

“Tomen korporeyshn”, “Toyota tsui korporeyshn”, “CHori” va “Ay-ti es japan LTD” kabi kompaniyalarning doimiy vakolatxonalari faoliyat ko’rsatmoqda. O’zbekiston tashqi aloqalar vazirligi bilan “Mitsui va ko ltd”, “Mitsubisi Korporeyshn”, “Marubeni Korporeyshn”, “Nisse Ivai Korporeyshn” va “Summimoto Korporeyshn” kompaniyalari o’rtasida o’zaro hamkorlik to’g’risidagi shartnomalar imzolangan. O’zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki jahonga mashxur “Bank of Tokio” va “Sakura Bank” bilan samarali hamkorlik qilmoqda. O’zbekistonning talay shaharlarida “Soni” “Xitachi”, “Panosonik” va boshqa yapon firmalarini savdo do’konlari ochilgan.

“Mitsubisi Korporeyshn” kompaniyasi direktorlari kengashining raisi S.Moroxasining, Tashqi iqtisodiy hamkorlik jamg’armasi (hukumat agentligi) Prezidenti A. Nishigakining “Mitsui va ko Ltd” kompaniyasi prezidenti Naoxiko Kumagai boshchiligidagi Yaponiya-O’zbekiston iqtisodiy hamkorlik qo’mitasi delegatsiyasining O’zbekistonga bo’lajak tashriflari Yaponiyaning O’zbekiston bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o’rnatishga intilayotganidan dalolat beradi.

Yaponiya ham, O’zbekiston ham Sharq mamlakatlaridir: O’zbekistonning Yaponiya va boshqa Osiyo mamlakatlari qatoridan munosib o’rin olishiga shubha yuk. Sharq daraxtining bir shoxi bo’lgan O’zbekiston tanasida yangi, jo’shqin, kelajakka ishonch uyg’otuvchi hayotbaxsh sharbat oqmoqda.

Qisqacha xulosalar

Yaponiya jahondagi eng rivojlangan davlatlardan biri bo’lib, juda ko’p orollarda joylashgan. Eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu.

Yaponiyaning geografik joylashishi juda qulay, ammo tabiiy resurslarga juda kambag’al. Xom ashyoning asosiy qismini, ayniqsa, neft, gaz va temir rudalarini chetdan olib keladi.

Yaponiya maorif va fanni rivojlantirish tufayli iqtisodini yuksak darajaga ko’tardi. Yaponiya juda ko’p sohlar, ayniqsa, avtomobilsozlik, kemasozlik, elektronika sanoati bo’yicha jahonda etakchi hisoblanadi.

Yaponiya – bir millatli davlat. Aholisining 98% ini yaponlar tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yaponiyaning geografik o’rniga baho bering.
2. Tabiiy sharoitini ta’riflang.
3. Qanday tabiiy resurslarga boy?
4. Davlat tizimi qanday?
5. Aholisining o’sish va joylashish xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Mehnat resurslari hamda ulardan foydalanish muammolari.
7. Yaponiya jahonda qanday o’rin tutadi?
8. Sanoatining etakchi tarmoqlari, географияси qanday?
9. Asosiy qishloq xo’jaligi tarmoqlari географияси?
10. Transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari qanday?
11. Tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini tushuntirib bering.
12. Yaponiyaning ichki tafovutlarini ajratib ko’rsating.

13. Yaponiya-O'zbekiston iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Асиров N.V.,Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира.М.: МАУР, 2003
- 4.Sotsialno-Экономическая география зарубежного мира pod.red.V.V.Volskogo.-М.: «DROFA» 2003.

XI mavzu. GERMANIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

11.1. Iqtisodiy-geografik o'rni va jahonda tutgan o'rni

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR), poytaxti – Berlin shahri.

Aholisi – 82,0 mln. nafar, maydoni – 356 ming kv.km.

Germaniya Evropaning markazida joylashgan, uni Sharq tomondan Polsha va CHexiya, janubdan SHveytsariya va Avstriya, janubiy- g'arbdan Frantsiya, g'arbdan Belgiya va Gollandiya, shimolda esa Daniya davlatlari, SHimoliy-Sharqda Boltiq dengizi va shimoliy-g'arbdan SHimoliy dengiz o'rab turadi.

Germaniya – NATO, g'arbiy Evropa ittifoqi va umumiy bozorning a'zosi. NATOning Markaziy Evropa quruqligidagi birlashgan qurolli kuchlarining 45%ini Germaniya qo'shinlari tashkil qiladi. Germaniya va Polsha Boltiq dengizidagi portlardan va kema qatnaydigan Ozder daryosidan birgalikda foydalanadi. Germaniya uchun bevosita SHimoliy dengizga chiqish alohida rol o'ynaydi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlangan hududlaridan oqib o'tuvchi Reyn daryosi va uning Rur hamda boshqa irmoqlari juda ko'p yuklarni dengizga va dengizdan mamlakat ichkarisiga tashishga imkon yaratadi. Germaniyaning siyosiy-geografik mavqei o'tgan asrning 60-yilari oxirigacha ko'p jihatdan hukmron doiralar mamlakatlariga bog'liq edi. Muayyan kuchlar bu siyosatni hozir ham qo'llab-quvvatlashmoqda. SHu sababli Germaniyaning Sharqiy qo'shnilari Polsha, CHexiya va Rossiya bilan iqtisodiy va boshqa aloqalari uncha katta bo'lmadi.

Germaniya hukumati keyingi davrda birmuncha realistik tashqi siyosat yuritmoqda, Rossiya, Polsha, CHexiya bilan tuzgan shartnomalarida mavjud chegaralar buzilmas chegara ekani qayd qilindi. Bu shartnomalar Evropada ahvol keskinlashuviga sabab bo'ladi. Biroq, Germaniyaning realistik kuchlari bunga qarshi chiqmoqdalar. Germaniyada AQSHning raketa va yadro qurollari joylashgan. Germaniya aholisi soni jihatdan g'arbiy Evropada eng yirik davlat. Ikkinchi jahon urushi vaqtida ancha talofat ko'rganligiga va tabiiy o'sishi pastligiga qaramasdan, g'arbiy Germaniya aholisi soni tezda urushdan avvaligidan oshib ketdi. Sharqiy Evropa mamlakatlaridan bu erga 7,5 million kishi ko'chib keldi. Katta vayronalik va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, hamma ko'chib kelganlar uy-joy va ish bilan ta'minlandi, dehqonlarga er berildi. Urushda Germaniya ayniqsa, Sharqiy Germaniya juda ko'p odam yo'qotganligi, urush oqibatlari Germaniya aholisi tarkibi va ko'payish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

11.2. Germaniyaning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

Germaniyaning katta qismida tabiiy sharoit qishloq xo'jaligi uchun qulay. Mamlakat hududining 33 foiziga yaqini SHimoliy Germaniya pastligida, deyarli yarmi er yuzasi tekis bo'lgan o'rta Germaniya past tog'laridadir. Tuproqlari asosan o'rtacha unumdor. Ammo ishlanadigan erlarining tuproqlari doim o'g'itlanganidan tabiiy tuproqlarga qaraganda ancha unumli.

Sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan mamlakatdagi foydali qazilmalar bilan bevosita bog'liq. Boltiq qolqoni bilan bog'liq rudali foydali qazimalar, gertsin burmalanishi bilan bog'liq yoqilg'ili

foydali qazilmalar bor. Germaniya toshko'mir qazib chiqarishda Evropada oldingi o'rinlarda, ko'mir zahiralari bo'yicha jahonda 5chi, ko'mir ishlab chiqarish va undan foydalanish bo'yicha esa 4-o'rinda.

11.3.Aholisining joylashuvi, mehnatda bandligi

Germaniya aholisining joylashuvi, mehnatda bandlik strukturasi va sinfiy tarkibi jihatdan Evropada, hatto, dunyoda oldingi o'rinlardan birinchi egallaydi.

Rur ko'mir havzasida esa aholi zichligi 1 km² ga 1000-3000 nafar to'g'ri keladi. Urbanizatsiya jihatidan Germaniya dunyoda birinchi o'rinda. Mamlakat aholisining 90 %ga yaqini shaharlarda yashaydi. Aholisi o'rtacha zichligi yuqoriligi hamda iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan janubiy okruglarda mineral xomashyolari ancha zichligi uchun rivojlanishdan birmuncha orqada. SHimoliy okruglarda esa aholi siyrakroq joylashgan. Aholining tabiiy o'sishi katta emas, o'rtacha zichligi 1 km²ga 300 nafarni tashkil qiladi. Germaniyaning asosiy yirik shaharlari Berlin (3,6 mln.),Gamburg (1,7 mln.),Myunxen (1,3 mln.),Kyoln (1,1mln.), Frankfurt Mayn (0,7mln.) hisoblanadi.

Yirik shaharlarida aholining juda yirik qismi 46% yashaydi. Germaniyada mehnatda band aholining tarkibi quyidagicha: iqtisodiy faol aholining yarmi yoki qishloq xo'jaligidagiga qaraganda o'n hissa ko'p qismi sanoatda, hunarmandchilik va qurilishda banddir.

11.4.Xo'jaligining umumiy ta'rifi

Germaniya Respublikasi yuqori darajada rivojlangan industrial davlat. Sanoat ishlab chiqarish darajasi jihatdan Germaniya AQSH dan ancha orqada, ammo Yaponiya bilan deyarli bir qatorda, boshqa rivojlangan mamlakatlardan oldinda turadi. Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya ishlab chiqargan mahsulotlarning umumiy miqdoridan ko'p mahsulot ishlab chiqaradi.

Sanoat – Germaniya iqtisodiyoti qudratining asosi. Sanoatda eng yirik monopoliyalar xal qiluvchi rol o'ynaydi. Urushdan keyin Germaniya sanoati yuqori sur'at bilan rivojlanishi natijasida jahon xo'jaligida tez orada juda muhim mavqeni egallab oldi.

Germaniyaning jahonda tutgan o'рни

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori	Egallagan o'рни
YAMM	Mlrd.dollr.	2252.33	3
YAMM aholi jon boshiga	Ming dollar	27,5	6
Elektr energiya	Mlrd. kvtg's	483,3	6
Ko'mir	Mln. tonna	261,5	5
Mis	Mln. tonna	0,59	4
Plastmassa	Mln. tonna	16,5	3
Saryog'	Mln. tonna	0,45	4
Pishloq	Mln. tonna	1,37	3
Pivo	Mln. Gkl	113,4	3
Po'lat	Mln. tonna	42,0	5

Germaniya iqtisodiyotida sanoat etakchi rol o'ynaydi. Sanoat mahsuloti qiymati jihatidan qishloq xo'jaligi mahsulotidan 6 barobar ortiq. SHu bilan birga Germaniya qishloq xo'jaligi yuqori darajada intensivligi bilan ajralib turadi va bu jihatdan Evropada oldingi o'rinlardan birini egallaydi. qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish jihatidan, u eng yuqori darajadadir. Germaniya eng murakkab mahsulotlar – mashinasozlik va sertarmoq kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar import qilinadigan mashinalarning 33 % ga yaqin qismini Germaniya respublikasidan oladi. qishloq xo'jaligi o'z mahsulotlarining qiymati jihatidan sanoatdan 15 marta past ko'rsatkichga ega.

qishloq xo'jaligi tobora sanoat bilan birlashib ketmoqda, umuman olganda, u yuqori darajada rivojlangan, ammo “umumiy bozor”da o'zining ba'zi bir raqiblaridan orqada qolmoqda va zarar ko'rmoqda. Germaniya tashqi savdo oboroti va oltin zahirasi jihatidan faqat AQSH dan keyin, ya'ni ikkinchi o'rinda turadi. Germaniya monopoliyalari kapitalistik integratsiyadan, masalan, “umumiy bozor”ga qatnashishidan ham foyda oladilar. Monopoliyalar FTI yutuqlaridan keng foydalanadilar. SHuning uchun Germaniya sanoati strukturasi eng yaxshi tarmoqlar ko'payib bormoqda. Asosan janubiy Evropa mamlakatlaridan kelib turadigan 2-3 million kishi ancha arzon ishchi kuchi zahirasini tashkil etadi. Biroq Germaniya iqtisodiyotining tez rivojlanishiga qulaylik tug'dirgan bir qancha omillar hozir butunlay yo'qoldi. Sanoatning ba'zi tarmoqlari (ayniqsa, tosh-ko'mir sanoati) krizisni boshidan kechirmoqda, boshqalari (qora metallurgiya, engil sanoat) o'sishdan to'xtab qoldi.

11.5.Sanoati va uning joylashishi

Germaniyaning tabiiy resurslari (birinchi galda toshko'mir, kaliy to'zi va tosh tuz konlari, ozroq temir rudasi zahiralari), og'ir sanoat negizi bo'lgan energetika, kimyo, metallurgiya sanoati ba'zasida esa mashinasozlikning rivojlanishiga imkon beradi. Germaniya energetikasi o'tgan asrning 60-yillar o'rtasida asosan toshko'mirga tayanib kelgan. qo'ng'ir ko'mir boshqa hech bir mamlakatga Germaniyadagi kabi katta rol o'ynamaydi. qora metallurgiya uchun zarur bo'lgan temir rudasining 90 foizi qismi marganets va kremniy chetdan keltiriladi. Rangli metallurgiya zavodlarida mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy eritiladi. Germaniya sanoatida ishlovchilar soni, mahsulotning qiymati va eksportga hissassi jihatdan mashinasozlik birinchi o'rinda turadi.

g'Germaniya mashinasozlik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Germaniya chet mamlakatlar orasida mashinalar ishlab chiqarish jihatdan faqat AQSH dan keyingi o'rinda, eksport qilishda esa dunyoda birinchi o'rinda turadi.

11.6.Transporti

Germaniyada zich aloqa yo'llari mavjud. Germaniya temir yo'llarida yuk tashish hajmi jihatidan Frantsiyadan keynn turadi, biroq Buyuk Britaniyadan uch barobar, Italiyadan to'rt barobar oldinda. Avtomobil transporti hozir yuk va yo'lovchilarni temir yo'lga qaraganda ko'proq tashimoqda. Daryo transporti xorijiy Evropada Gollandiyadan boshqa birorta mamlakatda Germaniyadek katta ahamiyat kasb etmaydi. Mamlakat ichkarisidagi yukning 20 foizi daryo va kanallar tizimi orqali tashiladi. qururlikdagi yo'llar kesishgan joylarda eng muhim transport tugunlari Gamburg, Myunxen, Leyptsig va boshqa shaharlarda qad ko'targan. Germaniyaning tashqi aloqalarida ikkinchi jahon urushidan keyin yangidan qurilgan dengiz floti katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari jahonga dong'i ketgan bir qancha avtomobil markalari ishlab chiqarilmoqda. Masalan: **vmw, mercedes-vens, orel, vw, audi** shular jumlasidandir.

11.7.Tashqi iqtisodiy aloqalar

Germaniya jahonning juda ko'p mamalakatlari bilan savdo qiladi. Uch yirik rivojlangan davlat bilan mollarni sotishda bozor hamda xom ashyo bo'yicha rivojlangan va ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qattiq raqobat kurashi olib borada. Germaniya monopoliyalari bu mamlakatlarga yirik kapital qo'ygan. Eng katta tashqi savdo oboroti "umumiy bozor"ga a'zo mamlakatlarga, so'ngra AQSH va Kanadaga to'g'ri keladi. Uning rivojlanayotgan davlatlar bilan olib borayotgan xilma-xil tashqi iqtisodiy aloqalari tobora kuchayib bormoqda.SHu jumladan, respublikamiz bilan bir qancha shartnomalar tuzilib, iqtisodiy aloqalar olib borilmoqda.

Qisqacha xulosalar

Germaniya Federativ Respublikasi jahondagi iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi, Evropaning markazida joylashgan.

Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari va geografik joylashishi iqtisodiy rivojlanish uchun juda qulay. Erlari unumdor, foydali qazilmalari serob.

Sanoatning hamma tarmoqlari, ayniqsa, eng yangi tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Sanoatning rivojlanish darajasi jihatidan AQSHdan so'ng, Yaponiya bilan bir qatorda turadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. GFR qachon tashkil topgan, jahon xo'jaligida qanday o'rin tutadi?
2. Tabiiy sharoiti va resurslarining xo'jaligi rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
3. Aholisi tabiiy va mexanik o'sishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Aholi va mehnat resurslari
5. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
6. qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlanganligining sabablari nimada?
7. Ichki tafovutlari tasnifi.
8. Transporti.
9. Tashqi iqtisodiy aloqalari.
10. O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy география, Т.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», Т.: 2004.
2. Асилов N.V.,Хорев В.В. Экономическая география зарубежных стран. М. 2003.
3. Doroshevskiy M.V., G.V. Muslivets. Экономическая и социальная география мира.М.: МАУР, 2003
- 4.Sotsialno-Экономическая география зарубежного мира pod.red.V.V.Volskogo.-М.: «DROFA» 2003
5. YUrkovskiy V.M. Ves mir v tsifrax i faktax. – К.: Mara, 2002g.

XII mavzu. ROSSIYANING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI

Geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari

SSSRning tugatilishi, Rossiya Federatsiyasi uchun juda katta siyosiy hukmronlikni yo'qotish bo'ldi va uning xo'jaligida o'zaro aloqalarning keskin pasayishiga olib keldi. Rossiya SHimoli - Sharq tomonga, ya'ni Evroosiyo materigining ancha ichki qismlariga surib tashlandi. Jahonda to'rtta okeandan uchasi - Atlantika, SHimoliy muz va Tinch okeanlari o'rab turishiga karamasdan, Rossiya iqtisodiy rivojlanish jihatidan quruqlik mamlakati bo'lib qolavergan edi. SHimoliy muz okeani suvlari o'ziga xos sovuq tabiiy iqlimga ega bo'lganligi unda savdo kemalarining doimiy ravishda qatnovini qiyinlashtiradi. Rossiya Federatsiyasining Sibir va Uzoq Sharq hududlarida esa transport infratuzilmasi rivojlanmagan, Tinch okeani qirg'oqlaridan unumli foydalanish imkoniyatini bermas edi. Boltiq va qora dengiz portlariga chiqish yo'li qisqarishi, shuningdek, yopiq Kaspiy dengizi Rossiya uchun ancha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Rossiya aynan shu sababli 50%dan ortiqroq dengiz portlaridan, ayniqsa, muzlamaydigan portlaridan ajralishi, uning iqtisodiyotini ancha qiyin ahvoga solib qo'ygandi. Ayniqsa, g'arbiy va Janubiy yuksalishidagi temir va avtomagistral yo'llari, shuningdek, quvur va havo transporti asosan chet el davlatlari hududlari bo'ylab o'tishi (hozirgi Belorussiya va shuningdek, Boltiq bo'yi davlatlari) mamlakatning iqtisodiy ahvoli keskin pasayishiga sabab bo'lmoqda.(shubhasiz bu sohada 1996 yilning may oyida Rossiya va Belorussiya davlatlarining hukumat boshliqlari tomonidan chegaradagi bojxona to'siqlarini olib tashlash to'g'risidagi o'zaro shartnomani imzolanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi).

Rossiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni

XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahon xo'jaligi strukturasi va sub'ektlari tahlili asosida Rossiya Federatsiyasining jahon xo'jaligida tutgan o'rnini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

Ko'rsatkichlar	Miqdor, (%,dollar)	Jahonda tutgan o'rni
Dunyo bo'yicha YAIM dagi hisyasi	2,5% (725 mlrd.dollr)	10
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hisyasi	4% (310 mlrd.dollar)	5
Yillik YAIM bo'yicha, aholi jon boshiga	4850 dollar	59
Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari	2050 dollar	53

Hozirgi kunda xo'jaligi intensiv rivojlanib borayotganligini, «kuchlarni qayta guruhlariga bo'lishi»ni hisobga olib, jahon iqtisodiyotida a'naviy bo'lib kelgan markazlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zgarib borayotganligi, yangi mamlakatlar va mintaqaviy guruhlar «qorong'ilikdan» ozodlik sari ajralib chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday davlatlar nihoyatda muhim.

Rossiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini aniqlashimiz mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatlarni, ularning, shuningdek, Rossiya va jahon iqtisodiyotining axvoli iqtisodiy xavfsizlik tomonlariga ham e'tiborni qaratishimiz zarur.

Ma'lumki, 1995 yil boshlarida Rossiya Federatsiyasi xavfsizlik komiteti tomonidan qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasining xavfsizlik strategiyasining asosiy nizomi to'g'risida"gi qonunda uning tashqi iqtisodiy strategiyasi asosiy yo'nalishlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va tashqi bozorlarida iqtisodiy potentsialini saqlash, iqtisodiy-ijtimoiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha chet mamlakatlarga yoki ularning uyushmalariga qaram bo'lib qolmaslik, texnik-iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashdir, deb ko'rsatib o'tilgan edi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Rossiyaning jahon iqtisodiyotidagi ahvoli mutlaqo qarama-qarshiliklardan iborat. Rossiya mavjud bo'lgan xalqaro sotsialistik xo'jalik tizimi tugatilgandan so'ng (o'tgan asrning 90-yillari boshida) o'zaro Iqtisodiy yordam Kengashi (SEV) davlatlari va ayniqsa, ittifoq hukumatining jahon xo'jaligi hayotida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Hozirgi sharoitda u politsentrik mazmunga ega bo'lib, xo'jalikning ko'pgina sohalarida AQSHning xukumronligi saqlanib qolishiga qaramasdan, bozor tizimi (turli mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanish darajasi va xususiyatini hisobga olgan holda) bir tomondan, «boy shimol» guruhiga kiruvchi etakchi sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga, ikkinchi tomondan esa, «kambag'al janub» guruhiga kiruvchi, endigina rivojlanib borayotgan davlatlar guruhiga o'xshab ketadi. Ayni paytda Rossiya ana shunday oraliqda turibdi.

Tabiiy sharoiti va resurslari

Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy va geografik jihati shundaki, hududining 63% chekka SHimol rayonlari va iqlimi sovuq bo'lgan og'ir sharoitli zonalarga to'g'ri keladi. SHuning uchun ham Rossiya qishloq xo'jaligining faqat 35%ida g'alla va boshqa madaniy ekinlaridan hosil olinadi, holos. Rossiyaning shimoliy tekisliklarida aholi yashashi uchun juda katta energetika xarajati talab qilinadi. Rossiya juda boy tabiiy resurslarga ega bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda nodir qimmatbaho rangli er osti metallari, ko'plab madaniy texnik ekinlar xom ashyosi va tayyor mahsulotlari bilan, iste'mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan etarli ravishda ta'minlanmaydi.

Xo'jaligi

Ma'lumki, Rossiya Federatsiyasi sobiq SSSRning 60%ga yaqin iqtisodiy potentsialiga merosxo'r bo'lib qolgan edi.

1995-2003 yillar o'rtasida Rossiya Federatsiyasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatgichlari dinamikasi

(O'tgan yilga nisbatan % hisobida)

	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
--	------	------	------	------	------	------	------	------	------

YAlpi ichki mahsulot	95,9	96,4	101,4	94,7	106,4	110,0	105,1	104,7	107,1
Sanoat mahsulotlari	97	96	102	95	111	112	105	104	107,0
qishloq xo'jaligi mahsulotlari	92	95	102	87	104	108	108	102	102
Investitsiyalar asosiy kapitalga	90	82	95	88	105	117	110	103	112,5
YUk toshish	88	77	86	87	104	106	102	98	102
Savdo mahsulot oboroti	93	100,4	105	97	94	109	111	109	107,9
MDX mamlakatlariga eksport	103	109	105	82	78	129	106	107	130,3
Boshqa mamlakatlarga eksport	129	109	99	84	108	144	96	106	124,4
MDX mamlakatlaridan import	133	106	98	79	74	139	97	91	134,1
Boshqa mamlakatlarda import	117	95	123	83	68	102	138	117	121,6

Keyingi yillarda mamlakat iqtisodiyoti muhim qismlarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashinalar, stanoklarni) moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlanmaganligi, zamonaviy asbob-uskunalar bilan etarli jihozlanganligi oqibatida tushkunlikka tushib bormoqda. 1994 yildayoq asosiy fondlarning 63 foizi 21 yil yoki undan ortiqroq xizmat qilinganligi sababli amalda ishga yaroqsiz bo'lib qolganligi tufayli tezda qayta jihozlashni talab qilardi. SHuning uchun ham Rossiya sanoati va transportining ko'pgina sohalarida turli ko'rinishdagi texnologik halokatlar kelib chiqaboshladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari

Rossiya Federatsiyasi taxminan SSSR tashqi iqtisodiy aloqalarining taxminan 70 foizi merosxo'ri bo'lib qolgandi. Lekin, shuni qayd qilmoq kerakki, Rossiya Federatsiyasi SSSR tarkibida bo'lgan 1986-1991 yillardayoq uning tashqi savdo oboroti deyarli ikki barobarga qisqargan, bunday tendentsiya keyingi yillarda ham saqlanib qolgan edi. Uzoq xorij mamalkatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqa 1993 yildagina nisbatan o'zgardi. CHunonchi, bu jarayondagi ko'rsatkich 1993 yili 71,1, 1994 yili 76,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Mamlakatning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida hamon xom ashyo asosiy o'rinni egallab qolmoqda. Bu sohada, o'zi qiymati bilan ayniqsa, yoqilg'i-energetika tovarlarning ahamiyati ortmoqda.

Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlari bilan olib borayotgan umumiy eksport tovarlar hajmi 1994 yili 46,0% ni tashkil etdi. (bu ko'rsatkich 1992 yili 54,3, 1993 yili esa 45,0 edi.) 1994 yili chetga chiqarilgan qora va rangli metallar, qimmatbaho toshlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar hissasi 29,9%ga etdi (1992 yili 16,3,

1993 yili esa 23,2). Hozirgi kunda Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida stanoklar va transport mahsulotlari hissasi kamayib bormoqda. CHunonchi, bu boradagi ko'rsatkich 1992 yili 9,3, 1993 yili 6,6 va 1994 yili esa 5,1 edi.

Keyingi yillarda Rossiyaning muhim xalqaro mintaqaviy bozorlar va tovarlar bozorlaridagi ishtiroki keskin qisqarmoqda, shuningdek, sobiq UIYOK (SEV) va MDHda, shuningdek, rivojlanayotgan barcha mamlakatlarning bozorlarida ta'sirini tobora yo'qotmoqda. Tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi chet ellik raqobatchilarini o'z ichki bozorlaridan siqib chiqarmoqdalar.

Rossiya qurol-yarog' bozorlaridan ham siqib chiqarilmoqda. O'tgan asrning 80-yillari SSSR bu yo'nalishdagi bozorlarning 38 foizini, AQSH esa 20 foizini egallagan edi. Endilikda buning aksi: AQSH salmog'i ortib bormoqda.

Qirq yil davomida, ya'ni «sovuq urush» davrida olib borilgan harbiy strategiya sohadagi birinchilik uchun olib borilgan AQSH bilan sobiq SSSR o'rtasidagi kurash (bu davrda AQSH iqtisodiyoti mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha sobiq SSSR iqtisodiyotiga nisbatan 2-3 barobar ustun edi) aslida ishlab chiqarishning samarali o'sishiga xalaqit qilgan, iqtisodiyotining barcha tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, aholi iste'mol fondlarining qisqarishiga sabab bo'lgan edi.

Rossiya kuchli ilmiy-texnik potentsialga, juda katta, ammo hali ham foydalanilmayotgan intellektual resurslarga boy. Mamlakat aholisining asosiy qismi ma'lumotli va yuqori madaniy darajali. SHunga qaramasdan, Rossiyaning xo'jalik mexanizmini butunlay bozor iqtisodiyot asosida qayta ko'rish zarurdir. Buning uchun esa bozorga o'tishning muhim omillarini aniqlab olish va yangi sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Rossiyada bozor infratuzilmasining takomillashgan tomonlari – bank tizimi, fond bozorlari, sug'urta institutlari va boshqalar tashkil topmoqda. Ammo Rossiyaning iqtisodiy hayotida, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohalarida nihoyatida murakkab muammolar haligacha hal qilinmayapdi.

Qisqacha xulosalar

Rossiya hududining kengligi jihatidan jahondagi eng katta davlat. U Evropa va Osiyo qit'alarida joylashgan.

Rossiyaning geografik joylashishi ham, tabiiy resurslari ham iqtisodiy rivojlanishi uchun juda qulay. Rossiya juda katta o'rmon boyligiga, ko'plab mineral resurslarga ega. Hozirgi paytda Rossiya Sharqiy Evropani neft bilan ta'minlaydigan asosiy manbadir.

Rossiyada sanoati yuksak darajada rivojlangan. Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, ayniqsa, shimoliy qismlarida noqulay. Kartoshka etishtirish bo'yicha jahonda etakchi hisoblanadi.

Rossiya ko'p millatli davlat, aholisining asosiy qismini ruslar tashkil qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Rossiya jahon xo'jaligida qanday o'rin tutadi?
2. Tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari tushuntirib bering.
3. Rossiya qanday tabiiy boyliklarga?
4. Resurslari mamlakat xo'jaligi rivojlanishiga qay darajada ta'sir etadi?

5. Aholisining tabiiy o'sishidagi salbiy tomonlarini tushuntirib bering.
6. Aholining mexanik o'sishi qanday xususiyatlarga ega?
7. Asosiy sanoat tarmoqlarining joylashuvini ta'riflang.
8. Qishloq xo'jaligi joylanishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
9. Mavjud bo'lgan ekologik muammolarni gapirib bering.
10. Ularning aholi salomatligiga va tabiiy o'sishiga ta'siri.

Asosiy adabiyotlar

1. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
2. Doroshevskiy M.V., G.V. Mislivets. Экономическая и социальная география мира. Учебное пособие – К.: МАУР, 2003
3. Sotsialno-Экономическая география зарубежного мира pod.red.V.V.Volskogo. -M.: «DROFA» 2003
4. Экономическая география России. Pod red. Akad. V.I. Vidyapina, d.e.n., prof. M.V. Stepanova. M.:INFRA-M. Ros. ekon. akademiya, 2004g.
5. Yurkovskiy V.M. Ves mir v tsifrax i faktax. – K.: Mara, 2002g.

III bo'lim. O'ZBEKISTON IQTISODIY ГЕОГРАФИЯСИ

XIII mavzu. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI. MA'MURIY-HUDUDIIY BO'LINISHI

13.1. Geografik o'rni

Hududining geografik joylashishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'p jihatdan ta'sir qiladi.

O'zbekiston Evrosiyo qit'asining qoq markazida, Markaziy Osiyoning markazida o'rnashgan. U shimol va shimoli-g'arbda qozog'iston, Sharq va shimoli-Sharqda qirg'iziston, Sharq va janubi-Sharqda Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaralanadi.

O'zbekistonning kenglik bo'yicha shimoldagi chekka nuqtasi Ustyurt platosi ($45^{\circ} 26'$ shim. kenglik)da, eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida ($37^{\circ} 11'$ shim. kenglikda) joylashgan. Uzoqlik bo'yicha esa chekka nuqtalari $56^{\circ} 00'$ dan $73^{\circ} 10'$ Sharqiy uzoqlikkacha boradi. Ana shu geografik nuqtalar bo'yicha mamlakat hududi g'arbdan Sharqqa 1400 km, shimoldan janubga 925 km masofaga cho'zilgan. Umumiy maydoni 448,9 ming kv. km.

Odatda, alohida olingan hudud yoki mamlakatlar iqtisodiy geografik o'rnini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish orqali ularning bugungi rivojlanish holatiga baho berish va kelajagi haqida fikr yuritish mumkin. SHu jihatdan O'zbekiston hududining kattaligi va yaxlitligi, qardosh (ya'ni qadim Turon zaminidagi) davlatlarga nisbatan markazda ekanligi va mintaqaviy cho'zilganligi, er usti tuzilishining bir-biriga muvofiq holatda o'rin almashinishi (tekislikning adir, yassi tog'lik va baland tog'liklar bilan almashinishi) hududda ijtimoiy taraqqiyot uchun kattagina imkoniyatlar yaratib bergan.

O'zbekiston hududining o'rnini iqtisodiy-geografik jihatdan uch pog'onaga: mikro, mezo va makro darajaga bo'lish mumkin.

O'zbekiston hududining mikrodarajadagi holati, uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekiston qadim Turon zaminida hamisha salohiyati katta davlat bo'lgan. Bu, ko'p jihatdan uning geografik markazligidan kelib chiqqan. Yaqin o'tmish (ya'ni sho'rolar hukmronligi yillari)da ham O'rta Osiyodagi respublikalar bir-birlari bilan ijtimoiy taraqqiyotning ko'p sohalarida bog'langanlar. Birgina transport kommunikatsiyasini olaylik. Turkmaniston faqat O'zbekiston orqali Tojikiston, qirg'iziston, qozog'iston bilan aloqa qilgan. Ayni paytda bu respublikalarning har biri ham Turkmaniston bilan faqat O'zbekiston orqali aloqa qilgan. O'z navbatida, MODda bunyod qilingan temir yo'llar, avtomagistrlar, quvurlar ham bir-birlarini bog'lagan. Mustaqil davlatchilik qaror topgan hozirgi davrda ushbu aloqalar tarixiy omillar (ya'ni, qadimiy «Buyuk ipak yo'li» an'alariga muvofiq) asosida rivojlantirilishi O'zbekistonning mikrogeografik imkoniyatlari istiqbolini ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning mezogeografik o'rnini uning birmuncha kengroq miqyosdagi mavqei bilan belgilanadi. Bugungi O'zbekiston jahonga yo'l ochmoqda, jahon hamjamiyatiga dadil kirib bormoqda. Uning bu qutlug' qadamida MODdan tashqari Kavkaz orti davlatlarining, Turkiyaning, Eronning, Afg'onistonning ulushi

bor. Afg'oniston orqali Pokiston (va so'ngra Hind okeani)ga, Eron va Turkiya orqali Evropaga chiqish ufqlari ochilmoqda. Bu, yaqin qo'shnilarimiz bilan qadimiy aloqalarni qayta tiklashga va shu asosda mamlakatimiz mavqeini yana ham ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning makrogeografik o'rnini jahondagi davlatlar bilan olib borilayotgan aloqalarda belgilanadi. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p qirrali aloqalari tarixiy haqiqat bo'lib, uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi salohiyati juda katta. O'zbekiston ushbu makrodarajadagi aloqalarini MDHning aksariyat davlatlari bilan rivojlantirmoqda. O'zbekistonning hozirgi tashqi iqtisodiy aloqasining 15,5 foizi Rossiyaga to'g'ri kelyapti. Evrosiyoning buyuk davlati Rossiya Federatsiyasi bilan muntazam aloqada bo'lish O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston o'z geografik o'rniga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari transport kommunikatsiyasida belgilovchidir. Bir so'z bilan ta'kidlaganda, MODning asosiy ishlab chiqarish-iqtisodiy va madaniy aloqalari faqat O'zbekiston orqali kechadi. Bu borada mamlakatning shimoliy va janubiy hududlarida «Navoiy — Uchquduq — Sulton Uvays — Nukus» va «g'uzor — Boysun — qumqo'rg'on» temir yo'llarining qurilishi tarixiy voqea bo'lib, ular birinchidan, mamlakat yagona temir yo'l tizimini yaratib beradi, ikkinchidan, mazkur regionlarda ishdab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi va, uchinchidan, O'zbekistonning qo'shni va uzoq xorijiy davlatlar bilan har jihatdan aloqalari kuchayishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

13.2. Tashkil topishi va ma'muriy hududiy bo'linishi

Ko'hna tarixga ega bo'lgan O'zbekiston uzoq va yaqin o'tmishda bir necha marta qayta tashkil qilindi, turli nomlar bilan ataldi. Kadimda u Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan dunyoga ma'lum va mashhur edi. Ayniqsa, buyuk sohibqiron Amir Temur zamonasida O'zbekistonning, uning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarining nomi «etti iqlim»ga ketgan edi.

1867 yilning o'rtalarida Turkiston general-gubernatorligi o'rnatildi, Toshkent shahrida Turkiston harbiy okrugi tuzildi, Oktyabr to'ntarishidan keyin u ruslar tomonidan ikkinchi marta bosib olindi. SHu yillar ichida uning ko'hna tarixi oyoq osti qilindi, qadim urf-odatlariga qarshi kurash boshlandi.

Qadimdan bir mintaqada yashab kelayotgan turkiy xalqlar aholisining turmush tarzi, kelib chiqishi, an'analari, xo'jaligi, madaniyati, mushtarak maqsadlari bir bo'lishiga qaramasdan Oktyabr to'ntarishidan keyin u 1920 yillarning o'rtalarida beshga bo'lib yubo-rildi.

Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RK (b)P O'rta Osiyo byurosi tomonidan 1924 yilda katiy ishlab chiqilgan edi. Unga qarshi barcha urinishlar behuda ketardi. 1924 yil 10 mart kuni birlashgan kengashda mahalliy millat vakillari O'rta Osiyo Federatsiyasini tuzish, Turkistonning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlagan edilar. Xorazm raxbarlari ham alohida fikr bildirib, Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslik masalasini qo'ygan edilar. Biroq, ushbu istaklar ushalmagan orzuligicha qolib ketdi.

Markazning ko'rsatmasi bilan 1929 yilgacha O'zbekiston tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Respublikasi sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikaga aylantirildi.

1918 yil 30 aprelda sho'rolar 5-O'lka s'ezdida tasdiqlangan «Rossiya Federatsiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to'g'risida Nizom»da Turkiston Respublikasining davlat tuzimi, uning hududiy chegaralari belgilab berilgan edi. 1924 yilga kelib Turkiston ASSR 6 viloyat (Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy, Ettisuv, Amudaryo)ga hamda 30 uezd va 473 volostga bo'lib tashlangan edi.

1920 yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublikaning hududi 28 tumanga bo'lindi. 1924 yilda esa uch viloyat (qozoq-qoraqalpoq, YAngi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo'lindi.

1920 yilning 8 oktyabrida Buxoro amirligi negzida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublika hududi 15 viloyat, 58 tumanga bo'lindi.

1924 yilda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi natijasida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (**O'zSSR**) tuzildi. 1925 yilning 29 yanvaridan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Poytaxti Samarqand shahri bo'lgan **O'zSSR** 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, qashqadaryo, Xorazm)ga va 22 uezd hamda 241 volostga bo'lindi. 1926 yilda mamlakatni ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1927 yilning boshida mamlakat tarkibida 10 ta okrug, 87 tuman, 1746 qishloq kengashi tashkil qilingan edi. 1930 yil 17 avgustda mamlakatni okruglarga bo'lish bekor qilindi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, 1932 yil 27 iyunda Xorazm okrugi, 1935 yil fevralda esa qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi.

1938 yil 14 fevralidan boshlab mamlakatimiz hududidaga hozirgi viloyatlar qayta shakllana boshladi. O'sha yili Buxoro, Samarqand Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilindi. 1941 yilning 6 martida Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943 yilning 20 yanvarida esa qashqadaryo viloyati qayta tashkil qilindi.

1957—1961 yillarda Markaz region istiqbolini ko'ra olmasligi oqibatida ma'muriy-hududiy birliklar yana qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Jumladan, Namangan viloyatining hududi Farg'ona va Andijon viloyatlariga ko'shib yuborildi. SHuningdek, qashqadaryo viloyati Surxondaryoga birlashtirildi.

Mamlakatimiz hududida yangi erlarni o'zlashtirish jarayoni uning yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishlariga birmuncha asos yaratib berdi. Masalan, qarshi cho'lining o'zlashtirilishi bu erda 1964 yil 7 fevralda qashqadaryo viloyatining qayta tiklanishiga, Mirzacho'lning o'zlashtirilishi 1963 yil 16 fevralda Sirdaryo viloyatining tashkil topishiga, Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlantirilishi 1967 yil 18 dekabrda Namangan viloyatining qayta tiklanishiga, Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi 1973 yil 29 dekabrda Jizzax viloyatining tashkil qilinishiga olib keldi. 1982 yilning 20 aprelda mamlakatda kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish maqsadida Navoiy viloyati tashkil qilindi.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga — bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga

qadam qo'ydi. Mamlakat mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining asriy orzusi ushaldi — O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda respublikadagi ko'p millatli barcha aholining xohish-irodasi mustahkamlab qo'yilgan. Mamlakatning amaldagi (1992) Konstitutsiyasida (68-modda) O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi mustahkamlab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning tarkibida qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, qashqadaryo viloyatlari va boshqa ma'muriy-hududiy bo'linmalar bor.

31-jadval

O'zbekiston viloyatlari haqida ma'lumotlar (2004y.)

Viloyatlar	Aholi soni, mln kishi	Maydoni ming kv. km.	SHahar lar soni	Tuman-lar soni	SHahar chalar soni	qishloq ovullari
qoraqalpog'iston Respublikasi	1,6	166,6	12	15	16	117
Andijon	2,3	4,2	11	14	5	95
Buxoro	1,5	40,3	11	11	2	120
Jizzax	0,9	21,2	7	11	8	97
qashqadaryo	2,2	28,6	12	14	7	145
Navoiy	0,9	110,8	7	8	11	54
Namangan	0,9	7,4	8	11	12	99
Samarqand	2,8	16,8	11	16	7	125
Surxondaryo	1,8	20,1	8	14	75	114
Sirdaryo	0,7	5	5	59	18	76
Toshkent	2,4	15,3	16	15	10	146
Farg'ona	2,6	6,8	9	15	7	164
Xorazm	1,3	6,1	3	10	1	100
Toshkent shahri	2,4					
O'zbekiston Respublikasi	26,1	448,9	120	163	113	1452

13.3. Mamlakatning tabiiy resurslari

O'zbekiston er osti va er usti tabiiy resurslariga boy. Uning tabiat manbalari xilma-xil bo'lib, ularning asosiy turlari mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda bevosita ishtirok etmoqda.

Mamlakat tabiiy resurslari sobiq SSSR hukmronligi yillarida beayov ishlatildi, ayniqsa, uning yoqilg'i resurslari, noyob va nodir metall rudalari o'zga regionlarga tashib ketildi. Masalan, mamlakatning qimmatbaho tabiiy resursi hisoblangan oltin rudalari pala-partishlik (va buning ustiga qoloq texnologiya)

bilan qazib olindi va ishlatildi. Natijada rudaning ma'lum qismi chiqindiga o'tib ketdi.

Qazib va saralab olingan oltinning hammasi esa Rossiyaga tashib ketildi. O'zbekiston tabiiy gazi ham shunday yovuzlik bilan ekspluatatsiya qilindi. Gazli konidan har yili shu qadar katta hajmda gaz qazib olindiki, oqibatda Gazli shahrida bir necha marta zilzila yuz berdi. 1960 yillardan boshlab, «Gazli – Sverdlovskiy» quvuri orqali Uralga har yili 21 mlrd. kubometr «O'rta Osiyo – Markaz» quvuri orqali esa Markazga yiliga 30 mlrd. kubometr gaz yuborib turildi.

Endilikda, tabiiyki, vaziyat o'zgardi. O'zbekiston o'z hududida joylashgan barcha tabiat manbalarining egasiga aylandi. Mamlakat tabiat manbalaridan oqilona foydalanish, avvalo, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari (ya'ni, ilg'or texnologiya qo'llash) asosida, tabiat muvozonatiga putur etkazmasdan, uzoq kelajakni ko'zlab tuzilgan rejalarga tayangan holatda amalga oshirilmoqda. SHu jihatdan endilikda mamlakatning boy tabiat manbalari: ma'dan(mineral) va yoqilg'i-energetika resurslari, rudali resurslari, jumladan, oltin va uran, tog' kimyosi xom ashyosi va tabiiy tosh va boshqa qurilish materiallari resurslari, er fondi va agroiklim, tuproq va suv, o'simlik va hayvonot resurslaridan foydalanishda ibratli ishlar qilinmoqda.

Mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish nuqtai nazaridan uning tabiiy resurslaridan eng muhimi, foydali qazilmalaridir. Foydali qazilmalar esa mamlakatning turli regionlarida keng tarqalgan. «O'zbekiston, - deydi Prezident Islom Karimov, – o'z er osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi - bu erda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Ularning tasdiqlangan zahiralar 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. SHu bilan birga, umumiy mineral-xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak¹.

Mustaqil taraqqiyotning hozirgi bosqichidayoq «har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0—7,0 milliard dollarlik yangi zahiralar qo'shilmogda».

O'zbekiston hududi ayniqsa, rangli metall rudalariga boy. Jumladan, O'zbekiston mis rudasining zahirasi bo'yicha MDHda Rossiya va qozog'istondan keyingi o'rinda turadi. Mamlakat mis konlari mis-porfir formatsiyasiga mansub bo'lib, u qurama tog'larida keng tarqalgan. Uning Olmaliq atrofidagi qalmokqir, Dalniy va Sarichek konlari eng yiriklaridir. **qo'rg'oshin** — **rux** konlari janubi-g'arbiy Hisor tog'larida joylashgan. qurama tog'idagi Lashqarak polimetall konidan qadimda kumush, qo'rg'oshin qazib olingan. Ular endilikda sanoat asosida qo'rg'oshinkon konidan olinadi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. SHimoliy Nurota tizmasi yonbag'irlarida ma'dan konlari, Xonjiza (Surxondaryo)da yirik polimetall konlari topilgan.

O'zbekiston oltin zahirasi juda boy. qimmatbaho oltinning bir necha endogen va ekzogen konlari topilgan. Uning eng yirik konlari Markaziy qizilqum

¹ Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T., «O'zbekiston», 1997, 230-bet.

(Muruntov va Kakpatas)da joylashgan. Islom Karimovning ta'kidlashicha: «Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Evrosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan eng yirik kondir. Muruntov konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi». «Oltin zahiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda turadi».

Oltinning Muruntov va Kakpatas konlari tokembriy va quyi paleozoy jinslarida, Olmaliq guruh konlari esa intruziyalarda joylashgan. Tarkibida oltin bo'lgan rudalar g'arbiy O'zbekiston va CHotqol-qurama tog'larida ham ko'p uchraydi. Oltin Marjonbuloq, Zarmitan, CHodak, Uchbuloq, qorako'ton, Kauldi konlarida katta zahiralarga ega. Umuman, mamlakatimiz hududida oltinning 30 dan ortiq konlari topilgan va ularning zahirasi aniqlangan. SHuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz hududida oltin konlarining mavjudligi qadimda ham ma'lum bo'lgan. Arxeologik qazilma (topilma)larning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VI-V asrlarda ham O'zbekiston oltini aholi tomonidan ishlatilgan. '

O'zbekistonda **kumush** konlari ham ko'p. Uning asosiy konlari qurama tog'larida joylashgan. Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoe, Ukjetpes, Kosmonachi konlari va Namangan viloyatidagi Oqtepa zahiralari aniqlangan kumush konlaridir. Mamlakatimiz hududida shuningdek, turli tuzlarning, fosforit, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi (boksit rudalari), pardozlovchi va qurilish materiallarining katta zahiralari mavjud.

Nodir metallardan volfram (Langar, qoratepa, quytosh, Ingichka, YAxton, CHochtepa konlari), molibden (Hisor, qurama va CHotqol tizmalarida) ko'p uchraydi. qalayning mamlakatimizda 100 dan ortiq to'plami(konlari) bor. SHulardan qarnob koni 1950 yillarda ishga tushirilgan. Vismut rudalari CHotqol-qurama tog'larida topilgan. Simob va surma tarkibli rudalar respublikamizning ko'p joylarida uchraydi. Jumladan, Janubiy Farg'onada simobning 100 dan, surmaning 10 dan ortiq konlari istiqbolli hisoblanadi.

Mamlakat qazilma boyliklari orasida rudali resurslardan oltin, mis va boshqalar qatori temir rudasining ham ulushi ancha. CHo'kindi jinsli temir ruda konlari bur va uchlamchi davr yotqiziqlarida joylashgan bo'lib, bunday konlar Orolbuyi regionida, qizilqumda va Jizzax viloyati hududida uchraydi. 1999 yilda geologlar tomonidan zahirasi qayta aniqlangan Jizzax viloyati Forish tumanidagi temir ruda konining sanoat ahamiyati juda katta bo'lib, uning tarkibida 60 foiz atrofida sof temir borligi qayd qilindi. Bu, endilikda mamlakat qora metallurgiyasi istiqbolini belgilamoqda.

O'zbekistonda marganets konlari ham ko'p. Uning Zarafshon tog'larida Ziyovuddin, Dovtosh, qizilbayroq, Taxtaqoracha, Tersaksoy, CHo'ponota konlaridagi zahiralarning tarkibi toza rudaga ancha boy (ruda tarkibida toza marganets 8 foizdan 28 foizgacha). SHuningdek, marganets konlari Korjontog' va Morguzar tog'larida ham bor.

Mamlakatimizning ayrim hududlarida sanoatning qimmatbaho xom ashyosi bo'lgan uran ham bor. «Uran bilan yo'l-yo'lakay reniy, skandiy, lantanoidlar ham qazib olinmoqda. Mazkur elementlarning aksariyati ma'lum darajada eritmaga

o'tadi. Binobarin, ularni ajratib olish texnologiyasini joriy etish konlarni ishlash samaradorligini ancha oshirish imkonini bergan bulur edi» (I.A.Karimov, 1997).

Yoqilg'i-energetika resurslari. O'zbekiston energetika sanoatini rivojlantirish uchun zahiralarini ancha katta bo'lgan neft, tabiiy gaz va ko'mir konlariga ega. Mazkur tabiiy boyliklar mamlakatimizning turli mintaqalari bo'ylab tarqalgan.

Neft. U o'tgan asrimizning boshlari va o'rtalarida Farg'ona vodiysidan ko'p qazib olingan. O'zbekistonda dastlab neft qazib olish 1904 yilda Farg'ona vodiysidagi CHimyon konida boshlangan. Keyinchalik shu regionda Xujaobod, Janubiy Olamushuk, SHimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo'ja Usmon, Hartum kabi yangi konlar topilgan va ishga tushirilgan. 1959 yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushgan. O'sha yillarda Janubiy O'zbekiston — Surxondaryo va qashqadaryoda yangi-yangi neft konlari (Kokayti, Lalmikor, Xaudak, Uchqizil) topilgan. Mazkur konlarning ko'pida neft bilan birga yo'ldosh gaz ham qazib olinadi. Ayniqsa, mamlakat neft sanoatini rivojlantirishga Mingbuloq (Namangan viloyati) va Kukdumaloq (Buxoro viloyati) konlarining ochilishi va ishga tushirilishi keskin ta'sir ko'rsatdi. Mazkur konlarining topilishi va ishga tushirilishi mamlakatimiz yoqilg'i-energetika resurslari георпафияsini va yoqilg'i sanoatining markazini o'zgartirib yubordi.

Tabiiy gaz. Hududimiz tabiiy gaz zahiralariga ham boy. Uning yirik konlari neft bilan yonma-yon (ko'pincha birga) uchraydi. XX asrning o'rtalarida g'arbiy O'zbekistonda topilgan va zahirasi nihoyat darajada katta bo'lgan Jarqoq va Gazli konlarining zahiralarini tugab bormoqda. Tabiat O'zbekistondan ne'matlarini ayamagan ekan, uning yangi-yangi konlari topilmoqda. Uchqir, O'rtabuloq, CHaqmoqli, qoravulbozor, Setlyantepa gaz konlari ketma-ket ochildi. Hozirgi davrda zahirasi juda katta bo'lgan gaz koni qashqadaryo viloyatidagi SHo'rtan konidir. SHuningdek, Buxoroning Kukdumaloq konidan ham neft bilan birga ko'p miqdorda gaz tabiiy ajratib olinadi.

«Bugungi kunda mamlakatimizning turli mintaqalarida 150 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan bo'lib, ulardan 92 tasida ish olib borilmoqda. Hozirgi paytda istiqbolli Ko'kdumaloq konida burg'ulash, obodonchilik va tezda ishga tushirish bo'yicha faol ish ketyapti. Bularning barchasi uzoq yillarga etadigan ishonchli xom ashyo bazasini barpo qiladi, respublika iqtisodiyotining uglevodorod xom ashyosini qayta ishlovchi mahsulotlarga ehtiyojini ta'minlashga imkon beribgina qolmay, respublikaning eksport salohiyatini ham ancha oshiradi» (I.Karimov, «O'zbekiston ovozi», 1997, 23 avgust).

Ko'mir. Mamlakatimizda uchta: Angren (Toshkent viloyati), SHarg'un va Boysun (Surxondaryo viloyati) ko'mir konlari ishga tushirilgan. Uchala ko'mir koni ham yura davri qatlamlarida joylashgan.

Ohangaron daryosi vodiysida joylashgan **Angren qo'ng'ir ko'mir** koni 1933—1934 yillarda topilgan va 40-yillarning boshida ishga tushirilgan. Unda ko'mir ko'pincha karer (ochik) usulida qazib olinadi. Uning zahirasi 2 mlrd. tonnaga yaqin. Agar mamlakatda yiliga 10 mln. tonnadan ko'mir qazib olingan taqdirda ham, Angren ko'mirining zahirasi yana 200 yilga etadi.

SHarg'un ko'mir koni Hisor tog'ining janubiy yonbag'ri (dengiz sathidan 700—800 m. balandlik)da joylashgan. Geolog E. A. Repman tomonidan (1941y.) topilgan ushbu konning ham zahirasi katga. Uning sifat va issiqlik quvvati Donbass, Kuzbas va qarag'anda havzalari ko'miridan qolishmaydi. U Angren ko'miriga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik beradi. 1963 yilda SHarg'un ko'miri asosida Markaziy Osiyoda birinchi marta briket(g'isht shaklida iskanjalangan) fabrikasi qurildi. Bu fabrika kuniga 160 ming tonna briket tayyorlab berish quvvatiga ega. SHaxtyorlar shahri SHarg'undan kongacha 18 kilometr osma sim yo'li o'tgan. Bu yo'lga o'rnatilgan har bir vagonetka 1 tonna ko'mirga mo'ljallangan. Sutka mobaynida osma yo'l orqali ko'mir shaxtasidan briket fabrikasiga 7 ming tonnagacha ko'mir tashiladi.

Surxondaryoning tog'li Boysunida ham yuqori quvvatli To'da ko'mir koni ishga tushirilgan. Uning zahirasi chet ellik (AQSH) mutaxassislar tomonidan 160 mln. tonnaligi aniqlangan. Dengiz sathidan 1246 m. balandlikda joylashgan To'da ko'mir konidan yiliga 500 ming tonna ko'mir qazib olish yo'lga qo'yilmoqda.

Tog'-kimyo xom ashyo resurslari. Mamlakatimiz hududida kaliy, osh tuzi va fosforitning katta zahiraları aniqlangan. Magniy va natriyning sul'fat tuzlari esa kam uchraydi. Mineral tuzlar dengiz va quruqlik shakllanish guruhlariga mansub bo'lib, yuqori yura, pastki bo'r, neogen va antropogen davrlarda hosil bo'lgan. Xo'jaikon, Boybichakon, Tubekatan, Lalmikon, Oqbosh va boshqa, jami 8 ta tuz konlari katta ahamiyatga ega. Pastki bo'r davriga mansub tuzlar ko'l sharoitida vujudga kelgan, qatlami qalinligi 120-200 metrgacha boradi. Ular ayniqsa, Ko'xitang tog'ida ko'p tarqalgan. Birgina Xo'jaikon tuz koni zahirasi 140 mln. tonna bo'lib, hozirgi davrdagi mamlakat ehtiyoji bo'yicha yana 100 yildan ko'proq vaqtga etar ekan.

Fosforitning katta konlari qizilqumda topilgan. Uning Ovminzatog', Bukantog', Toshqazgan, quljiktog' va Boysun tog'laridan topilgan konlari ayniqsa, istiqbollidir.

Oltinugurt SHursuv koni (Farg'ona vodiysi)dan qazib olinadi. Biroq, uning yirik koni Tubekatanda. U yura davri yotqiziqlarida uchraydi. Hozirgi vaqtda esa, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan oltinugurtning katta qismi Muborak gazni qayta ishlash majmuasida ajratib olinmoqda.

Nometall foydali qazilmalar ham mamlakatning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Dala shpatining magmatik va cho'kindi konlari (Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, Korjontog'da) ma'lum. Grafitning 30 dan ortiq magmatik va cho'kindi konlari bor. Asbestning ko'k tusli xili Sulton Uvays tog'ida uchraydi.

Talk va talk toshining sanoat ahamiyatidagi to'planmalari faqat Sulton Uvays tog'laridadir. Talkdan qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi ko'rash vositasi sifatida hamda tibbiyotda dori-darmon tayyorlashda foydalaniladi.

O'zbekiston qurilish sanoati uchun ishlatiladigan xom ashyo (qum, qumtosh, ohaktosh, granit, marmar, tog' billuri, yashma, marmarsimon oniks kabilarlar)ga boy. Ayniqsa, g'ozg'on marmari (Navoiy viloyati) mo'jizakor sifatining dovrug'i «etti iqlim»ga ketgan. Mamlakatimizdagi deyarli barcha daryo o'zan va yoyilma yotqiziqlarida shag'al, qum, shag'altosh ko'p tarqalgan. Kvarts oqqumi ham yurtimizda ko'p tarqalgan bo'lib, u oyna va kulolchilik sanoatining qimmatli xom

ashyosi hisoblanadi. Oqqum konlari Toshkent viloyati (May va Ozodboshi qishloqlari hududi)da, Navoiy shahrining yaqinida, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan.

Mineral suv resurslari. Mamlakat hududining litologik jinslar majmuida muayyan miqdorda er osti suv zahiralari mavjud. Er osti suvlarining(shifobaxsh) 100 ga yaqin istiqbolli konlari o'rganilgan. Mutaxassislarning aniqlashicha, mamlakat er osti suvlarining o'rni qaytadan tiklanib turuvchi zahirasi sekundiga 1000 m³.

Er osti suvlarining kimyoviy tarkibi jihatidan asosan gidrokarbonatli, gidrokarbonat-sul'fatli, qisman sul'fat-xloridli va xloridlidir. Vodorod-sul'fatli suv CHimyon, Polvontosh, Xo'jaobod, SHo'rsuv, Uchqizil, Kokayti, Jayronxona, Xo'jaipok, Omonxona va boshqa joylarda topilgan. Yodli suv CHortoqda, rodonli suv Arashonbuloqda, kam minerallashgan issiq suvlar Toshkent va Farg'ona viloyatlarida, sul'fat-xloridli va natriyli suv Sitorayi Moxi xossa, qorako'l, Gazlidan chiqadi.

Er resursi. O'zbekistonda asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan er davlat mulki hisoblanadi. SHuning uchun ham faqat davlat erdan muddatsiz yoki vaqtincha foydalanish uchun uni qishloq xo'jalik tashkilotlariga, turli yo'nalishda faoliyat ko'rsatadigan xo'jalikshlarga, shuningdek, fuqarolarga beradi.

Davlat er fondi: umumiy er fondini, shundan qishloq xo'jaligiga yaroqli erlarni, shudgor qilinadigan, daraxt yoki mevazor, yaylov, pichanzor, o'rmonzor hamda qo'riq va partov erlardan tashkil topgan.

Mamlakatimizning umumiy er fondi 444,0 ming kv. km, shundan qishloq xo'jaligida foydalanadigan erlar 26,7 mln. gektarga yaqin, ya'ni mamlakat umumiy er fondining 63,8 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqli bo'lgan erlardir. SHundan shudgor qilib (haydalma) dexhonchilik qilinadigan erlar 4,3 mln. ga dan ortiq.

Mamlakat er fondi hududlararo yaxlit bo'lib, foydalanish turlariga ko'ra, uning ayrim turlarini ko'paytirib yoki unumdorligini oshirib borish mumkin. Mamlakatda 22 mln. gektardanortiq er yaylov mavjud. Uning unumdorligini va mahsuldorligini artezian quduqlari quvvatini oshirib borish evaziga yanada ko'paytirish mumkin. YOKi sug'oriladigan mintaqada mavjud sug'orish, erlarning meliorativ holatini yaxshilovchi tizimlar samaradorligini orttirish va ta'mirlash asosida ko'zlangan mahsulotni etishtirishga erishish mumkin.

Agroiqlim resurslari. O'zbekistonning agroiqlim resurslari holati uni materikning ancha ichkarisida joylashgan geografik o'rni hamda murakkab er yuzasi relefining tuzilishiga bog'liq. SHu jihatdan uning iqlim sharoiti qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga qodir.

O'zbekistonning agroiqlim ko'rsatkichlari (jumladan, yog'in-sochin va uning miqdori, tushish muddati, havo haroratining yillik ijobiy va foydali ko'rsatkichlari) er sirtiga quyosh nuri tushish burchagining kattaligi ziroatchilikni rivojlantirish uchun kuchli omil bo'lib maydonga chiqadi.

Quyosh radiatsiyasi. Mamlakatimizni «Serquyosh O'zbekiston» deb atashlarining ramziy ma'nosi bor. Negaki, mamlakatimizda quyosh yil davomida ufqdan balandda bo'lib nur sochadi. quyosh iyun oyida ufqdan Toshkentda 72°,

Termizda 76° gacha ko'tariladi. Ezda kunduz kuni 15 soat davom etadi. Atmosfera yog'in-sochinlarini keltiradigan dengiz va okean oqimlaridan juda uzoqda bo'lgan bu o'lkada bulutli kunlar tabiiy ravishda kam bo'ladi. Binobarin, uning barcha hududiga quyosh uzoq vaqtgacha nur sohib turadi. Ziroatchilik qilinadigan barcha vodiy va vohalarda, ko'p yillik meteorologik ko'zatishlarga qaraganda, quyosh yog'dusi davomiyligi yil davomida o'rtacha 2500—3000 soat (Farg'ona vodiysi va qashqadaryoning tog' hududlarida 2600 soat, Toshkentda 2890 soat, Termizda 3100 soat)gacha boradi.

Yoz oylarida mamlakatimiz hududi quyosh nuridan nihoyat ko'p energiya qabul qiladi. O'rtacha bir yilda uning har bir sm^2 er yuzasiga 100—120 ming kaloriya quyosh nuri tushadi. quyoshdan kelayotgan issiqlikning 70—80 foizi tuproq va er yuzasi havosining isishiga sarf bo'ladi. quyoshdan kelayotgan energiyadan xalq, xo'jaligida energiya manbai sifatida foydalanishga doir ilmiy-amaliy izlanishlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining «quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida olib borilmoqda.

Issiqlik resurslari. Serquyosh O'zbekiston janubiy mamlakatlarga xos bo'lgan qimmatbaho ziroatchilik, bog'dorchilik va uzumchilik, shuningdek, o'simliklarning o'sish uzoq bo'lgan (vegetatsiya) muddati hamda quyoshli kunlarni talab qiladigan subtropik mevalar etishtirishni tabiiy issiqlik yordamida rivojlantirishning juda katta imkoniyatlariga ega. Ayni bir paytda yana shu narsani ta'kidlash joizki, bunday imkoniyatlar mamlakatning barcha geografik mintaqalarida bir xil emas. Masalan, mamlakatning shimoliy mintaqasi (qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati)da issiqlik ko'rsatkichlari ancha past va qishda o'ta salbiy, Farg'ona vodiysida birmuncha yumshoq va mo'tadil, mamlakatning janubiy qismida esa o'ta baland.

Eng sovuq oy — yanvarning o'rtacha havo harorati **SH**imoli-g'arbiy O'zbekiston (Urganch va Nukus)da — $4,8^{\circ}\text{S}$ va — $6-4^{\circ}\text{S}$; **SH**imoli-Sharqiy O'zbekiston (Toshkent va Guliston)da — $0,9^{\circ}\text{S}$ va — $2,0^{\circ}\text{S}$; Sharqiy O'zbekiston (Farg'ona va Andijon)da — $3,5^{\circ}\text{S}$ va — 3°S ; Markaziy O'zbekiston (qorako'l va Samarqand)da — $0,2^{\circ}\text{S}$ va $0,3^{\circ}\text{S}$ va Janubiy O'zbekiston (g'uzor va Denov)da — $2,3^{\circ}\text{S}$ va — $2,4^{\circ}\text{S}$ darajaga teng. Iyul oyining o'rtacha havo harorati Urganch va Nukusda $27,5^{\circ}\text{S}$ va $27,1^{\circ}\text{S}$; Toshkent va Gulistonda $26,9^{\circ}\text{S}$ va $26,8^{\circ}\text{S}$; Farg'ona va Andijonda $26,8^{\circ}\text{S}$ va $27,3^{\circ}\text{S}$; qorako'l va Samarqandda $29,1^{\circ}\text{S}$ va $26,0^{\circ}\text{S}$; g'uzor va Denovda $29,9^{\circ}\text{S}$ va $28,2^{\circ}\text{S}$ darajaga teng. Biroq, havo haroratidagi bu ko'rsatkichlar asosan mamlakatning tekislik mintaqasiga xos bo'lib, u tog'lik va baland tog'li hududlarda birmuncha farq qiladi.

Issiqlik resurslari turli xil ziroatchilikni joylashtirish, ulardan yuqori hosil olish va tabaqalashtirib rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. **SH**u jihatdan yillik havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlari, shuningdek, sovuq bulmaydigan kunlar muddati amaliy ahamiyatga molikdir (31-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlariga tayanib, qayd qilish joizki, mamlakatning turli geografik regionlarida o'rtacha havo harorati va havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlari keskin farq qiladi. Masalan, mamlakatning shimoliy qismida joylashgan Nukusda havo haroratining 5 darajadan yuqori ko'rsatkichlari yig'indisi 4301 darajaga teng bo'lgani holda, bu ko'rsatkich Termizda 5950 darajaga etadi,

ya'ni 1649 daraja ko'p. Havo haroratining ijobiy ko'rsatkichlari ham shu yo'sinda farqlanadi. Mamlakatning agroiklim ko'rsatkichlaridagi ana shu farq qishloq xo'jaligi ayniqsa, ziroatchilikni yurgizishda kuchli omil bo'lib chiqadi va dehqonchilik tuzilmasiga yoki uni takroriy ekishga ta'sir ko'rsatadi.

32-jadval

Mamlakat geografik mintaqalarida agroiklim ko'rsatkichlari

Metstan-tsiya joylash-gan shahar	qishki davr		O'simlik vegetatsiyasi davri			
	0 darajada n past bo'lgan kunlar	Havo harorati salbiy ko'rsatkic hi yig'indisi	o'rtacha havo haroratidan o'tgan kunlar soni (yuqori)		o'rtacha havo harorati ijobiy ko'rsatkichining yig'indisi (yuqori)	
			q5 darajadan	q10 darajadan	q5 darajadan	q10 darajadan
Guliston	SHIMOLIY-SharqIY O'ZBEKISTON					
	48	-72	259	218	4773	4460
	Toshkent	38	-29	263	214	4749
	SharqIY O'ZBEKISTON					
Farg'ona	60	-123	256	213	4757	4445
Andijon	55	-123	262	218	4954	4617
	MARKAZIY O'ZBEKISTON					
Qorako'l	23	-11	271	222	5257	4905
Samarqand	0	-	269	212	4685	4275
	JANUBIY O'ZBEKISTON					
G'uzor	0	-	304	239	5751	5269
Termiz	0	-	306	251	5950	5630
	SHIMOLI-g'ARBIY O'ZBEKISTON					
Urganch	88	-270	235	199	4544	4269
Nukus	104	-439	228	191	4301	4035

O'zbekistonda yoz fasli uzoq davom etadi, hattoki, uning janubiy qismi (Surxondaryo)da, L. N. Baubushkinning ta'kidlashicha, bu fasl olti oyga cho'ziladi. YOzda quyosh nurining bevosita ta'sirida bo'lgan er yuzasi 60 darajagacha, uning cho'llari va qum hududlarida esa 75 darajagacha ko'tariladi. Sovuq bo'lmaydigan kunlar SHimoliy O'zbekistonda 190—210 va Janubiy O'zbekistonda 220—270 kunni tashkil qiladi.

YOg'in-sochin mamlakat hududi bo'ylab bir xil taqsimlangan emas. Binobarin, uning ziroatchilikning joylashishi va rivojlanishidagi roli turlicha. Masalan, yog'in-sochin ko'proq tushadigan CHiroqchi, YAKkabog' adirlari (qashqadaryo viloyati), g'allaorol tumani va Jizzax cho'lida lalmi g'alladan yaxshi hosil yig'ishtirib olinadi. Ayni bir paytda yog'in kam tushadigan Dehqonobod va SHerobod adirlarida lalmikor dehqonchilikning mahsuldorligi past. SHuningdek, yog'in-sochinning fasllararo taqsimlanish muddati ham ziroatchilikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizning murakkab orografik (er sirti) tuzilishi yog'in-sochin taqsimotiga kuchli ta'sir qiladi. Uning tekisliklariga kamroq, tog' etaklariga ko'proq va tog'li hududlarining g'arbiga eng ko'p yog'in-sochin tushadi. Bu farq mamlakatning turli geografik mintaqalarida ham ko'zga tashdanadi. Masalan, Toshkent va Gulistonda 367:295 mm, Farg'ona va Andijonda 174:226 mm, Qorako'l va Samarqandda — 114: 328 mm; g'uzor va Termizda — 285:133 mm; Urganch va Nukusda ~ 82:82 mm dan yog'in-sochin tushadi. Tekisliklarda o'rtacha yillik yog'in 100—200 mm (ayrim hududlarda, masalan, Taxiatoshdan 79 mm), tog' yonbag'irlarida 200—400 mm va tog'larda 500-600 mm gacha tushadi. SHuningdek, yog'in-sochin fasllar bo'ylab notekis tushadi. Ko'p yillik meteorologik ma'lumotlarga ko'ra, yillik yog'inning ko'p qismi bahorda (30-50%) va qishda (25-40%), oz qismi esa, yozda (1-6 %) va ko'zda (10-20%) tushadi.

Suv resurslari. Mamlakatning asosiy suv boyliklari — daryo suvlaridir. Daryolari tog'lardagi qor va muzliklardan, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. Biroq, iqlimiy sharoiti o'ta quruq bo'lganligi uchun daryolar tog'dan tekislikka oqib chiqishi bilan o'rta va quyi qismlarida sug'orish va bug'lanishga sarf bo'ladi. Tekislikdagi kichik daryolari jazirama yoz faslida qurib qoladi.

O'zbekistonning yirik daryolari: Norin va qoradaryo, So'x va CHirchiq, Zarafshon va qashqadaryo, Surxondaryo va SHerobod daryolardir. Mamlakatning yirik suv arteriyalari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo hamda ularning yirik irmoqlari O'zbekiston hududidan tashqarida boshlanadi. SHuning uchun ham Amudaryoning yillik o'rta oqim suv hajmi 79 km³ bo'lgani holda, uning 8 foizi; Sirdaryoning yillik o'rta oqim suv miqdori 38 km³ bo'lgani holda uning faqat 10 foizi O'zbekiston hududida hosil bo'ladi.

Mamlakatning aksariyat daryolari bahor faslida to'lib-toshib oqadi. YOzda borgan sari daryolar suvi kamayib boradi. Daryolardagi bu xil rejim ziroatchilik ehtiyojlariga muvofiq emas. SHuning uchun dehqonchiligi asosan sug'orib ekishga tayangan mamlakatimizning barcha geografik mintaqalarida o'nlab yirik suv omborlari, yuzlab magistral kanallar, minglab nasos stantsiyalari barpo qilingan.

Tuproq resurslari. Tuproqning tabiiy holati, ya'ni donadorligi, chirindi miqdori, madaniylashish darajasi dehqonchilikning hosildor (mahsuldor)ligiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizning tekislik mintaqalarida oddiy bo'z tuproq, tog' yonbag'irlarida asosan bo'z tuproq, tog'larda to'q tusli bo'z tuproq keng tarqalgan. Ularning chirindi miqdori qora yoki kashtan tuproqlarinikiga nisbatan 4—6 marta kam bo'lsa ham, ona jinsining donadorligiga va quyosh nurini ko'p qabul qilishiga ko'ra, unumdorligi ancha yuqori.

Mamlakatda sug'oriladigan erlarning hisob-kitobi alohida olib boriladi. Negaki, qishloq xo'jaligida etishtiriladigan asosiy mahsulotlarning ulushi shu erlarga to'g'ri keladi. Sof tarzda sug'oriladigan erlar 4,2 mln. ga atrofida. SHundan 1,6 mln. ga cho'l mintaqasida, qolgan qismi tog', vodiylardagi och tusli va asosiy bo'z tuproqli mintaqada joylashgan. Avtomorf tuproqli maydonlar yirik daryo vodiylari va yoyilmalarida, shuningdek, tog' etaklarida bo'lib, bu erda uzluksiz dehqonchilik qilish (sug'orish) natijasida sizot suvlari ancha ko'tarilgan. Mamlakatdagi cho'llarni o'zlashtirish jarayonida jumladan, qarshi va SHerobod, Mirzacho'l va Jizzax cho'llarini o'zlashtirish bilan o'nlab, yuzlab yirik kollektorlar

va zovurlar qazilgan, (ochik va yopik). Endilikda(ya'ni, qariyb 30-40 yil mobaynida xizmatda bo'lgan) ushbu sug'orish va meliorativ tizimlarning aksariyati eskirdi va ko'plari izdan chiqqani tabiiy hol. Natijada, sug'orma dehqonchilik qilinadigan erlarning yarmidan ortig'i sho'rlanib bo'ldi. SHuning uchun ham ularning sho'rini muntazam yuvib turish hamda meliorativ holatini yaxshilab borish va bu borada ilmiy asoslangan tadbirlar ishlab chiqish mamlakat qishloq va suv xo'jaligi vazirligining galdagi bosh vazifasiga aylangan.

O'simlik va hayvonot resurslari ham mamlakat tabiatining tarkibiy qismi bo'lib, uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham ularni borligicha asrash va muhofaza qilish mamlakatda tabiat muvozanatini saqlash bilan teng ishdir.

Mamlakat tabiiy resurslarining iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi holatini o'rganish va ularni ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, maqsadida baholash, ayrim Qisqacha xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni taqozo qiladi.

O'zbekistonning o'simlik resurslari cho'l, adir, vodi, tog' oldi va tog' mintaqalarida joylashgan. Ularning 90 foizga yaqini chorva mollari uchun ozuqa hisoblanadi. qurg'oqchil mamlakatimizning barcha mintaqalarida ham tabiiy o'tloqzorlarning hosildorligi past. Masalan, qumli va cho'l yaylovlarida yiliga o'rtacha gektaridan 3—5, adir yaylovlarida esa 8—10 tsentnerdan pichan olish mumkin. Tog' mintaqasining pichan zahirasi umuman adir mintaqasidan ko'proq bo'lib, tuproq holati, nam va kalin o'rmonli bo'lishiga qarab o'zgaradi.

Mamlakatimiz tabiatining ko'rki uning tog'laridir. Tog'lar yovvoyi va madaniylashgan mevalarga ancha boy. Ayniqsa, O'zbekiston tog'larida tog' olchasi, tog' olmasi, tog' yong'og'i, pista, do'lana, bodom, jiyda, gilos va boshqa mevalilar keng tarqalgan. SHuningdek, tog'li hududlarda shifobaxsh o'simliklardan zira, zirk, na'matak, kiyik o'ti, alkor, omonqora va boshqalar ko'p.

Hayvonot resurslari turlarga boy. Masalan, bizda birgina sut emizuvchilarning 97 turi uchraydi. Tuyoqli sutemizuvchilardan jayron, sayg'oq, burama shox tog' takasi, buxoro bug'usi (xongul) va boshqalar «Kizil kitob»ga kiritilgan.

Teri (mo'yna)si uchun ovlanadigan hayvonlardan tulki, chiyabo'ri, bo'rsiqlar ham keng tarqalgan. O'z vaqtida mamlakatimiz hududida keng tarqalgan ayiq, qoplon, bars, qunduz, alqor (arhar) va boshqalar endilikda «qizil kitob»dan joy olgan. Mamlakatimiz hududida ovlanadigan 60 xil qush bor. Bo'lardan kaklik, qirgovul, bedana, o'rdak, g'oz asosiylaridir. Mamlakatning cho'l hamda tog'li hududlaridan yiliga uch mingdan ortiq zaharli ilonlar tutiladi.

Umuman, mamlakat o'simlik va hayvonot olami rang-barang bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muhofazaga o'ta muhtoj.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Evroosiyo materigining ichkari qismida joylashgan. Markaziy Osiyo miqyosida uning geografik joylashishi juda qulay, Chunki u shu mintaqada joylashgan hamma davlatlar bilan chegaradosh. Xalqaro miqyosda uning geografik o'rnini bir oz noqulay, Chunki xalqaro dengiz yo'llariga bevosita chiqishga imkoniyati yo'q.

Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari xo'jalikni rivojlantirish uchun qulay. quyosh issiqligining mo'lligi bu erda issiqsevar texnik va boshqa ekinlarni etishtirishga imkon beradi. YOqilg'i-energetika resurslaridan ko'mir, neft va gaz mavjud. Rangli metallar konlari mamlakatimizda serob, uning asosida rangli metallurgiya sanoati vujudga kelgan. qurilish xom ashyosining ham katta zahiralari mavjud. Oxirgi paytda yirik temir rudasi konlari aniqlangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonning geografik o'rniga baho bering.
2. Mustaqilliq yillarida iqtisodiy, siyosiy geografik o'rnining o'zgarishiga ta'sir etgan asosiy omillar?
3. O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoitining xususiyatlarini tushuntirib bering
4. O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati bo'yicha dunyoda tutgan mavqiga baho bering.
5. O'zbekistondagi oltin qazilmalari qayerlarda ko'p joylashgan?
6. Ularni qazib olishda qaysi davlatlar bilan hamkorlik qilinmoqda?
7. O'zbekistondagi asosiy gaz konlari bor?
8. Neft konlari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?
9. Boshqa rangli metall rudalari qaysi xududlar va konlarda uchraydi?
10. Tabiiy boyliklar ko'p uchraydigan mintaqalarni aniqlang.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr boshlarida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999.
3. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
4. Soliev A.S., Axmedov E.A., Muxamadaliev R.I. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv o'quv qo'llanma. -T.: "Universitet", 2003.

XIV mavzu. O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURLARI

Aholi birlamchi ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etgan sari uning jamiyatda tutgan o'rnini, salohiyati ortib va takomillashib boradi. Chunki xalq butun moddiy boyliklarni yaratuvchi kuchgina emas, balki u ma'naviy boyliklarning ham birdan-bir va bitmas-tuganmas manbai hamdir. SHuning uchun jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan aholini o'rganishga iqtisodiy va ijtimoiy reorganiya kurslarida doimo katta e'tibor beriladi. Chunki har bir mamlakat, uning ichki iqtisodiy-geografik rayonlari xalq xo'jaligini hududiy tashkil qilish va rivojlantirishda aholining soni, zichligi, tabiiy o'sish, migratsiya va urbanizatsiya jarayoni, milliy va ijtimoiy tarkibi, jinsi, mehnat resurslari va aholining bandligi kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi.,

14.1. Aholi dinamikasi

O'zbekistonning aholisi 26,1 million nafarga yaqin. U aholi sonining ko'pligi bo'yicha MDHda uchinchi o'rinda turadi. Bu erda MOD umumiy aholisining salkam 44 foizi yashaydi.

Aholining o'sishi tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega. Uzoq va yaqin o'tmishda O'zbekiston murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdiki, bu narsa mamlakat aholisining dinamikasiga hamda demografik va migratsion holatlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakat aholisi va uning tarkibi, ayniqsa, XIX asrning o'rtalaridan boshlab jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. CHor Rossiyaning Turkiston hududini istilo qilishi natijasida aholi soni, uning milliy va jinsiy tarkibi, ko'payish darajasi, joylashuv xususiyatlari o'zgardi.

Turkiston (hozirgi MOD) hududida aholining birinchi marta ruyxati 1897 yilda o'tkazilgan. Biroq, ushbu ro'yxat ham to'liq emas edi. Chunki bu ruyxat Buxoro va Xiva xonliklari hududlarini chetlab o'tgandi. Mustamlakachilik siyosatining natijasi tufayli o'lkamizga ko'plab harbiylarning oilalari ko'chirib keltirildi, yangi qishloqlar, shaharchalar, shaharlarimiz yonida esa «yangi shaharlar» paydo bo'ldi.

XIX asrning so'nggi 35 yili davomida O'zbekiston hududiga Rossiyadan 70-75 ming kishi, XX asrning dastlabki 18 yilida esa 229,2 ming kishi ko'chib keldi. 1926-1939 yillarda 650 ming kishi ko'chib kelganligi ma'lum. Bu jarayon sobiq Ittifoq parchalanishi arafasigacha davom etgan edi. Ikkinchi jahon urushi ham mamlakatimiz aholisi soniga, uning milliy va jinsiy tarkibiga hamda geografik joylashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida mamlakatimiz o'zining bir milliondan ortiq mehnatga layoqatli aholisini yo'qotdi.

Aholi sonida yuz bergan o'sish esa fashistlar bosib olgan hududlardan ko'chirib keltirilgan kishilar hisobiga yuz berdi. 1940-1945 yillarda O'zbekiston aholisi 1,4 mln. kishiga kamayib ketdi.

Mamlakat aholisi urushdan keyingi yillarda asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Mamlakat aholisi salkam 1945-1950 yillarda bir million kishiga, 1950-1960 yillarda 2,2 mln. kishiga, 1960-1970 yillarda 3,4 mln. kishiga, 1970—1980 yillarda 3,7 mln. kishiga, 1980-1990 yillarda 4,6 mln. kishiga, 1990-1999 yillarda 3,7 mln. kishiga ko'paydi (34-jadval). Aholining yillik o'rtacha o'sishi

1865-1917 yillar o'rtasida 0,65 foizni, 1917-1940 yillarda 2,7 foizni tashkil etdi. Urush yillari bu ko'rsatkich 3,8 foizga kamaydi. Urushdan keyingi yillarda o'rtacha o'sishning eng yuqori bo'lgan davrlari 1960-1990 yillar (3,3-3,8 foiz)ga to'g'ri kelgan. Undan keyingi davrda (1999 yilgacha) aholining yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 2,0 foizdan yuqori bo'lgan va faqat keyingi yillardagina bu ko'rsatkich biroz (1,8 foiz) pasaydi.

1960-1990 yillar o'rtasida shahar aholisining o'sish sur'atlari birmuncha yuqori bo'ldi va aksincha, 1990-1999 yillar o'rtasida bu ko'rsatkich qishloq, aholisi hisobiga o'zgardi. Aholining tabiiy o'sishida ayrim hududlar o'rtasida ma'lum farq mavjud. Jami aholi o'sishining eng yuqori sur'atlari 1970-1995 yillarda Mirzacho'l va janubiy rayonlarga to'g'ri keldi. quyi Amudaryo va Zarafshon hamda Farg'ona vodiylarining aholisi o'rtacha sur'atlar bilan (1,7-1,8) ko'paydi. Toshkent vohasida aholi o'sishining eng past sur'ati (1,5) xos bo'ldi. Natijada Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi aholisining respublika miqyosidagi ulushi kamaydi (Toshkent vohasida 24,2 foizdan 19,3 foizgacha, Farg'ona vodiysida 27,4 foizdan 27,3 foizgacha). quyi Amudaryo va Zarafshon vodiysi aholisi ulushi barqarorlashdi. Mirzacho'l va Jizzax cho'lining aholisi tez sur'atlar bilan ko'paysa ham ularning soni respublikadan 5,8 dan atigi 6,7 foizgacha o'sdi, holos. Aholi o'sishning eng katta sur'atlariga xos bo'lgan Janubiy O'zbekiston aholisi salmog'i 12,4 foizdan 15,3 gacha oshdi.

XX asrdan boshlab mamlakat aholisining geografik joylashuvida ham, ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ungacha mamlakat aholisining asosiy qismi Farg'ona va Zarafshon, qashkadaryo va Surxondaryo vodiylarida hamda Xorazm va Toshkent vohalarida yashagan edi. Mazkur holat XX asrning 30-yillarigacha saqlab qolindi. Keyinchalik mamlakatda yangi ma'dan konlarining topilishi va ishga tushirilishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi va yirik irrigatsiya-melioratsiya ishlarining amalga oshirilishi aholi joylashuviga o'zgarishlar kiritdi.

33-jadval.

**O'zbekistonda aholining o'sishi
(ming kishi hisobida)**

Yillar	Jami aholi mln.	SHu jumladan (mln. kishi)				Aholining yillik oʻrtacha koʻpayish surʼati, foizda
		shahar aholisi		qishloq aholisi		
		soni	foiz	jami	foiz	Jami aholi
1	2	3	4	5	6	7
1917	4,4	0,9	20,9	3,5	79,1	0,5
1940	6,5	1,60	24,5	4,9	75,1	2,7
1950	6,1	1,9	30,9	4,2	69,1	3,8
1960	8,3	2,8	33,8	5,5	66,2	3,3
1970	11,7	4,3	36,6	7,4	63,4	3,8
1980	15,7	6,4	40,9	9,3	59,1	2,5
1990	20,3	8,2	40,8	12,0	59,8	2,1

1995	22,5	8,7	38,7	13,8	61,3	1,6
2000	24,0	9,0	37,8	14,9	62,2	1,8
2002	25,5	9,4	37,8	16,08	62,2	1,7
2004	26,1	9,5	37,9	16,6	62,1	1,7

Mirzacho'l va qarshi cho'li, Jizzax va SHerobod cho'llarining o'zlashtirilishi, ma'dan konlarini ishga tushirish evaziga yangi sanoat markazlarining barpo qilinishi oqibatida o'nlab yangi shahar va shaharchalar bunyod qilindi. Natijada aholining mamlakat regionlararo joylashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi, shahar va qishloq aholisining nisbati hamda aholining hududiy joylashuvida muhim siljishlar sodir bo'ldi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi (har kv.km. ga) 54,5 kishini tashkil etadi, bu esa MOD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 3,9 marta yuqoridir.

Aholi zichligi mamlakatning geografik rayonlararo keskin farq qiladi. Masalan, Farg'ona vodiysida joylashgan Andijon viloyatida har bir kv. km. ga 511,8 kishi to'g'ri kelgani holda qoraqalpog'iston Respublikasida 8,9, Navoiy viloyatida 7,0 kishiga to'g'ri keladi. Viloyatlar o'rtasida aholi zichligi nisbati 73 martaga farq qiladi. Hududiy joylashuvi va zichligi respublika iqtisodiy rayonlari bo'yicha ham keskin farqlanadi. Eng yuqori zichlik Farg'ona iqtisodiy rayoni xissasiga to'g'ri keladi. Unda har 1 km²ga o'rtacha 416 kishi joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi ko'rsatkichiga ko'ra, Farg'ona vodiysi MOD mamlakatlari orasida eng yuqori o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi o'rinni Toshkent iqtisodiy rayoni egallaydi (148 kishi). Aholi zichligining yuqoriligi ko'p jihatdan vohaning qadimdan muhim xo'jalik mintaqalaridan biri bo'lib kelganligi hamda Markaziy Osiyoning eng yirik shahri – Toshkentning shu erda joylashganligi bilan izohlanadi. quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining qadimiy dehqonchilik vohalaridan biri bo'lgan Xorazm viloyati mamlakatning aholisi ancha zich (219 kishi) hududlaridan hisoblanadi. Surxondaryo va Kashkadaryo mintaqalarida aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 79 kishini tashkil qiladi. Buxoro viloyati O'zbekistonning aholi siyrak yashaydigan mintaqalaridandir. Unda aholi har 1 km³ ga 34,6 kishiga to'g'ri keladi. 1920 yillardan boshlab Mirzacho'l, keyinchalik Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi tufayli Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aholi zichligi tobora ortib bormoqda. Bu erda o'rtacha zichlik 93 kishini tashkil etadi. Navoiy viloyati va qoraqalpog'istonda aholi zichligi nihoyatda past. Navoiy viloyatidagi qizilqum va qoraqalpog'istondagi Ustyurt platosida aholi zichligi 1 km² ga 1 kishiga ham etmaydi.

35-jadval.

O'zbekiston aholisining viloyatlar bo'yicha taqsimlashnishi va zichligi (2005 yil)

Viloyatlar	Jami aholi		SHundan				
	soni (ming. kishi)	foiz his.	shahar aholisi		qishloq aholisi		Aholi zichligi 1 kv.km.
			mln. kishi	foiz his.	mln. kishi	foiz his.	

qoraqolpog'iston Respublikasi	1567,6	6,1	0,7	48,2	0,7	51,8	8,9
Andijon	2340,2	8,9	0,6	29,9	1,4	70,1	510,3
Buxoro	1505,8	5,8	0,4	31,8	0,9	68,2	34,9
Jizzax	1042,5	3,9	0,2	31,2	0,6	68,8	46
qashqadaryo	6456,1	8,7	0,5	25,8	1,5	74,2	73,5
Navoiy	810,6	3,2	0,3	40,5	0,4	59,5	7,1
Namangan	2056,4	7,8	0,7	37,7	1,1	62,3	254,8
Samarqand	2865,3	10,9	0,7	27,7	1,8	72,3	156,1
Surxondaryo	1892,9	7,01	0,3	20,9	1,3	79,9	84,2
Sirdaryo	671,6	2,7	0,2	30,9	0,4	69,1	131,8
Toshkent	2451,5	9,7	0,9	40,8	1,3	59,2	153,3
Farg'ona	2838,9	10,9	0,7	29,2	1,8	70,8	385,8
Xorazm	1431,1	5,4	0,3	24,2	0,9	75,8	218,3
Toshkent shahri	2135,7	8,9	0,2	100	—	100	—
Respublika bo'yicha	26006,8	100	91,1	37,8	16,3	62,2	53,9

«Nukus-Sulton Uvays-Uchquduq» hamda «g'uzor-qumqo'rg'on» temir yo'llarining qurilishi va ishga tushirilishi bilan va ularga yonma-yon avtomobil yo'llarining barpo etilishi ushbu mintaqalarda er osti va er ustki boyliklarini to'la o'zlashtirishini ta'minlaydi, yangi-yangi aholi manzilgoxlari, shahar va shaharchalarining vujudga kelishiga olib keladi. Natijada ushbu mintaqalar aholi zichligidagi katta tafovutlar qisqarib boradi.

14.2.Aholining jinsiy va yosh tarkibi

Aholining jinsiy va yosh tarkibi muhim demografik ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda mehnat resursining, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning, nafaqaxo'rlarning hozirgi va kelajakdagi soni ayniqsa, ahamiyatlidir. Aholining jinsiy va yosh tarkibi istiqbolni belgilash, aholini takror barpo qilish uchun ham zarur ko'rsatkich. Masalan, agar jinslar nisbatan teng yoki yaqin bo'lsa, aholining tarkibida yosh avlod salmog'i katta bo'lsa, nikohlanish va tug'ilish (va binobarin, tabiiy o'sish) imkoniyati katta bo'ladi.

Mamlakatda aholining jinsiy va yosh tarkibi ham ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ob'ektiv sabablarga ko'ra, o'zgarib turdi. 1939 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonda aholining 52 foizini erkaklar va 48 foizini ayollar tashkil qilgan edi. Biroq, bu nisbat ikkinchi jahon urushi yillarida buzildi, ya'ni erkaklar soni ob'ektiv sabablarga ko'ra ancha kamaydi.

Urushga erkaklarni safarbar qilish natijasida aholining mutlaq miqdori bir million kishiga kamaydi va 1959 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati bo'yicha erkaklar soni 48 foizga tushib qoldi, ayni bir paytda ayollar umumiy aholining 52 foizini tashkil qildi.

Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida aholi jinsiy tarkibidagi katta farq barham topa bordi. 2003 yilda mamlakat aholisining 49,8 foizini erkaklar tashkil qildi, ya'ni 1000 erkakka 1026 ayol to'g'ri keldi.

Respublika aholisi nisbatida ayollar mutlaq sonining kamayishi 1990 yillarning oxirida ham davom etdi.

Mamlakatimizda tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. SHuning uchun ham aholi nisbatida yosh bolalar va o'smirlarning salmog'i katta. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimiz aholisining 40,8 foizini 0-14 yoshdagi bolalar va o'smirlar, 28,3 foizini 15-29 yoshdagilar, ya'ni umumiy aholining 69,1 foizini bolalar, o'smirlar va mehnat kobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar tashkil etgan. Biroq, O. Otamirzaev va A. qayumovlarning ma'lumotlariga qaraganda, urush va undan keyingi dastlabki davrlarda tug'ilish nisbatan kam bo'lgan. Mamlakat aholisining hozirgi soni va tarkibida 1950 yillardan keyin tug'ilgan kishilarning umumiy soni 16,7 million kishi (umumiy aholining 84,5 foizi)ga teng. SHundan 44,6 foizi esa, bolalar va o'smirlarga to'g'ri keladi. Tug'ilish va tabiiy ko'payish 1980—1990 yillarda birmuncha barqarorlashdi. Bu shahar bilan qishloq joylarda bir xil kechmayapti, albatta. Masalan, qishloq joylarda respublikadagi jami bolalar va o'smirlarning 80 foizidan ortig'i yashamoqda.

SHunday qilib, aholi yosh tarkibidagi yuqori ko'rsatkichlar mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning istiqbollari belgilab beradi. Ayni bir paytda MDH tarkibidagi davlatlarda tug'ilishning tobora kamayib borishi va, binobarin, aholining «qarib borishi», O'zbekistonda esa, tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi natijasida aholining «yasharib borishi» kuzatilmoqda.

14.3. Aholining milliy tarkibi

Aholining milliy tarkibi tashqi omillar hamda davlat siyosati rivojlanishining turli bosqichlarida o'zgarib turishi natijasida ham o'zgacha tus oladi. O'zbekistonning mustamlakachilik yillaridagi holati uning aholisi soniga va eng muhimi, aholi milliy tarkibiga ko'p o'zgarishlar kiritdi. SSSRning tarqalib ketishi munosabati bilan O'zbekistondagi bir qator millat vakillarining o'z yurtlariga yoki xorijga ko'chib ketish holatlari ruy berdi. Masalan, 1990-1995 yillar mobaynida respublikadagi slavyan xalqlarining, tatarlar va qrim tatarlarining, mesxeti turklarining, yaxudiylarning, nemislarning, greklarning va evropalik boshqa xalqlarning mutlaq soni migratsion aloqalar natijasida deyarli 0,6 mln. kishiga qisqardi.

O'zbekistonning tub aholisi o'zbeklardir. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimiz hududida yashovchi o'zbeklarning soni 14 milliondan oshdi. O'zbeklar shuningdek mamlakatimiz bilan yaqin qo'shni va MDH davlatlarida hamda uzoq xorijiy mamlakatlarda ham yashaydi. Jumladan, Tojikistonda 1,3 million, qirg'izistonda 550 ming, qozog'istonda 332 ming, Turkmanistonda 320 mingga yaqin, Rossiya Federatsiyasida salkam 130 mingdan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Xorijiy mamlakatlardan Afg'onistonda eng ko'p (3 milliondan ortiq) o'zbek yashaydi. SHuningdek, o'zbeklar Ukraina va Belorusda,

Boltiq buyi davlatlarida, Saudiya Arabistoni va Turkiyada, Eron va Xitoyda, Pokiston va AQSHda va boshqa davlatlarda ham bor. O'zbekistonda qoraqalpoklar ikkinchi tub aholi hisoblanadi va shuning uchun ham mamlakat ma'muriy-hududiy bo'linishida qoraqalpog'iston Respublikasi bor. Ularning umumiy soni 420 ming atrofida bo'lib, mamlakat aholisining 2,1 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda qadim Turon zaminining tub xalqlaridan tojiklar (umumiy aholining 4,7 foizi), qozoqlar (4,1 foiz), qirg'izlar (0,9 foiz), turkmanlar (0,6 foiz) ham yashaydi. SHunday qilib, O'zbekistonda jami aholi sonidagi tub xalqlarning ulushi 83,8 foizni tashkil qiladi. Mamlakat qishloqlarida yashovchi tub aholi esa 96,7 foizga teng. Hududimizda tatar, qrim-tatarlar, ozarbayjon, boshqirdlar va uyg'urlar ham yashaydi.

Mustamlakachilik yillarida mamlakatimizga ko'pgina slavyan xalqlarining vakillari kirib keldi. SHulardan eng ko'pi ruslardir. Ularning umumiy soni 3 mln. atrofida. Ruslar bilan birga yurtimizga ukrainlar, beloruslar, polyaklar, chexlar, slovaklar, bolgarlar ham kirib keldi. SHu tariqa, mamlakatimiz aholisi tobora ko'p millatli bo'lib bordi.

14.4.SHahar va qishloq aholisi

Tabiiyki, shahar aholisining ko'payish darajasi hududning industrilashtirish holati bilan bog'liq holda kechadi. O'zbekistonda XX asrda shahar aholisining salmog'i qator rivojlangan mamlakatlarnikidan orqada qolib ketdi. Faqat mamlakatimizning ayrim regionlari (va ayniqsa, markaziy shaharlari)da yirik-yirik sanoat korxonalarining barpo qilinishi, bir qator geografik rayonlarda esa qazib olish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi shahar aholisining birmuncha ko'payib borishiga olib keldi. 1865 yilda shahar aholisi umumiy aholining 14 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1927 yilda 21 foizga etdi. 1940 yilda shahar aholisi 24,5 foizni, 1959 yilda 33 foizni, 1970 yilda 36,6 foizni, 1979 yilda 41,2 foizni, 1989 yilda 40,7 foizni va 2003 yilda esa 38,8 foizni tashkil qildi.

Ayni bir paytda qishloq aholisining nisbatida teskari jarayon kechdi. YA'ni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashning chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarga tayanishi, sug'orishda ilg'or usullar (va avtomatika)ni qo'llash mehnat unumdorligi ortib borishiga olib keldi. Bunday holat qishloq xo'jaligidan bo'shagan ishchi kuchidan sanoatda, qurilishda va xizmat ko'rsatish sohalarida foydalanish imkoniyatini yaratib berdi.

Respublikada shahar aholisining ko'payib borishi urbanizatsiya jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Respublikada shahar aholisi keyingi yillar (1979-2003y.)da 2956 ming kishiga ko'paydi. O'rtacha yillik o'sishning nisbiy miqdori 7,2 foizga teng bo'ldi. Respublikaning shahar aholisi nihoyatda notekis joylashgan, asosiy qismi Toshkent vohasiga to'g'ri keladi. Biroq, Toshkent vohasi (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) shahar aholisining miqdori bo'yicha respublikada Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan keyingi o'rinda turadi. Keyingi yillarda Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida shahar aholisining o'sish sur'atlari barqarorlashmoqda. SHahar aholisi ishlab chiqaruvchi kuchlar nisbatan yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan regionlarda tez o'smoqda.

14.5. Aholining ijtimoiy tarkibi

Mamlakat aholisining ijtimoiy tarkibi rivojlangan mamlakatlarnikidan keskin farq qiladi, ya'ni bu erda xanuz qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan aholi soni yuqori. Ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi asosan 1939 yildan boshlab sezilarli darajada ortib bordi. Masalan, 1939 yilda mamlakat mehnat resursining 32,2 foizi ishchi va xizmatchilar hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989 yilda 79,7 foizga teng bo'ldi. SHu jumladan, ishchilarning ulushi 19,3 foizdan 55,7 foizga, xizmatchilarning ulushi 12,9 foizdan 24,0 foizga etdi.

Aholi ijtimoiy tarkibidagi tub o'zgarishlar mustaqillik yillarida yuz berdi. Ko'p mulkchilik, iqtisodiyotning qaror topishi va bozor munosabatlari shakllanishi ta'sirida aholining ijtimoiy tarkibi o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, aholi ongli(ishchi) qatlamining xususiy mehnat faoliyati va kooperativ sektorda band aholining tez sur'atlar bilan o'sishi aholi ijtimoiy tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalq ta'limi tizimi va madaniyati. Mamlakat aholisining ijtimoiy tarkibida yuz berayotgan o'zgarish (va o'sish)lar uning madaniy qiyofasida ham kuzatilmoqda. Xalq ta'limini rivojlantirish, maorif, fan, san'at, adabiyotni ravnaq toptirish va ularni umumxalq mulkiga aylantirish uchun yaqin o'tmishda ko'p ishlar qilindi. O'rta va oliy maktabni tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi-yangi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash, jahon hamjamiyatiga dadil kirib borayotgan mamlakatimizda dunyoviy bilimlar beradigan o'quv yurtlari ochish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Endilikda O'zbekistonda aholining savodxonligini oshirish, ularga kasbiy yo'nalish berish va madaniy darajasini ko'tarish tizimi ishlab chiqilgan. Xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lib, u o'z ichiga etti yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ish olib boradigan yasli, bog'cha, sog'lomlashtirish bog'chalari, uy-bog'cha, mavsumiy bog'chalarni qamrab oladi. Xalq ta'limidagi navbatdagi tizim umumiy ta'limdir. Ayni bir paytda umumiy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy bugin bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'naviy sifatlarini shakllantirish, ularga boshlang'ich kasb-kor ko'nikmalarini singdirish va turli fan yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilim egallashlarini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga muvofiq umumiy ta'lim uch bosqichdan iborat: boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar); tayanch ta'lim (5-9-sinflar); o'rta ta'lim (10-11-sinflar). Mazkur qonunga ko'ra, majburiy ta'lim muddati 9 yilga keltirilgan va u tayanch ta'lim davrini qamrab oladi. Mamlakat xalq ta'limi tizimida bolalar va o'smirlarning maktabda olgan bilimlarini mustahkamlash, qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda turli xil mehnat ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim ham amal qiladi. Mamlakatimizda maktabdan tashqi muassasalarining soni bir mingdan oshadi. SHu jumladan, xalq ta'limi tizimida 230 o'quvchilar saroyi, 140 ga yaqin yosh texniklar, 120 tabiatshunoslar, 40 dan ortiq; sayohatchilar markazlari, 390 dan oshiq bolalar va o'smirlar sport maktablari va boshqa turdagi muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat ta'lim tizimida hunar-texnika ta'limi, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'limning hissasi juda katta. Respublika hunar-texnika ta'limi tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu tizimda 260 kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ko'pgina hunar-texnika bilim yurtlari bosqichli hunar litseylariga aylantirilgan. YOshlarga hunar-texnika sirlarini o'rgatish va ta'lim-tarbiya berish bilan 18 mingga yaqin mutaxassis shug'ullanadi. Ular O'zbekistonning o'rta maxsus ta'lim tizimini rivojlantirishga, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun ma'lum iqtisodiy yo'nalishdagi malakali kadrlar tayyorlab berishga xizmat qiladi. Endilikda mamlakatning zamonaviy 5 kollej va bilim yurtlarida 200 ga yaqin ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda, oliy ta'lim har jihatda rivojlanib va keng qamrovli bo'lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda respublikada 62 oliy o'quv yurti, shu jumladan, 15 ta universitet faoliyat ko'rsatmoqda. Bu oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash dasturi asosida jahon andozalariga javob beradigan ixtisosliklar bo'yicha talabalarga fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlari asosida puxta bilim berilmoqda. «Umid» jamg'armasi orqali rivojlangan mamlakatlarning nufuzli universitetlarida minglab yoshlar tahsil olib, «Ustoz» jamg'armasi orqali esa yuzlab professor-o'qituvchidar malakalarini oshirib kelishmoqda.

14.6.Mehnat resurslari

Odatda, mehnat resursi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardan iboratdir. Mehnat resursining shakllanishiga aholining yoshi va jinsiy tarkibi, tabiiy o'sish darajasi va boshqa ijtimoiy holatlar ta'sir ko'rsatib turadi. Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan mamlakatimiz aholisi tarkibida yosh avlod salmog'ining ko'p bo'lishi mehnat resursi zahiralarining istiqbolli ekanligini bildiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat yoshidagi aholining barchasi ham ishlab chiqarishda qatnasholmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish, harbiy xizmatni o'tash, sog'lig'i yo'l bermasligi va boshqa sabablarga ko'ra ham ba'zilar ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmasligi mumkin. Ko'p bolali onalarning oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanish shug'ullanishi, shuningdek, shaxsiy xo'jalik yumushlari bilan ham mehnat resurslari balanslarini tuzishda inobatga olinmog'i darkor.

Mamlakatimizda aholi sonining o'sishi bilan bir qatorda uni foydali mehnatga jalb qilish imkoniyatlari kengaydi. O'zbekiston aholisi 1970-2004 yillarda 1,8 martaga, mehnat resurslari esa 2,0 martaga ko'paydi. 2005 yilga kelib mehnat resurslarining umumiy miqdori 14937,9 ming kishidan ortdi. Ularning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 228-230 ming kishidan iborat. O'zbekistonda mehnat resurslarining kasbiy ma'lumoti ham ancha yuqori, har 1000 kishi hisobiga oliy va to'liqsiz oliy ma'lumotga ega bo'lganlar soni 143 kishini tashkil etadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlarning har to'rttasidan biri oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish muammosi nihoyatda muhim masala ekanligini hisobga olib, O'zbekiston Oliy Kengashi 1992 yil 13 yanvarda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» qonun qabul qildi. Mazkur qonunda fuqarolarning mehnat qilish xuquqini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va

tashkiliy shart-sharoitlari belgilab berilgan, bozor munosabatlariga o'tish davrida uni amalga oshi-rishning tegishli kafolatlari nazarda tutilgan.

2005 yilda mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining yillik o'rtacha soni 1,4 foizga o'sdi va 9,9 mln.dan ortiqnafarn tashkil etdi. Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakat. Darhaqiqat, yaqin o'tmishda respublika ijtimoiy ishlab chiqarishida band bo'lgan aholining katta qismi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanib keldi. So'nggi yillarda mamlakatda, ayniqsa, sanoat va qurilishning tez rivojlanishigina faol aholi bandlik darajasiga o'zgarishlar kiritdi. Masalan, 1959 yilda mamlakat qishloq va o'rmon xo'jaligida 58,5 foiz aholi band bo'lgan bo'lsa, u 2001 yilga kelib 38,1 foizga tushdi. SHunga qaramasdan bu tarmoqda ishlovchilarning mutlaq soni hanuz ancha yuqoriligicha qolmoqda.

2005 yilda mehnatga layoqotli bo'lgan aholining 14937,9 ming nafari iqtisodiyotda band bo'lgan Ularning — 12,9 foizi sanoatda, qurilishda 7,7 foiz, transport va aloqada 4,6 foiz, jami moddiy ishlab chiqarishda foiz band. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi katta farq qiladi, ya'ni moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i ancha baland. Xalq xo'jaligining zikr qilingan tarmoqlarida mehnat resursining 80,1 foizi band bo'lganligini ham e'tiborga olmoq kerak. Bu farq esa nomoddiy ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotida tobora chuqur ildiz otib borayotganligini ko'rsatadi. Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida aholi bandligi sohasida ham chuqur o'zgarishlar yuz berdi, davlat sektori bilan bir qatorda nodavlat sektori ham vujudga keldi va u juda tez sur'atlar bilan o'smoqda. 2003 yilga kelib bandlik iqtisodiyotning davlat sektorida 23,4 foiz, nodavlat sektorida 74,2 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 76,6 foiz, Farg'ona viloyatida 79,5 foizgacha etdi. Respublikada bandlik xizmatini tashkil qilishga, ishsizlikning oldini olishga, mehnatga bo'lgan bozor talabi o'zgarib turishining oldini olishga katta e'tibor berilmoqda. 1991 yildan boshlab mamlakatimiz tuman va shaharlarida 210 dan ziyod mehnat birjalarining keng tarmoqli tizimi tashkil etildi. Mehnat birjalari ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni kasbga yo'naltirish, o'qitish va qayta o'qitish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash kabi qator vazifalarni bajarib kelmoqda. Hukumat tomonidan ko'rilgan tadbirlar natijasida va turli manbalar hisobidan nodavlat sektorida har yili 200 mingga yaqin ish o'rinlari tashkil qilinmoqda. 2003 yilda mehnat birjalarida 4,5 ming kishi ishsizlik bo'yicha ro'yxatga olingan. Bu iqtisodiy faol aholining 0,5 foizini tashkil etadi.

Aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi va tarkibi bandlikning barqaror ravishda o'sishini ta'minlashni taqozo etadi. qishloq joylarda aholining zich joylashganligi, qishloq xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchi mavjudligi hamda haydaladigan erga to'g'ri keluvchilar sonining kattaligi O'zbekistonda yaqin 5-10 yilda mehnat resurslariga muhtojlikni keltirib chiqarmaydi. Fikrimizcha, mamlakatda, iqtisodiy, demografik va geografik hususiyatlarni hisobga olgan holda aholi bandligi tizimini takomillashtirish lozim. Ushbu vazifani amalga oshirish mehnat bozori munosabatlarini tartibga solish, aholini qayta o'qitish va kasbga tayyorlash xizmati bilan bog'liq. Ishdan bo'shagan va ish bilan band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

ularni ijtimoiy himoya qilishning asosiy choralaridan biri. Xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi turli kurs, fakultet va institutlarni o'z ichiga oladi. Mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda korxonalarda smenali ishlarni ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti islohotlar strategiyasini ruyobga chiqarishda, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Ayrim davlatlarda aholi soni migratsiya hisobiga ko'paygan (ikkinchi jahon urushi davrida va undan so'ng). Aholining zichligi Farg'ona vodiysida yuqori. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda demografik holat qanday kechmoqda?
2. Aholining o'sishiga qaysi omillar ta'sir etadi?
3. Ichki va tashqi migratsiya holati qanday?
4. Qaysi viloyatlarda aholining zichligi yuqori?
5. O'zbekistonda qancha va qaysi millat vakillari yashaydi?
6. SHahar va qishloqlarda aholining o'sishida qanday tafovutlar bor?
7. Urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda?
8. Mehnat resurslari iqtisodiyot tarmoqlarida bandligini tushuntiring.
9. Aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlari?
10. Aholi bandlik muammolarini echish uchun qanday chora tadbirlar ko'rilmoqda?

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. Abirkulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, T.: «Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti», T.: 2004.
3. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. -T., 2000.
4. Soliev A.S., Axmedov E.A., Muxamadaliev R.I. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv o'quv qo'llanma. -T.: "Universitet", 2003.